- **xatti-harakatlar ma'lumotlari:** mijozning do'kondagi haqiqiy xaridlari uning xatti-harakatini va mahsulot tanlovini aks ettiradi. Shunday qilib mijozlarning sotib olish jarayonini kuzatish mijozlarning so'rovnomalarda berilgan javoblardan ko'ra aniqroq ma'lumot beradi;

- **eksperimental tadqiqot:** Bu tadqiqot sabab va ta'sir munosabatlarini aniqlash uchun qilinadi. Ushbu tadqiqot mahsulot sifati o'zgarishi sababli mijozning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarning oqibatlarini o'rnatish uchun olib boriladi.

3-qadam. Axborot to'plash: Bu marketing tadqiqotlarining eng murakkab usullaridan biridir. Ushbu bosqichda tadqiqotchi axborot to'plashning usullarini qo'llashi kerak, javob beruvchining noto'g'riligi, ja-

vob berishni istamasligi yoki uyda yo'qligi sababli to'g'ri ma'lumot to'plash qiyin kechishi mumkin.

4-qadam. Axborotni tahlil qilish: Ma'lumot yig'ilgandan so'ng keyingi qadam uni tahlil qilishni samarali usulda tashkil qilishdir. Tadqiqotchilar tahlil qilish uchun bir nechta statistik metodlarni qo'llashadi, masalan, o'rtachalar va dispersiyalarni hisoblashadi. Bundan tashqari, ba'zi bir rivojlangan qaror qabul qilish modellari ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi.

5-qadam. Topilmalarni taqdim etish: Nihoyat, barcha topilmalar va tadqiqotlar yuqori darajali boshqaruv darajasiga, boshqaruvchi direktor, bosh direktor yoki direktorlar kengashiga tadqiqotga muvofiq marketing qarorlarini qabul qilish uchun taqdim qilinadi.

6-qadam. Qaror qabul qilish: Bu marketing tadqiqotlarining so'nggi bosqichi bo'lib, bunda topilmalar top-menejmentga taqdim etiladi, so'ng ular yechimlarga tayanib qaror qabul qilishlari yoki topilmalarni noto'g'ri deb hisoblashlari mumkin.

Shunday qilib, marketing tadqiqotlari bozor haqidagi barcha ma'lumotlarni to'plash va marketing strategiyasini ishlab chiqishda keng qo'llaniladi.

3.5. Marketing tadqiqotlarini maqsad va vazifalarini shakllantirish

Bozor tadqiqotining maqsadi iste'molchilar va potensial mijozlar haqidagi ma'lumotlarni to'plashdan iborat. Yig'ilgan ma'lumotlar biznes qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu ma'lumotlar ushbu qarorlar qabul qilish bilan bog'liq xavflarni kamaytiradi.

Marketing tadqiqotlari quyidagi maqsadlarga erishish uchun olib boriladi:

1) to'g'ri rejalashtirish uchun asos yaratish: marketing va savdo prognozi tadqiqotlari barcha marketing rejalarini, siyosatini, dasturlarini va jarayonlarini shakllantirish uchun mustahkam asosni ta'minlaydi.

2) marketing xarajatlarini qisqartirish uchun: marketing tadqiqotlari sotish, reklama va tarqatish va h.k. kabi marketing xarajatlarini kamaytirish uchun vositalar va usullarni taqdim etadi.

3) mahsulot uchun yangi bozorlarni topish uchun: marketing tadqiqotlari mahsulot uchun yangi bozorlarni kashf etish va mavjudlarini saqlab qolishni maqsad qiladi.

4) to'g'ri narx siyosatini aniqlash uchun: marketing tadqiqotlari mahsulotlarga tegishli narx siyosatini shakllantirishda foydali hisoblanadi.

5) batafsil ma'lumot olish uchun iste'molchilarning afzal ko'rishini o'rganadi: marketing tadqiqotlari iste'molchilar (bozorni tashkil etuvchi erkaklar va ayollar) nimani o'ylashi va xohlayotganligini aniqlashga harakat qiladi. Bu bizni iste'molchilarning xohishi bilan muloqotda ushlab turadi va iste'molchilar nimani xohlamoqda yoki nimalar ular tomonidan afzal ko'rilmaydi kabi masalalarni o'rganadi.


6) Bozordagi raqobatni bilish: marketing tadqiqotlari, bozorda mavjud bo'lgan mahsulot haqida keng tarqalgan raqobat darajasini bilishni maqsad qiladi. Kompaniya raqobatchilarining harakati va strategiyasi haqida ishonchli ma'lumotga muhtoj bo'lishi mumkin, ular keyingi rejalashtirish uchun juda katta ahamiyatga ega.

7) Tashqi kuchlar va ularning ta'sirini o'rnatish: marketing tadqiqotlari tashqi kuchlarning tashkilotga ta'sirini o'rnatish orqali qaror qabul qilish jarayonida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Tashqi kuchlar o'z ichiga tashqi bozorlardagi, huquqiy tartibda, siyosatda va tartibga solishdagi o'zgarishlar va rivojlanishlarni, iste'molchilar daromadlari va xarajatlari, ularning xulq-atvorini, bozorga kiradigan yangi mahsulotlar va ularning mahsulotlariga bo'lgan ta'sirini olishi mumkin.

Marketing tadqiqotlarining beshta asosiy vazifasi quyidagilardir:

- tavsiflash;
- baholash;
- izohlash;
- prognoz qilish;
- qaror qabul qilishda yordamlashish.

Quyidagi 3.5.1-chizmada grafik marketing tadqiqotining besh asosiy funksiyasini aks ettiradi:



3.5.1-chizma. Marketing tadqiqotining funksiyalari

Tavsiflash: Marketing tadqiqotlari iste'molchilar, ularning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi, daromadlari va hokazolari haqida to'liq axborot beradi. Shuningdek, marketing tadqiqotlari raqobatchilar va bozor holati haqida ma'lumot beradi. Ushbu olingan ma'lumotlar marketing qarorlarini qabul qilish va marketing masalalarini hal qilish uchun ishlatiladi.

Baholash: Marketing tadqiqotlari kompaniyaning ish faoliyatini baholashga yordam beradi. Bu kompaniyaning ishlab chiqarish va marketing siyosatini amalga oshirish va shakllantirishga ko'maklashadi; mahsulot sifatiga, narxiga, qadoqlash, reklama, sotish, aksiyalarning texnikasiga mijozlarning munosabatini aniqlaydi. Agar iste'molchilarning reaksiyalari yomon bo'lsa, kompaniya o'z siyosatini o'zgartirishi kerak. Shuningdek, kompaniya siyosatini raqobatchilar siyosati bilan solishtiradi.

Izohlash: Marketing tadqiqotlari barcha marketing muammolari uchun tushuntirishlar (javoblar) beradi. Misol uchun, batafsil tushuntirishlar, nima uchun sotuv darajasi pasayishi. Marketing tadqiqotlar mavjud muammoning barcha kelib chiqish sabablarini yoki asoslarini beradi. Shuningdek, bu muammoni qanday hal qilish kerakligini ko'rsatadi.

Prognozlash: Marketing tadqiqotlari ham prognozlarni amalga oshiradi. Prognoz kelajak haqida taxmin qilish demakdir. Kelajakdagi

sotuv hajmi, bozor imkoniyatlari, xatarlar, kelajakdagi marketing muhit, iste'molchi xatti-harakati va boshqalar haqida prognozlar orqali bilib olish mumkin, lekin barcha taxminlar to'g'ri bo'lmashligi mumkin. Biroq bu taxminlar kompaniya kelajakdagi rejalar va siyosatlarni amalga oshirishga va kelajakdagi imkoniyatlardan foydalanishga, kompaniya duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlardan saqlanishga yordam beradi.

Qaror qabul qilishda yordamlashish: Marketing tadqiqotlari marketing menejeriga qaror qabul qilishga yordam beradi, bu jarayon uchun zarur barcha ma'lumotlarni taqdim etadi. Qaror qabul qilish, umuman olganda, ikki yoki undan ortiq alternativdan eng optimalini tanlashni anglatadi va bu jarayonda talab etiladigan axborotlar ishonchli, dolzarb va to'g'ri bo'lishi lozim.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Marketing tadqiqotlari eng birinchi qaysi mamlakatda rivojlangan?
2. Marketing tadqiqoti jarayoni tuzilishi qanday?
3. Korxonada samarali faoliyat yuritishi uchun qanday axborotlar kerak bo'ladi?
4. Marketing axborot tizimining asosiy xususiyatlarini izohlab bering.
5. Marketing axborotini asosini nimalar tashkil etadi?
6. Amaliyotda axborot to'plashni qanday usullari qo'llaniladi?
7. Axborot to'plashni imitatsiya uslubi deganda nimani tushunasiz?
8. Axborotlarni tahlil qilish qanday olib boriladi?
9. Marketing tadqiqotining funksiyalarini tushuntirib bering
10. Marketing tizimida prognozlash deganda nimani tushunasiz?
11. Bozordagi raqobat darajasini bilishni qanday usullarini bilasiz?
12. Etnografik tadqiqotlar o'tkazishdan maqsad nima?

4-MODUL. MARKETING TIZIMI VA SOHASI

4.1. Marketing tizimi haqida tushuncha

Marketing tizimi – bu qo‘yilgan maqsadlarga erishish va maqsadli bozor talabini qondirish uchun marketing qismlarining aniq birlashmasidir. Tarkib o‘zida to‘rtta asosiy qism – mahsulot yoki xizmat, narx, taqsimot va siljitishlarni bildiradi. Marketing tizimi - F.Kotler fikricha, korxonalar bilan uning hamkorlari va tovar (xizmat)lari sotiladigan bozordagi subyektlarini o‘zaro bog‘lab turuvchi eng muhim munosabatlari va axborot oqimlari majmuyini ifodalaydi.

Marketing tizimiga:

- ta‘minotchilar;
- vositachilar;
- sotuvchilar;
- iste‘molchilar;
- raqobatchilar;
- korxonalar faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan boshqa bozor subyektlari kiradi.²⁵

Marketing tizimi korxonaning bozordagi faoliyat strategiyasiga qarab shakllanadi va undagi o‘zgarishlar asosida yangilanaveradi. Marketing tizimining shakllanishiga va o‘zgarishiga asosiy sabab bozor konjunkturasi hisoblanadi. Marketing tizimi korxonalar tashqi muhitini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, texnik-texnologik, siyosiy huquqiy va madaniy omillar ta‘sirida shakllanadi va faoliyat yuritadi. Uning muvaffaqiyatli faoliyati korxonalar imkoniyatlarini bozor faoliyatiga nechog‘lik muvofiqligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga marketing tizimiga korxonaning raqobatchilari sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, ko‘pincha ularning bozor strategiyalari o‘zgarishi bilan tizimda yangi yo‘nalish boshlanishiga olib keladi. Marketing tizimi uchta global funktsiyaga ega: analitik, ishlab chiqarish va reklama funktsiyalari.

Marketing tizimining funktsiyalari.

Analitik funktsiya

- bozorni o‘rganish va bozor tendensiyalarini prognozlash;

²⁵ Маркетинг, Бозоршунослик/ А.Солиев, С.Бузрукхонов/Т.:“ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2010й.

- iste'molchilarning xulq-atvori va raqobatbardoshlik omillarini aniqlash;

- brend xabardorligi va imij samaradorligini tahlil qilish;
- kompaniya mahsulotlariga talabni prognoz qilish; ichki marketing konsaltingi, iste'molchi bilan munosabatlarda "muammolarni" aniqlash;
- mijozlarning manfaatlarini korxonada ifoda etish;
- tashkilotning maqsadi va maqsadlarini to'g'irlash bo'yicha tavsiyalar; strategik rejalashtirish va marketing auditi; marketing rejasi va strategiyasini ishlab chiqish;
- korxonaning marketing siyosatini shakllantirish;
- marketing auditi.

Ishlab chiqarish funksiyasi (ishlab chiqarishni rivojlantirish funksiyasi)

- ilmiy-tadqiqot;
- dizayn;
- mahsulotlarni sinovdan o'tkazish, qadoqlash va h.k.;
- sifat nazorati;
- xizmat ko'rsatish (sotishdan oldin va sotishdan keyingi xizmat, kafolatli xizmat).

Iste'molchilar bilan aloqa va mahsulotni reklama qilish.

- marketing kanalini tashkil qilish;
- savdo;
- savdoni rivojlantirish;
- sotishni reklama qilish;
- mijozlarga xizmat;
- PR.

Korxonaning marketing tizimi deganda, shuningdek, marketing funksiyalaridan birini bajaradigan yoki bevosita ta'sir qiladigan korxonaning barcha bo'linmalarining yig'indisi tushuniladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, marketing tizimining har bir alohida holat uchun o'ziga xos tarzda ajratilgan va lavozim tavsiflari va bo'limlar to'g'risidagi nizomlari asosida yaratilgan umumiy funksiyalari. Korxonaga uchun marketing tizimi samarali ishlashi uchun qo'yilgan maqsadlarga bog'liq.

Marketing tizimi har bir alohida korxonaga uchun har doim noyob ekanligini, ya'ni korxonaning marketing tizimi noyob ekanligini tushunishingiz kerak. Bu turli xil omillarga bog'liq: Korxonaning hajmi,

uning bozordagi mavqei, moliyaviy imkoniyatlari, bozor turi, tajribasi va boshqalar. Shunga ko'ra, hamma joyda ishlaydigan noyob tizim mavjud emas va bo'lmaydi ham. Albatta, siz ba'zi standart shablonlarni ishlatishingiz mumkin, ammo baribir ularni kompaniyaga moslashtirishingiz kerak va bu yerda marketing tizimini shakllantiradigan yoki uni moslashtiradigan mutaxassisning malakasi juda muhimdir. Vakolatli mutaxassis maksimal natijaga minimal xarajat bilan erishilishiga ishonch hosil qilishi kerak. Unchalik qobiliyatli bo'lmagan mutaxassis uni chetlab o'tishi va keraksiz elementlarni tizimga kiritishi mumkin. Har bir marketing tizimi noyob bo'lishiga qaramay, har qanday tizimda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan elementlar mavjud. Ushbu elementlar korxonaning lokomotivi bo'lib, uning kafolatli rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi. Korxonaning marketing tizimi o'nlab, ba'zan yuzlab elementlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ularning hammasi ham barcha korxonalarga kerak emas. Biroq, zarur bo'lgan elementlar mavjud, chunki ularning yo'qligi past daromadga sabab bo'ladi:

Aniq korxonaga uchun marketing bo'limi haqida Nizom ishlab chiqishda korxonaning xususiyatlari: strategik maqsadlari, vazifalari, boshqaruvning tashkiliy strukturalari, faoliyat sohasi, biznes turining soni, moliyaviy, mehnat resurslari, shuningdek, qonunchilik va me'yoriy hujjatlar hisobga olinadi.

F.Kotler marketing tizimi tushunchasiga kompleks yondashib, uni jiddiy bozor munosabatlari va axborot oqimlari kompleksi deb tushunib, firmaning bozorlarga bevosita bog'liq faoliyatiga katta e'tibor beradi. Bunday sharoitda firmaning ichki va tashqi muhiti tahliliga alohida e'tibor qaratish zarur.

Demak, marketing tizimi – firma faoliyatining operativ va strategik yo'nalishini belgilab beradigan tashkiliy, boshqaruv, rejalashtirish sohaslariga tegishli to'xtovsiz jarayon, subyektlar, vositalar va axborot oqimlari kompleksidir (4.1.1-chizma).

Tashkiliy nuqtayi nazardan oddiy va murakkab tarqatish kanallariga asoslangan gorizontal va vertikal marketing tizimlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Gorizontal marketing tizimlari odatda yangi paydo bo'layotgan marketing imkoniyatlaridan foydalanish uchun birgalikda faoliyat olib borishga rozi bo'lgan tarqatish kanalining bir xil darajasidagi kompaniyalarni birlashtiradigan savdo tizimlari tushuniladi. Gorizontal marketing tizimi tijorat mahsulotlarini tarqatishda qo'shma

siyosatni amalga oshirish uchun doimiy yoki vaqtincha asosda birlashtirilgan ikki yoki undan ko'p mustaqil firmalar tomonidan yaratilishi mumkin.



4.1.1-chizma. Marketing tizimi tuzilmasi

Bunday holda, uchta variant mavjud: Gorizontal marketing tizimi-ning bir qismi bo'lgan kompaniyalar muammoni birgalikda hal qilishadi, masalan reklama sohasida hamkorlik qilish yoki qo'shma xaridlarni amalga oshirish; Gorizontal marketing tizimi tarkibiga kiruvchi kompaniyalar o'zlarini mumkin bo'lgan xatarlardan sug'urtalashga harakat qilib, bir-biri bilan hamkorlik qilishadi; Gorizontal marketing tizimi tarkibiga kiruvchi kompaniyalar hamkorlikda katta foyda ko'rmoqdalar. Gorizontal marketing tizimi a'zolari mustaqil ravishda ishlab chiqaruvchi, bir yoki bir nechta ulgurji va chakana sotuvchilardan tashkil topgan an'anaviy tarqatish kanallari hisoblanadi. Kanalning har bir a'zosi butun tizim uchun maksimal foydani sarflab, o'zlari uchun mumkin bo'lgan maksimal daromadni ta'minlashga intiladi. Gorizontal marketing tizimi a'zolarining hech biri uning boshqa ishtirokchilari faoliyatini to'liq yoki yetarlicha to'liq nazorat qila olmaydi. Ikkala raqobatdosh va raqobatdosh bo'lmagan kompaniyalar gorizontal marketing tizimining a'zolari bo'lishlari mumkin. Gorizontal marketing tizimini qo'llashning yaqqol misoli sifatida «Dr. Pepper» kompaniyasi ishlab chiqarilayotgan alkogolsiz ichimlikni mustaqil ravishda quyish uchun yetarli imkoniyatga ega bo'lmaganligi uchun Coca-Cola kompaniyasi bilan hamkorlik qilgan va boshqa idishlarni sotuvchi kompaniyalarni litsenziyalash asosida boshlagan.

Vertikal marketing tizimi odatda ishlab chiqaruvchi, ulgurji savdo qiluvchi va chakana sotuvchilar bir butun bo'lib xizmat qiladigan tarqatish kanallarining tuzilishi deb tushuniladi. Shu bilan birga, tarqatish kanali a'zolaridan biri, yetarli kuchga ega bo'lib, kuchni va qolgan qismini nazorat qilishni o'z qo'lida ushlab turadi. Bunday holda, tizim a'zolaridan biri boshqalariga egalik qiladi, ularga savdo imtiyozlarini beradi yoki ularning to'liq hamkorligini ta'minlaydi. Vertikal marketing tizimidagi dominant (hal qiluvchi) kuch ishlab chiqaruvchi yoki ulgurji savdo qiluvchi yoki chakana sotuvchi bo'lishi mumkin. Yanada aniqrog'i, vertikal marketing tizimi quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqaruvchi;
- bir yoki bir nechta ulgurji savdo;
- yagona tizim sifatida ishlaydigan bir yoki bir nechta chakana sotuvchilar.

Vertikal marketing tizimi paydo bo'lishi bozorning eng kuchli ishtirokchilarining o'z maqsadlariga intilayotgan bozorning boshqa ishtirokchilarining xatti-harakatlarini nazorat qilish istagi bilan bog'liq.

Bugungi kunda vertikal marketing tizimini tashkilot darajasiga ko'ra quyidagicha ajratiladi:

- Korporativ vertikal marketing tizimi - tarqatish tarmog'ining barcha qismlari bitta ishlab chiqaruvchi kompaniyaga tegishli bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish, import qilish va keyinchalik tarqatilishini to'liq nazorat qiladi;


- Ma'muriy vertikal marketing tizimlari kam chizmaiyatliligi bilan ajralib turadi: ularda savdo tarmog'ining har bir subyekti vertikal marketing tizimining boshqa ishtirokchilariga ta'sir qilish uchun yetarli kuch va vakolatlarga ega. Zamonaviy nazariy amaliyotda kanalning eng nufuzli ishtirokchisi "sardori" deb nomlanadi - bu dilerlik tarmog'ining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan shaxs, uning faoliyatidagi barcha ishtirokchilar uchun eng foydali bo'lishini ta'minlaydigan kishi;

- Shartnomali vertikal marketing tizimi - vertikal marketing tizimining yuqoridagi turlari o'rtasidagi oraliq aloqa. Bunday tarqatish tarmog'ining barcha subyektlari vertikal marketing tizimidagi ularning vakolatlari va rolini belgilaydigan shartnoma munosabatlari bilan bog'liqdir. Dastlab, vertikal marketing tizimlari tovarlarning taqsimlanishini nazorat qilish va dilerlik tarmog'ining alohida a'zolari o'rtasidagi har

qanday to'qnashuvlarning oldini olish uchun universal vosita sifatida yaratilgan.

4.2. Marketing turlarining asosiy belgilari

Marketing logistikasi jismoniy tovarlar oqimini, marketing materialarini va axborotni ishlab chiqaruvchilardan bozorga yetkazib berish, rejalashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Logistik marketingning maqsadi mijozlar talablarini qondirish va qoniqarli foyda olishdir. Kompaniyalar raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun mahsulot, narx, joy va reklama bilan bog'liq samarali strategiya yaratishlari kerak.



4.2.1-chizma. Marketing va logistika

Marketing logistikasining bu to'rtta funksiyasi tashkilotga maqsadli mijozlarga erishish va tashkilot tomonidan sotilgan mahsulot yoki xizmatlarni ushbu mijozlarga yetkazib berishga yordam beradi.

Marketing logistikasining to'rtta funksiyasi – bular mahsulot, narx, joy va reklamadir.

1-funksiya: mahsulotni yetkazib berish

Logistika marketingining bir funksiyasi sizning mijozingiz kimligini va u mahsulotga qanday erishadi yoki unga qanday xizmat ko'rsatish kerakligini aniqlab beradi. Har bir mijozning individual ehtiyojlari

bo'lganligi sababli taqdim etilayotgan logistika xizmatlari bir mijozniki boshqasidan farq qiladi. Marketing logistikasi ushbu yo'nalishining maqsadlari buyurtmani to'ldirish, vaqtida yetkazib berish, aniq hisob-kitob qilish va nol darajadagi zararni o'z ichiga oladi.

2-funksiya: narx

Tashkilotning narx belgilashdagi qarorlari ichki va tashqi omillarga asoslanadi. Marketing logistikasi narxlarda o'zgarishga olib keluvchi omillarni bilishi kerak. Buyurtmachining profili, mahsulot va buyurtma turi narxni o'zgarishiga olib keluvchi omillardir. Ushbu o'zgarishlar, odatda, marketing logistikasi tomonidan nazorat qilinmaydi. Biroq logistik marketing ushbu omillarga ta'sir qilishi va mijozlarning qarorlariga bu omillar qanday ta'sir qilishi mumkinligini tushunishi kerak. Miqdorlar uchun chegirmalar va tegishli logistik xarajat tarkibi mijozning mahsulot yoki xizmat uchun to'layotgan narxiga ta'sir qiladi. Narx o'zgarishiga olib keluvchi qo'shimcha omillar tashish xarajatlari bilan bog'liq, ya'ni yukning o'lchami, og'irligi, kompaniya yetkazib berishi lozim bo'lgan masofa va hokazo. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonining o'lchami, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan materiallarning turlari, miqdori va sifati mahsulot narxiga ta'sir qilishi mumkin.

3-funksiya: rag'batlantirish

Rag'batlantirish – tashkilotning marketing logistikasi jarayonining yana bir muhim jihatidir. Mahsulotni bozorga chiqarishda tashkilot turli xil marketing materiallari logistikasini muvofiqlashtirishi lozim. Masalan, san'at bo'limi mahsulot qutisi uchun chizma loyihalashtiradi va tashqi mahsulot yetkazib beruvchisi esa chizma bilan qutilar ishlab chiqaradi. Marketing logistikasi barcha subyektlarning birgalikda ishlashini va mahsulotni sotish uchun zarur bo'lgan marketing materiallarini ishlab chiqarishni ta'minlashga yordam beradi.

4-funksiya: joy

Marketing logistikasida joy vazifasi tashkilotga logistik provayder va mijoz o'rtasidagi bitimni soddalashtirish imkonini beradi. Tashkilot marketing logistikasini shunday amalga oshirishi kerakki, xaridor bu jarayondagi murakkabliklardan xabardor bo'lmasligi lozim. Buyurtmachi uchun mahsulot miqdori har doim ham jarayondan muhimroqdir. Shu sababli, tashkilot hech qachon mijozlarga mahsulotlarni yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan logistik jarayonni oshkor etmasligi lozim.

Bundan tashqari, fabrikaning, omborxonaning va mijozning joylashishi marketing logistikasi jarayoniga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin va bu xarajatlarni kamaytiradi yoki oshiradi. Masalan, Meksikada zavodni joylashuvi mahsulot bilan bog'liq bo'lgan mehnat xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, Meksikada zavodning joylashuvi transport xarajatlarini oshiradi va har qanday xarajatlarni tejashni inkor qiladi.

Global marketing bu oddiygina mahsulotni xalqaro bozorda sotish emas. Balki, jahon bozorida kompaniyaning mahsulotlarini rejalashtirish, ishlab chiqarish, joylashtirish va targ'ib qilish jarayonini o'z ichiga oladi. Katta korxonalar odatda xorijiy mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun filliallari mavjud, lekin bugungi kunda internetning kengayishi bilan, hatto kichik kompaniyalar ham butun dunyo bo'ylab xaridorlarga ega bo'lish imkoniyati mavjud. Global marketingning ayrim yorqin misollari quyidagilar:

- McDonald's;
- Starbucks;
- Coca-Cola;

Kentucky Fried Chicken (KFC)

Global marketing – "global maqsadlarga erishish uchun global operativ farqlar, o'xshashlik va imkoniyatlarni global miqyosda muvofiq-lashtirilish yoki tijoratda afzallikka erishishdir."²⁶


Global marketing mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda iste'molchilarga mahsulot va xizmatlarni sotishga qaratilgan umumiy biznesni boshqarish sohasida tadqiqotlar sohasi hisoblanadi.

Umuman olganda, marketing mahalliy va xalqaro darajada amalga oshiriladi va shunga ko'ra mahalliy va global marketingga ajraladi (4.2.2-chizma).

Mahalliy marketing – bu bir mamlakat ichida tovarlar va xizmatlarni cheklangan holda sotishdir. Bunda bozorlar mamlakat qonunlari va qoidalari bilan chegaralanadi.

Global marketing kompaniyani mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq talablarni global standart yechimlar yoki mahsulotlarga mos ravishda tushunishni talab qiladi.

²⁶ "International Marketing vs Global Marketing (10 Differences)". *eduCBA*. 16 September 2016. Retrieved 4 October 2017.



4.2.2-chizma. Marketing turlari

Global marketing va global brending integratsiyalashgan jarayon hisoblanadi. Brendlash firma resurslarining aktivlarini tahlil qilishning tizimli jarayonini o'z ichiga oladi. Brendni strategik tahlil qilish va rivojlantirish mijozlar tahlilini (tendensiyalar, motivatsiya, talab etilmaydigan ehtiyojlar, segmentatsiya), raqobatbardosh tahlilni (tovar belgisi / tovar identifikatori, kuchli tomonlari, strategiyalari, zaifliklari) o'zo'zini tahlil qilish (mavjud brend obrazi, kuchli / qobiliyatleri, tashkilotning qadriyatleri)ni o'z ichiga oladi.

Global marketingning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish va taqsimlashda iqtisodiyotning musbat samarasi bo'lishi;

- marketing xarajatlarini kamaytirish;
- tovar imijidagi izchillik;
- fikrlarni tez va samarali ishlatish qobiliyati;
- marketing amaliyotlarining bir xillashuvi;
- "siyosiy arenadan tashqarida" munosabatlarni o'rnatishga keng imkoniyat yaratilishi;

- marketing zamonaviy turlarining rivojlanishi.

Global marketingning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- iste'molchilarning ehtiyojlari, istaklari va mahsulotlardan foydalanishdagi farqlarning mavjudligi;

- marketing miks elementlariga iste'molchilar javoblaridagi farqning mavjud bo'lishi;

- tovar va mahsulotni rivojlantirishda; raqobat muhitidagi farqlar;

- huquqiy muhitdagi farqlar (ularning ba'zilari ichki bozorga zid bo'lishi mumkin);

- mavjud muassasalardagi farqlar (ularning ba'zilari butunlay yangilarini yaratishi mumkin (masalan, infratuzilma);

- boshqaruv sohasida farqlar mavjudligi;
- mahsulotni joylashtirishdagi farqlar.

Kompaniyaning jahon bozorlaridagi marketing faoliyati **global marketing menejerlari, internet marketing menejerlari va bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar** bilan juda oson kechadi.

Global marketing menejerlari kompaniya strategiyasini va chet eldagi ulushini boshqaradi. Ular nima qilishadi?

- xalqaro bozor imkoniyatlarini aniqlash;
- turli xil xalqaro bozorlar uchun tegishli marketing miksni shakllantirishga maslahat berish;
- mahsulotni ishlab chiqarish uchun tashqi bozorlarda mahalliy biznes bilan aloqalarni o'rnatish;
- mahalliy sharoitlarni o'rnatish va maslahat berish, shu jumladan, huquqiy muhitni ham.

Internet marketing menejerlari kompaniyaning onlayn biznesini rivojlantiradilar. Ular nima qilishadi?

- global onlayn bozorga kirish uchun veb-saytlarni bir nechta tillarda rivojlantirishadi;
- jahon bozoriga web-saytlar orqali yetishish imkonini beradigan reklamalarni rivojlantirish;
- kompaniyaning global bozorda ishtirokini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash uchun onlayn ma'lumotlardan foydalanish.

Bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar – tashqi bozor haqida ma'lumot to'playdi. Ular nima qilishadi?

- xorijiy bozorning iste'molchi bazasi bo'yicha ma'lumotlar to'plash uchun turli usullarni (intervyular, so'rovnomalar va statistik tahlillarni o'z ichiga olgan holda) ishlatish;
- kompaniyaning mahsulotiga bo'lgan talabni aniqlash va mahalliy raqobatni va iste'molchi didini hisobga olgan holda, ushbu mahsulotlar sotilishi mumkin bo'lgan narxlarni baholash;
- mahsulot taqsimoti, aloqalari uchun mavjud bo'lgan kanallarni aniqlash va tashqi bozorda xarajatlar ichki xarajatlardan qanday farq qilishini ko'rsatish;

• xorijiy madaniyatlarni oʻrnatish, mahsulot xabarlariga madaniy javoblarni baholash va prognozlash.

Xalqaro marketing – tashqi iqtisodiy faoliyat, jahon bozori marketingi. Uning mamlakat ichki bozorlari marketingidan koʻpgina farqi bor. Avvalo, jahon bozoriga har bir mamlakat oʻz marketing strategiyasi bilan kirish uchun tanlangan mamlakatning umum madaniy va iqtisodiy muhitlarni tahlil qilishi zarur. Shu bilan birga xalqaro marketing firmaning tashkiliy ishlarini jahon standartlari darajasida mahsulotni rejalashtirish, sotish, harakatini tashkil etish va narxlashtirishda oʻziga xos talablar qoʻyadi. Xalqaro marketing strategiyasi eksport, import va qoʻshma korxonalar tashkil etishda alohida-alohida yondashishni taqozo etadi. Xalqaro marketing jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarini, tashqi muhitni, aniq bozorni tanlash va unga kirish usullarini aniqlash, marketing rejasini tuzish, raqobatchilar faoliyatini tadqiq qilish va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

Toʻgʻridan - toʻgʻri marketing – bu tovarlar va xizmatlarni sotishni ragʻbatlantirish uchun ogʻzaki, yozma, telefon, elektron shaklda reklama murojaatining turi. Toʻgʻridan-toʻgʻri marketingning asosiy xususiyati sotuvchi va xaridor oʻrtasida dialog oʻrnatish, shu asosda ular oʻrtasida uzoq muddatli barqaror munosabatlarni oʻrnatish va doimiy mijozlar doirasini shakllantirishga hissa qoʻshishdir. Toʻgʻri marketingni isteʼmolchidan toʻgʻri buyurtma olish marketingi ham deyiladi. “Toʻgʻridan-toʻgʻri marketing tezkor javob olish uchun tanlangan aniq mijoz bilan toʻgʻridan-toʻgʻri (interfaol) muloqotdan iborat”²⁷. Toʻgʻridan-toʻgʻri marketing xaridorlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni oʻrnatish va saqlab qolishga imkon beradi. Toʻgʻridan-toʻgʻri marketingning asosiy shakllari: - shaxsiy sotish - taqdimotlarni tashkil qilish, savollarga javob berish va buyurtmalarni qabul qilish uchun bir yoki bir nechta potensial xaridor bilan bevosita oʻzaro aloqa qilish; - pochta orqali toʻgʻridan-toʻgʻri marketing - potensial xaridorlarga pochta varaqalari manzillaridan pochta orqali yuboriladigan xatlar, reklama materiallari, risolalar va boshqalarni oʻz ichiga oladi; - kataloglar boʻyicha sotish - mijozlarga pochta orqali yuborilgan yoki doʻkonlarda sotiladigan tovarlar kataloglaridan foydalanish; - telefon marketingi (telemarketing) - telefondan mijozlarga tovarlarni toʻgʻridan-toʻgʻri sotish vositasi

²⁷ Барышева А.В. «Продажи на 100%». 3-е издание. - СПб.: Питер, 2007. - 192 с.

sifatida foydalanish; - to'g'ridan-to'g'ri javob televizion marketing - aloqa elementlari (odatda telefon raqami) yordamida reklama televizion (yoki radio) dasturlar orqali tovarlar va xizmatlar savdosi; - Interfaol (onlayn) marketing - real vaqt rejimida interfaol kompyuter aloqasi xizmatlari orqali to'g'ridan-to'g'ri marketing. To'g'ridan-to'g'ri marketing kompaniyalari marketing taklifi iste'molchilarning tor segmenti yoki individual mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilganligini diqqat bilan kuzatib boradilar²⁸. To'g'ridan-to'g'ri marketing, birinchi navbatda, vositachilik reklamasi va qimmatbaho shaxsiy aloqalarisiz mijozlarning maksimal soniga to'g'ridan-to'g'ri mahsulotni sotishni tashkil qilish usuli sifatida foydalidir. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri marketing potensial mijozlar va xaridorlar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatish va xabardor qilish maqsadida maqsadli auditoriyani kompaniya bilan aloqaga jalb qilish uchun samarali vositadir.

1972-yilda F.Kotler mikromarketing va makromarketing tushunchalarini asoslab bergan. **Mikro marketing** - bu bitta segment yoki alohida iste'molchilar uchun marketing strategiyasini ishlab chiqish. Odatda, firmalar individual iste'molchilar bilan pochta yoki telefon orqali bog'lanishadi. Iste'molchilar odatda manzil kataloglari yordamida aniqlanadi. Mikromarketning afzalligi shundaki, firmalar individual iste'molchilarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takliflarni moslashtirishlari mumkin. Ammo firmalar, agar ular iste'molchilarning individual xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanmasalar, iste'molchilarning shaxsiy huquqlarini buzmasliklari kerak. Agar pochta ro'yxati bo'lmasa, firmalar geodemografik tahlilga murojaat qilishadi, bu pochta kodini tahlil qilish va demografik xususiyatlar bilan bog'lash orqali oilalarni aniqlaydi. Mikromarketing turlaridan biri bu buyurtma asosida marketing, ya'ni, individual iste'molchilar ehtiyojlari asosida tovarlarni ishlab chiqish. Mikromarketingda iste'molchilarni tanib olish va ularga erishish hamda individual iste'molchilar uchun mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash uchun imkoniyatlar cheklangan. Makromarketing (ba'zi manbalarda ommaviy marketing) bu bozorning iloji boricha ko'proq qismiga xizmat qiladigan yaxlit marketing strategiyasidir. Makromarketing jamiyat darajasidagi ehtiyojlarni tahlil qilish va xabardor qilishga asoslangan bo'lib, ushbu ehtiyojlarning hukumat qarorlariga ta'sirini aniqlaydi. Hozirgi bosqichda makromar-

²⁸ Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. Европейская перспектива. - СПб: Наука, 2006.

ketatsiya hali tizim sifatida to'liq shakllanmagan. Makromarketing tizimi shakllanishi va samarali ishlashi uchun davlat bozor munosabatlarining subyekti sifatida harakat qilishi kerak. Har qanday muvaffaqiyatli iqtisodiyotda kam ta'minlangan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun davlat va kommunal korxonalar va tarqatish kanallari yangi modelini makromarketing tizimi bilan bir vaqtda shakllantirish kerak. Makromarketingni asosi jamiyat ehtiyojlarini o'rganish va ushbu ehtiyojlarga asoslangan holda ularni samarali qondirish uchun yo'nalishlarni shakllantirishdan iborat.

4.3. Tarmoqlar marketingi

Nima uchun xodimlarni boshqarish bo'yicha barcha majburiyatlarni maslahatchilarning o'zlariga yuklamaysiz? Ularni odamlarni yollashlariga, o'rgatishlariga va rag'batlantirishlariga ijozat bering, shunda siz ularga taklif qilingan odamlarning aylanmasi bo'yicha foiz to'laysiz. Natijada, siz ishlab chiqaruvchi sifatida katta bosh og'rig'idan xalos bo'lasiz va maslahatchilar endi ularni haqli ravishda distribyutorlar deb atashadi. Ha, bu tarmoq marketingi, ya'ni, siz o'zingiz yoqtirgan mahsulotni sotib oldingiz, masalan, sochlar uchun shampun bo'lsin. Siz qo'shningiz Salimaga aytasiz: "Menikiday yumshoq va ipak sochlarni xohlaysizmi? Sebozol shampunini sotib oling. "Salima sotib oladi. Chunki, u sizga ishonadi va sochlaringiz haqiqatan ham yumshoq ko'rinadi. Aslida, biz bolaligimizdanoq tarmoq marketingi bilan shug'ullanmoqdamiz. Siz arzon narxlardagi do'konni topdingiz va do'stingizga aytdingiz, u ham o'sha do'kondan mahsulotlarni xarid qiladi. Biz go'zal ayol do'kon tokchasida notanish mahsulot olib ketayotganini ko'rdik. "Mazalimi?" Siz so'raysiz. "Ha, men uni har doim olaman", deb javob beradi u va siz ham uni qabul qilasiz. Faqatgina do'kon bunday tavsiyalar uchun pul to'lamaydi. Endi biroz vaqt o'tgach, siz Salimaga: «bilasizmi, men sizning xaridlaringiz uchun pul olaman. Siz ham shuni xohlaysizmi? Salima allaqachon ishonch hosil qilgan edi. Salima bilan birgalikda sizning dugonangiz Karimani Sebozol shampunini sotib olishga ishontirish juda oson. Salima xursand va siz ikki barobar xursandsiz, chunki, Karima ham sizning guruhingiz a'zosi bo'ldi. Chunki siz uning xaridlaridan pul olasiz. Va boshqalar. Tarmoq marketingida daromad cheksizdir va faqat sizning

harakatlaringizga va marketing rejasi turiga - kompaniya tomonidan qabul qilingan distribyutorning kompensatsiya rejasiga bog'liq.

Tarmoq marketingi (multilevel marketing, MLM) bu butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar shug'ullanadigan biznes turi. Har yili o'n minglab odamlar tarmoq kompaniyalariga qo'shilishadi. Ushbu biznesda juda ko'p odamning ishtirok etishi katta muammo tug'diradi: hech qanday ma'lumot manbai yo'q, shuning uchun MLM haqida ko'plab mish-mishlar va afsonalar mavjud. MLM ning iqtisodiy ma'nosi nima? Nega ko'pgina kompaniyalar ushbu tizimni tanlaydilar? Tasavvur qiling, siz ishlab chiqaruvchisiz. Siz mutlaqo noyob mahsulotni ishlab chiqaradigiz va uni bozorga olib chiqishni xohlaysiz. Endi siz qaysi sotish tizimini tanlash kerak degan savolga duch kelasiz. Tahlil qilaylik: Biz ko'rib chiqadigan birinchi tizim - an'anaviy savdo. Ya'ni, siz o'zingizning tovarlaringizni katta ulgurji sotuvchiga, u kichkina ulgurji sotuvchiga, ya'ni juda kam miqdorda sotasiz, nihoyat tovarlar do'konga olib kelinadi. Ya'ni, hammasi silliq bajarilganday ammo tovar iste'molchiga yetib borganda, u ancha qimmatga tushadi, chunki do'kon egalari o'zining ulushini qo'yadilar. Mahsulot do'konga kelgandan keyin ham iste'molchi bu haqda bilishi kerak. Buning uchun reklama qilish kerak, bularning barchasi mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda ko'plab ishlab chiqaruvchilar do'konlarsiz umuman ishlamaydi. Ular o'z mahsulotlarini sotadigan maslahatchilarni yollaydilar. Ushbu (sotuvchilar, savdo agentlari va boshqalar deb ham ataladi) ushbu kompaniyalardan har bir sotilishning foizini oladi. Nima uchun mahsulotni tarqatishning bu turi mashhur? Javob oddiy. Shaxsiy aloqalar juda samarali. Biror kishi reklama qilishdan ko'ra boshqa odamga ishonadi. Bundan tashqari, bu yerda vositachilar yo'q, shuning uchun iste'molchi mahsulotni arzonroq sotib oladi yoki uni xuddi shu narxda, lekin yuqori sifatga oladi. Ammo sotishni ko'paytirish uchun siz ko'proq maslahatchilarni yollashingiz kerak, demak ularning ishlarini qandaydir tarzda tashkil etish kerak, ularni o'qitib borish kerak va bu juda katta xarajat.

MLM tarixi amerikalik Karl Renborg (1887-1973) nomi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning amalga oshirilgan g'oyalari ko'p milliard dollarlik tarmoq marketing sanoatiga aylandi. O'n ikki yil davomida Rehnborg Xitoyda yashab, Amerikaning turli kompaniyalarida (neft, kemasozlik va boshqalar) ishlagan va hattoki u odamning to'g'ri

ovqatlanishi tizimi va undagi vitaminlarning roli haqida o'ylashni boshlagan. 1920-yillarning o'rtalarida Xitoyda, qamoqqa olingan. O'sha paytda u turli xil parhezlarni amalda sinab ko'rishni boshladi. Rehnberg o'z vataniga qaytgandan keyin ko'plab vitaminlar, minerallar, oqsil va boshqa foydali tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan beda asosida turli xil ozuqaviy qo'shimchalarni ishlab chiqara boshladi. Rehnberg uning asosida yaratilgan dori-darmonlarni do'stlariga sinab ko'rish va mahsulotlarni bepul tarqatish uchun taklif qildi. Hech qanday natija bo'lmadi - hech kim paydo bo'lgan ozuqaviy qo'shimchalarni sinab ko'rmadi. Keyin Karl bepul pul qadrlanmasligini anglab, ular uchun pul ola boshladi. Natijalar darhol paydo bo'la boshladi. Foydali qo'shimchalar haqida ma'lumot keng tarqaldi, odamlar yangi mahsulot haqida ko'proq ma'lumot olish uchun Rehnbergdan uchrashuvlar haqida so'rashdi. Albatta, Karl barcha talablarni qondira olmadi. Shunda unga ajoyib bir fikr keldi. Rehnberg do'stlarini oziq-ovqat qo'shimchalari haqida ma'lumot berishga taklif qildi va agar ular mahsulotni sotib olishsa, u komissiya to'lashga va'da berdi. U, o'z navbatida, tovarlarini o'z ulushlaridan foydalangan holda yanada ko'proq reklama qiladigan do'stlarining tanishlari uchun pul to'lashga qaror qildi. Shunday qilib tarmoq marketingi paydo bo'ldi va 1934-yilda Karl Rehnberg Kaliforniya Vitaminlarini yaratdi va yangi savdo tizimi tufayli mahsulot iste'molchilari paydo bo'ldi. Reklama uchun bir dollar sarflamasdan tezda 7 million dollarga teng aylanma mablag'ga erishdi.

Tarmoqlar marketing – bu mustaqil vakillarning shaxsdan-shaxsga sotish bilan bog'liq biznes modeli.

Tarmoqlar marketing ko'p darajali marketing sifatida ham nomlanadi, firma mahsulotlarini sotadigan odamlarning piramida shaklida tuzilgan tarmog'i bo'lgan biznes modelidir. Ushbu tarmoqdagi ishtirokchilar, odatda, sotilgan tovardan tushgan daromaddan foiz asosida ish haqiga ega bo'lishadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu tarmoqdagi odamlar har safar ko'rsatilgan vazifani bajarganlarida foiz oladi:

- mahsulot sotganda;
- ular mahsulot savdosini oshirganda.

Oddiy so'zlar bilan aytganda, ushbu model puli bo'lmagan ishtirokchilarning piramida tuzilmasini o'z ichiga oladi, ular piramidada yoki ular ostida bo'lgan odam sotuvni amalga oshirganda pul to'lashadi. Tarmoqli marketing mahsulot ishlab chiqaruvchi tomonidan beriladigan


mukofot evaziga distribyuterlar va sotish tizimini tashkil etish demakdir. Asosiy ish ko'rsatkichi natijasi bo'lib sotish hajmi hisoblanadi. Tarmoqli marketing orqali tovar sotish, oddiy tovar sotishdan farq qiladi. Mazkur tizimda ishlash uchun eng avvalo tovar xususiyatlarini chuqur va mu-kammal bilish talab etiladi yoki oldin o'zi xarid qilib iste'mol qiymatini sinab ko'rish lozim. Tarmoqli marketing tizimida, birinchi navbatda, tanishlarga va qarindoshlarga sotishdan boshlanadi.

Ushbu tizimda iste'molchilar ishtirokchilardir. Ularning oilasi va do'stlari ularning mijozlaridir va bu sikl quyidagicha yuz beradi (4.3.1-chizma).

Tarmoq marketingi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. To'g'ridan to'g'ri sotish. Tarmoq marketingi tashkilotlari o'z mahsulotlarini bevosita sotadilar va savdo-sotiqning aniq belgilangan kanallaridan foydalanmaydilar. Mahsulotni sotish mas'uliyati ish berilmagan shaxslar (ishtirokchilar)ga o'tkaziladi. Ular savdo qilganiga muvofiq ravishda haq olishadi.

2. Mustaqil biznes egalari (MBE). Bu ishtirokchilar mustaqil biznes egalari deb nomlanadi, chunki ular o'z bizneslarini o'zlari qo'llab-quvvatlashadi.



4.3.1-chizma. Tarmoqlar marketingi

3. "Sotish falsafasi". Ushbu model marketingni sotish falsafasidan foydalanish uchun ishtirokchilarni o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor,

ko'proq foiz olish uchun imkon qadar ko'proq ishga olish va sotishdir. Odamlar hatto sizni mahsulotni sotib olish yoki ularga qo'shilish uchun aldashadi.

4. Iyerarxiya tizimi. Faraz qilaylik, "A" ishtirokchining ostida "B" ishtirokchi bor. "A" ishtirokchi har safar savdoni amalga oshirgani uchun foiz oladi va bundan tashqari "B" ishtirokchi savdo qilgan vaqtda ham ma'lum miqdordagi foizni oladi. Endi ko'proq pul topish, foiz olish uchun, "B" ishtirokchi "C" ishtirokchini yollaydi. Bunday harakat tizimni katta iyerarxiya qiladi.

5. Kam reklama qilish yoki umuman qilmaslik. To'g'ridan to'g'ri sotishning rivojlanishi tashkilotga reklamadan kamroq foydalanish imkonini beradi, chunki shaxsiylashtirilgan aloqaga asoslangan savdo reklamadan ko'ra ishonchli kuchga ega.

6. O'rnatilgan ish haqining yo'qligi. Bu savdodan tushgan puldan foiz olish asoslangan tarmoq bo'lib, unda ishtirokchilarga maxsus topshiriqni bajargandagina foizlar to'lanadi.

7. Javobgarlik, mas'uliyatlilik. Har kim o'ziga javob beradi. U qancha sotsa, shuncha ko'p ishlaydi.

8. Ishtirokchilarga foydaliligi. Ishtirokchilar bir vaqtning o'zida tarmoq iste'molchilari. Shu sababli, ular tarmoqqa qo'shilganda chegir-malar va boshqa foydali takliflar ham olishadi.

4.4. Neyromarketing, benchmarking, innovatsion marketing

O'tmishda, ijtimoiy media marketingidan oldin, kompaniyalar ko'p-lab mablag'larni o'z savdo hajmini oshirish uchun qo'shimcha reklama olish, qo'shimcha tadbirlarga homiylik qilish yoki logotipni avtobus bekatlarida namoyish qilish uchun sarflashardi, ammo bugungi kunda bozor sotuvchilari uchun eng katta muammo kamroq pul sarflash bo'lib, ular yaxshi natijalarga erishishga intilishmoqda.

Ushbu muammoni qanday hal qilish mumkin? Javobi oddiy – neyromarketing. Aslida, neyromarketing kompaniya maqsadini, veb-saytini va boshqalarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan nevrologik reaksiyalarni aniqlash uchun loyihalashtirishdir.

Neyromarketingni qo'llash orqali kompaniya strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi va kompaniya harakatlari samaradorligini oshiradigan samarali marketing strategiyasini yaratishlari mumkin. Neyromarketingning maqsadi kompaniya o'z mijozini miyasi aslida qanday ishlashini va

kompaniya marketing faoliyati iste'molchilarga qanday ta'sir qilishini tushunishdir. Neyromarketing - nevrologiyaning marketingga tatbiq etilishidir.

Neyromarketing muayyan mahsulotlar va xizmatlarga, reklama yoki boshqa marketing elementlariga iste'mochilar javobini o'lchash uchun miyani skanerlash, ko'rish yoki boshqa miya faoliyatini o'lchash texnologiyasidan bevosita foydalanishni o'z ichiga oladi. Neyromarketing – tijorat marketing kommunikatsiyalari sohasi bo'lib, marketing tadqiqotlarini o'tkazishda, iste'molchilarni bilishni va marketing stimullariga javobini o'rnatishda neyropsixologiyani qo'llaydi.²⁹ Neyromarketing iste'molchilar xarid qilish qarorlari va ularning marketing stimullariga bo'lgan javoblarini tushunishga intiladi. Marketologlarga potensial foyda yanada samarali marketing strategiyalarini shakllantirish, kamroq mahsulot va kompaniya muvaffaqiyatsizligi, odamlarning real xohish va istaklariga mos mahsulotlarni taklif qilishni o'z ichiga oladi.³⁰

Neyromarketing ko'pgina kompaniyalarning o'zlari erisha olmaydigan maxsus uskunalar va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Kompaniyalar ko'plab neyromarketing xizmatlarini yetkazib beruvchilardan birini jalb qilmoqchi bo'lganlarida, ular mavjud bo'lgan texnikaning eng muhim xususiyatlari va farqlarini tushunishlari kerak (4.4.1-jadval):

4.4.1-jadval

Maxsus uskunalarning eng muhim xususiyatlari

	EAG (elektro- ansefalogramma)	Ko'zni kuzatish: nigoh	Yuzni kodlash
U qanday ishlaydi	Miyadagi neyronlardan elektr signallarini yozib oladi	Iste'molchilar o'zlarining nigohlarini qayerga yo'naltirayotganini aniqlaydi	Yuz ifodalarini aniqlaydi
Iste'molchilar haqida nimani oshkor qiladi	Rozilik darajasi; Eslatish	Nima ularning e'tiborini tortadi; nima ularni chalkashtiradi;	Umumiy hissiy javob: baxt,

²⁹ Lee, N; Broderick, AJ; Chamberlain, L (February 2007). "What is "neuromarketing"? A discussion and agenda for future research". *International Journal of Psychophysiology*. 63 (2): 199–204. doi:10.1016/j.ijpsycho.2006.03.007. PMID 16769143.

³⁰ Lee, N; Broderick, AJ; Chamberlain, L (February 2007). "What is "neuromarketing"? A discussion and agenda for future research". *International Journal of Psychophysiology*. 63 (2): 199–204. doi:10.1016/j.ijpsycho.2006.03.007. PMID 16769143.

yoki bilishga yordam beradi		tanib olish tezligi	ajablanish, qo'rquv va hokazo
Foydalanilishi	Reklama va brendlarni yaxshilash	Veb-sayt dizayni, reklama va mahsulotni takomillashtirish	Reklama mazmunini yaxshilash
Ijobiy va salbiy tomonlari	Boshqa usullardan ko'ra qimmatroq; o'zgarishlarni kichik vaqt oralig'ida o'lchash mumkin	nisbatan arzon va boshqarish oson; his-tuyg'ularni o'lchamaydi(aniqlamaydi)	Nisbatan arzon

Benchmarking – bu biznes-jarayonlarini va ishlash ko'rsatkichlarini boshqa kompaniyalarning eng yaxshi amaliyotlari bilan taqqoslash tushuniladi. Odatda o'lchovlar sifat, vaqt va xarajatlardir.

Benchmarking – bu kompaniyaning mahsulotlarini, xizmatlarini yoki jarayonlarini sanoatdagi eng yaxshi deb hisoblangan boshqa biznesga nisbatan ish faoliyatini o'lchash, taqqoslash jarayonidir. Benchmarkingning maqsadi yaxshilanishning ichki imkoniyatlarini aniqlashdir. Yuqori darajada samarali faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarni o'rnatish, bunday darajaga qanday erishganini bilish va keyinchalik ushbu jarayonlarni o'zingizning biznesingizda qanday amalga oshirilayotganligi bilan taqqoslash orqali kompaniyaga sezilarli yaxshilanishlarni ta'minlaydigan o'zgarishlarni amalga oshirishingiz mumkin.

Benchmarkingni to'laroq tushunish uchun uning maqsadi, jarayoni va tahlili haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim.

Benchmarkingning maqsadlari quyidagilardir:


- yaxshilanishlarni qaysi va qayerda nishonlash kerakligini aniqlash;
- boshqa tashkilotlarning yuqori ishlash darajalariga erishishini tahlil qilish;
- tahlil qilingan ma'lumotni kompaniya faoliyatini yaxshilash uchun ishlatish.

Benchmarking oddiy, ammo mukammal, besh bosqichli jarayon:

- Benchmarking uchun mahsulot, xizmat yoki ichki bo'limni tanlash.

- O‘zingizning biznesingizni taqqoslaydigan eng yaxshi kompaniyalarni tanlashingiz kerakligini aniqlash.
- Ularning ichki ishlashi yoki o‘lchovlari haqida ma‘lumot to‘plash.
- Kompaniyaning ishlashidagi bo‘shliqlarni aniqlash uchun ikkala korxonaga ma‘lumotlarini solishtirish.
- Eng yaxshi kompaniyalar ish faoliyatidagi jarayonlar va siyosatni qabul qilish.

Benchmarkingning ikkita asosiy turi mavjud (4.4.1-chizma):



4.4.1-chizma. Benchmarking turlari

Ichki benchmarking: tashkilotlarda shaxslar yoki tashkilot ichida guruhlar o‘rtasida amaliyot va ish faoliyatini taqqoslash.

Tashqi benchmarking: tashkilotning ish faoliyatini sanoatdagi yoki tarmoqdagi boshqa raqobatchilar bilan taqqoslash.

Benchmarking tahlili jarayoni o‘z navbatida 6 ta komponentdan tashkil topgan:

- Muammoli joylarni aniqlash
- O‘xshash jarayonlarga ega tarmoqlarni aniqlash
- Tegishli sohalarda lider kompaniyalarni aniqlash
- Choralar va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash uchun tadqiqotlarni o‘tkazish
- Eng samarali faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniyaga tashrif buyurish
- Rivojlanish uchun strategik rejalarni tavsiya qilish.

Benchmarking tahlili orqali biznes egalari o'z raqobatchilarining eng yaxshi amaliyotlarini qo'llash orqali o'z kompaniyalarining ish faoliyatini oshirishi mumkin.

Amerikalik olim Peter Druker marketing va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha izohlaydi:

"Biznesning faqat ikkita vazifasi mavjud: marketing va innovatsiya". Peter Druker marketing va innovatsiyalarni kompaniyaning muvaffaqiyatlari uchun muhim asos deb qaragan³¹. Buning sababini tushuntirish uchun marketingning maqsadi va rolini innovatsion nuqtayi nazardan chuqurroq o'rnatish yetarli. Marketing o'z oldiga sotish hajmini oshirish vazifasini qo'yadi. Undagi asosiy e'tibor mijozlarga va bozorga yo'naltirilgan; barcha mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar iste'molchilar va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Innovatsion marketing haqida fikr yuritishimizdan oldin biz avvalo innovatsiya haqida tushunchaga ega bo'lishimiz lozim. Innovatsiya zamonaviy ma'noda yangi g'oya, ijodiy fikrlarning qurilma yoki usul shaklida ifodalanishidir.

Innovatsion marketing yangi mahsulot va xizmatlarni bozorda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan barcha innovatsion boshqaruv tadbirlarini qamrab oladi. Innovatsion marketingning haqiqiy vazifasi va missiyasi bozor muvaffaqiyatiga erishishdir, shu sababli innovatsion marketing innovatsiya jarayonida juda muhim rol o'ynashini isbotlashni hojati yo'q. Innovatsion marketing ko'pgina vazifalarni, xususan, mijozlar va bozorga yo'naltirilganligi bilan bog'liq bo'lgan va yangi mahsulot yoki xizmatni muvaffaqiyatli sotish imkonini beradigan barcha faoliyatni o'z ichiga oladi. Innovatsion jarayonning dastlabki bosqichida innovatsion marketing kelajakdagi va yangi bozor imkoniyatlarini identifikatsiyalashga va mijozlar ehtiyojlariga qaratilgan tadqiqotlarga yordam beradi:

- Muayyan bozor segmentlarida yoki mahsulot toifalarida mijozlar talablariga javob berish. Bu muayyan innovatsion loyihada mavjud bo'lgan ehtiyojlar bilan bir qatorda, kelgusidagi ehtiyojlarni kutish va buning natijasida yangi innovatsion potentsiallarni yaratishdan iborat.

- Bozorning jozibadorligi, bozordagi hajmi, yangi mahsulotlar uchun potentsial va boshqalar kabi bozor salohiyatini o'rnatish.

³¹<https://www.peterdruckerofficial.com>


Innovatsion marketingda asosiy vazifa – mahsulot yoki xizmatni doimiy ravishda sotish va mahsulotning yashash siklini boshqarish bilan shug'ullanish. Bu ichki va tashqi marketingni ham o'z ichiga oladi:

Birinchi qadam sifatida kompaniyaning o'z xodimlari yangi innovatsiyalarga ishonch hosil qilishlari kerak, chunki bu mahsulotni bozorga chiqarishning yagona yo'li.

Ikkinchi qadam, uni tashqi bozorda sotish. Bu mahsulotni joylashtirish, narxlashtirish, aloqa va reklama, savdo kanallari va yana ko'p narsalar bilan to'liq marketing miksni o'z ichiga oladi.

tortsa. Xizmat ko'rsatuvchi firma potensial xaridorlarning tushunmovchiliklarini bartaraf etish uchun tegishli strategiya ishlab chiqishi kerak. Salbiy talabni ijobiy talabga aylantirish uchun strategiya ishlab chiqilishi kerak.

Mavjud bo'lmagan talab. Agar odamlar mahsulot yoki xizmat haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa yoki iste'molchining befarqligi tufayli bunday vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Kompaniyaning marketing bo'limi reklama kompaniyalariga e'tibor berish va potensial mijozlarning firma xizmatlaridan foydalanish sabablarini tushunishi kerak. Xizmatni differentsiatsiya qilish bozorda talab yo'qligi bilan raqobatlashishda foydalaniladigan mashhur strategiyalardan biridir.

Yashirin talab: istalgan vaqtda jamiyatning barcha ehtiyojlari va istaklariga to'liq qondirishni ta'minlaydigan xizmatlar majmuyi mavjud emaslik holati. Bozorda talab qilingan mahsulot va xizmatlar o'rtasidagi farq mavjud bo'ladi. Mavjud bo'shliqni to'ldirish uchun doimo yaxshiroq va yangi mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish zarurati tug'iladi. Yashirin talab - ma'lum bir vaqtda iqtisodiyotda sodir bo'ladigan hodisadir, bu talabning turiga xizmat ko'rsatish firmalari biznes imkoniyati sifatida qarash kerak va ular bunday imkoniyatlarni o'z vaqtida aniqlash va foydalanishga yo'naltirishlari kerak. Misol uchun, oddiy avtobusda sayohat qilayotgan yo'lovchi hashamatli avtobusda sayohat qilishni orzu qiladi. Shu sababli, yashirin talablar - bu istak va mavjudlik orasidagi bo'shliqdan iboratdir.

Mavsumiy talab: Ba'zi turdagi mahsulot va xizmatlar yil davomida talabga ega emas, faqat muayyan vaqt ichida talab qilinishi mumkin. Butun dunyoda mavsumlar juda xilma-xildir. Mavsumiy talablar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga ko'p muammolarni keltirib chiqaradi - quvvatni to'xtatib turish, doimiy xarajatlar marketing va qo'llab-quvatlashdagi ortiqcha sarflarlar shular jumlasidandir.

Talab namunalari bozorning turli segmentlarida o'rganilishi lozim. Tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar doimiy ravishda ular taklif qilayotgan tovar yoki xizmatga turli xil davrlardagi talabning o'zgarishini o'rnatishi kerak. Bu tashkilotlar talab sikllarini prognoz qilishga yordam beradigan talab o'zgarishlarini tahlil qiladigan tizimni rivojlantirishi shart. Talab tasodifiy o'zgarib turadi, shu sababli, talab kunlik, haftalik yoki oylik kuzatilishi kerak.

Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning narxdan tashqari omillari deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

- iste'molchining didi
- bozordagi iste'molchilar soni
- iste'molchining daromadlari
- bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi
- kelajakda narx va daromadlarning o'zgarish ehtimoli.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qarab chiqamiz.

1. Biror mahsulotga iste'molchi didida ijobiy o'zgarish ro'y bersa, narxning tegishli darajasida unga bo'lgan talab ortadi. Bu o'rinda real hayotda iste'molchilar «moda», ya'ni biron-bir tovarning keng rasm bo'lgan turini sotib olishga harakat qilishlarini misol keltirish mumkin. Iste'molchi didiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar talabning qisqarishiga olib keladi.

2. O'z-o'zidan aniqki, bozorda iste'molchilar soni ko'paysa, talab ortadi, iste'molchilarning soni kamaysa, talab qisqaradi. Masalan, aloqa vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini, undagi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi jarayonlarida ishtirok etuvchilar sonini mislsiz kengaytiradi hamda aksiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi. Tug'ilish darajasining pasayishi bolalar bog'chasi va maktabga bo'lgan talabni kamaytiradi.

3. Daromad o'zgarishining talab hajmiga ta'siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Daromadning ortishi juda ko'p tovarlarga talabni nisbatan oshiradi, daromadning kamayishi esa bunday tovarlarga talabni kamaytiradi. Daromad oshsa, uning o'sishiga qarab iste'molchilar aksariyat hollarda narxi yuqori bo'lsada, ko'proq sifatli tovarlarni xarid qilishga harakat qilishadi. Bunda ular non, kartoshka, karam kabi mahsulotlarni kamroq sotib olishlari mumkin. Chunki ortiqcha daromad ularga ancha yuqori oqsil tarkibiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, go'sht va sut mahsulotlari xarid qilish imkonini beradi.

4. O'zaro bog'liq tovarlar narxi o'zgarishining talabga ta'sirini o'rnatishda ularni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) o'zaro bir-birini almashtiruvchi yoki o'rinbosar tovarlar; 2) o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlar.

O‘zaro bir-birini almashtiruvchi tovarlardan birining narxini o‘zgarishi bilan boshqasiga bo‘lgan talabning o‘zgarishi to‘g‘ri bog‘liqlikda bo‘ladi. Masalan, sariyog‘ narxining oshishi margaringa bo‘lgan talabning ortishiga olib keladi. Sariyog‘ narxining pasayishi esa margaringa bo‘lgan talabni kamaytiradi.

O‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tovarlardan birining narxini o‘zgarishi bilan boshqasiga bo‘lgan talabning o‘zgarishi teskari bog‘liqlikda bo‘ladi. Masalan, agar avtomobilning narxi oshsa, benzina bo‘lgan talab qisqaradi. Aksincha, avtomobilning narxi tushsa, benzina bo‘lgan talab oshadi.

5. Kelgusida iste‘molchi daromadlari, tovar narxi o‘zgarishining kutilishi va tovarlar miqdorining yetarli bo‘lishi yoki bo‘lmasligi kabi omillar talab hajmini o‘zgartirishi mumkin. Kelgusida narxning nisbatan oshishining kutilishi, iste‘molchi joriy talabining oshishiga olib keladi. Aksincha, narxning pasayishi va daromad ko‘payishining kutilishi tovarlarga bo‘lgan joriy talab hajmining qisqarishiga sabab bo‘ladi.

Daromadning o‘zgarishi bilan talab miqdori to‘g‘ri bog‘liqlikda o‘zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi. Daromadlar o‘zgarishi bilan talab miqdori teskari bog‘liqlikda o‘zgaradigan tovarlar **past toifali tovarlar** deyiladi.

Iste‘molchilar daromadi va ular tomonidan sotib olinadigan tovarlar miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik nemis iqtisodchisi va statisti Ernst Engel (1821-1896) tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shunga ko‘ra, iste‘molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovarlar miqdori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik **Engel qonuni** deyiladi. Qonunning asosiy g‘oyasi milliy daromadning oziq-ovqat mahsulotlari uchun sarflangan hissasi farovonlikning bevosita indikatorini ekanligini ko‘rsatishdan iborat. Bu hissaning past bo‘lishi farovonlikning yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Oilaning daromadi o‘sishi bilan oziq-ovqatga qilinadigan xarajatlar salmog‘i pasayadi, kiyim-kechak, uy-joy, kommunal xizmatlar xarajatlari nisbatan kam o‘zgaradi, madaniy ehtiyojlarni qondirish xarajatlari hissasi esa ortadi. Daromad bilan iste‘mol o‘rtasidagi teskari proporsionallikni ifodalashda Engel‘ egri chizig‘i qo‘llaniladi.

Bozor narxlarining amaldagi darajasida ma‘lum davr oralig‘ida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan tovarlar va xizmatlarning belgilangan miqdorini bozorga chiqarilishi **taklif** deyiladi. Bozor narxining o‘zgarishi bilan taklif ham o‘zgaradi. Taklif narxlarning turli

darajasida qancha miqdordagi mahsulotning sotishga chiqarilishini bildiradi. Masalan, 1 kg kartoshka 450 so'm bo'lsa, bir oy davomida uning yakka taklifi miqdori 60 kg bo'ladi, 1 kg 300 so'm bo'lsa, 50 kg taklif bo'ladi. Bir oy davomida uning bozor taklifi miqdori quyidagi bo'ladi: (tonna) 350 – 6,0; 300 – 5,0; 200 – 2,0 va 150 – 1,0 tn taklif qilinadi. Narxning o'zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi **taklif qonuni** deyiladi. Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga narxdan tashqari boshqa bir qator omillar ham ta'sir qiladi:

- resurslarning narxi;
- ishlab chiqarish texnologiyasi;
- soliq va subsidiyalar;
- boshqa tovarlarning narxi;
- narx o'zgarishining kutilishi;
- bozordagi sotuvchilarning soni;
- xaridorlarning daromadlari.

Bu omillarning har birini tushuntirishga harakat qilamiz:

- resurslarga sarf qilinadigan xarajatlar bilan taklif o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxi pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Natijada taklif qilinadigan tovarlar va xizmatlar ko'payadi va aksincha bo'ladi. Masalan, mineral o'g'itlar narxini oshib borishi g'alla taklifini kamaytiradi.

- texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Masalan, paxta zararkunandalariga qarshi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini oshiradi, taklifi ko'payadi.

- ko'pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifi oshiradi.

- boshqa tovarlar narxlarining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qo'y go'shti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qo'y go'shti taklifini oshiradi.

- kelgusida mahsulot narxining o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berish xohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.

- tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Taklif hajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va transport-tashish imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdan-kam o'zgaruvchan bo'ladi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi. Ijodiy kasb soha xodimlarining (masalan, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqalar) mehnat mahsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham noo'zgaruvchan bo'ladi. Talab bilan taklif miqdorlari bir-birlari bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi va nisbatlar o'zgarib turadi. Ba'zan talab miqdori taklif miqdoridan oshib ketib narx ko'tarilsa, ayrim paytda taklif miqdori talab miqdoridan oshib ketib, narx pasayib qoladi. Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi. Talab va taklif tushunchalari tahlili, sotuvchi va xaridorlar manfaatlari mos kelishini qarab chiqish imkonini berdi, ular o'rtasidagi mos kelishlik o'z ifodasini muvozanatli narxda topadi. Talab narxga qandaydir darajada egiluvchan bo'ladi. Masalan, narxning bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Endi talab elastikligi va uning turlarini tahlil qilamiz:

Elastiklik – bir o'zgaruvchining boshqa bir o'zgaruvchi ta'siri ostida o'zgarishi. Talabning elastikligi bu narx o'zgarishiga nisbatan talab miqdorining o'zgarish reaksiyasi: narxning ozgina o'zgarishi, talabning nisbatan ko'proq o'zgarishiga olib kelsa, biz bu talabni elastik deyiladi. Narxning ozgina o'zgarishi, talabning nisbatan kamroq o'zgarishiga olib kelsa, biz talabni noelastik deyiladi.

$$\text{Talabning elastikligi} = \frac{\text{Talab miqdorini } \% \text{ o'zgarishi}}{\text{Narx miqdorini } \% \text{ o'zgarishi}}$$

$$E = \frac{\Delta Q}{Q} \div \frac{\Delta P}{P} \quad (1)$$

Agar talab miqdorining protsent o'zgarishi, narxning protsent o'zgarishidan katta bo'lsa talab elastik bo'ladi.

$$\frac{\text{Talab miqdorini \% o'zgarishi}}{\text{Narx miqdorini \% o'zgaishi}} > 1$$

Talab elastik holatda: narxning pasayishi jami daromadni oshishiga olib keladi, narxning oshishi esa jami daromadni pasayishiga olib keladi.

Misol: Tovar narxning 10 dan 8\$ ga tushishi talabni 100 birlikdan dan 150 birlikka olib kelsin.

Yechilishi:

Talab miqdorining foiz o'zgarishi:

$$50/100 * 100 = 50\% \qquad 2/10 * 100 = 20\%$$

$$E = 50/20 = 2,5 > 1$$

$$R = 10 * 100 = 1000\$, \text{ jami daromad}$$

$$R = 8 * 150 = 1200\$, \text{ jami daromad.}$$

Talab noelastik bo'lganda: agar talab miqdorining protsent o'zgarishi, narxning protsent o'zgarishidan kichik bo'lsa talab noelastik deyiladi.

$$\frac{\text{Talab miqdorini \% o'zgarishi}}{\text{Narx miqdorini \% o'zgaishi}} < 1$$

Noelastik talabda narxning o'sishi jami daromadning ortishiga, narxning kamayishi jami daromadning kamayishiga olib keladi.

Misol: Tovar narxi 4 \$ dan 5 \$ ga ortishi talab miqdorining 200dan 180 birlikka tushishiga olib kelsin.

Yechilishi:

$$20/200 * 100 = 10\% \quad \text{talabning \% ozgarishi}$$

$$1/4 * 100 = 25\% \quad \text{narxning \% o'zgarishi}$$

$$\text{Talab elastikligi: } E = 10/25 = 0,4 < 1$$

Jami daromad qanday o'zgaradi?

$$R_1 = 4 * 200 = 800\$$$

$$R_2 = 5 * 180 = 900\$.$$

Agar narxning o'zgarishi talabning hech qanday o'zgarishiga olib kelmasa, talab har qanday narxda o'zgarimas bo'ladi. Bunday holatda talab mutloq noelastik deyiladi. Yoki talab elastikligi = 0 ga teng.

Qarama-qarshi holat tasvirlangan, ya'ni kishilar arzon narxda cheksiz narsalar sotib olishadi, narxning ozgina o'zgarishi esa talabning keskin kamayishiga olib keladi. Bunday holatda talab mutloq elastik deyiladi. Talab elastikligi cheksiz. Agar tovarning bir necha bir xil narxda sotiladigan o'rinbosarlari bo'lsa, unga bo'lgan talab elastik bo'ladi. Narxning ozgina ko'tarilishi iste'molchilarni o'rinbosar tovarlarga talabi ortadi. Masalan: kofe uning hamma joyda (sorti) topiladi. O'rinbosarlari kam bo'lgan tovarlarga talab nisbatan noelastik bo'ladi. Uning narxi ko'tarilsa kishilar uni olishga majbur bo'lishadi chunki uning o'rnini boshqada boshqa tovar yo'q.

Masalan: Bug'doyga bo'lgan talab noelastikdir, chunki bug'doyning o'rnini boshqa mahsulot bosa olmaydi.

Odatiy tovarlar: Odamlarda ayrim tovarlarga – masalan ayrim alko-gol ichimliklar, tamaki, kofe, iste'mol qilish va uyali telefonlardan foydalanish odatga aylanib qoladi. Bunday holatda albatta bu tovarlarga bo'lgan talab noelastikdir. Zaruriy tovarlar: suv, kiyim, oziq-ovqat, uy-joy va boshqalarga talab noelastik bo'ladi.

Hashamatli predmetlar tovarlarga talab elastik bo'ladi. Masalan: mashinalar, qimmat baho buyumlar. Daromad bo'yicha talab egiluvchanligi ham mavjud. Daromad ko'payishi bilan tovar va xizmatlarga bo'lgan talab ham oshib boradi, daromad talabga ta'sir etadi. Iste'molchi daromadning 1 foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich **talabning daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi** deyiladi.

Uni aniqlash uchun daromad bo'yicha talab egiluvchanligi ko'rsatkichidan foydalaniladi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Et = \Delta Q / \Delta D \quad (2)$$

(2) formulada Et – talabning egiluvchanligi; ΔQ – talab miqdori-ning foizli o'zgarishi; ΔD – daromadning foizli o'zgarishini bildiradi.

Taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o'zgarishi taklifning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich **taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi**

ko'rsatkichi deyiladi yoki buni taklifning egiluvchanligi deb ham ataladi. Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi:

$$E_{tf} = \Delta Q / \Delta P \quad (3);$$

Bu yerda: E_{tf} – taklifning egiluvchanligi; ΔQ - taklif miqdorining foizli o'zgarishi; ΔP - narxlarning foizli o'zgarishi.

Taklif egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi.

6.2. Bozor sig'imi

Bozor sig'imi tovar va xizmatlar sotish hajmining potentsial hajmi, aniq ko'rsatilgan yoki kelajakka bo'lgan talabning hajmi va tarkibi bilan belgilanadi. Bu bozorda namoyish etilgan, pul ekvivalentlari bilan ta'minlangan va sotib olish va sotish orqali qoniqtiriladigan umumiy ijtimoiy talablarning bir qismini ifodalaydi. Iste'mol tovarlari bozorining salohiyati kengayishning obyektiv tendensiyasiga ega. Bozor salohiyatini kengaytirishning o'lchovlari ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib, tovar ishlab chiqarish va jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlarining darajalari; milliy daromadlarning o'sishi va iste'mol va tejamkorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va iste'mol obyektlari ishlab chiqarish o'rtasidagi nisbat; daromad darajasi va narx siyosati va boshqalar.

Bozor kengayishining tabiati va stavkalari, asosan, ijtimoiy tuzilishga bog'liq. Kapitalistik jamiyatda yalpi ichki mahsulotning katta qismi ekspluatator sinflari tomonidan egallab olinadi. Maksimal foyda olish va raqobatbardosh kurashlarga bo'lgan talab ishlab chiqarishni cheksiz kengaytirishga yo'naltiradi. Biroq, kapitalizmda mehnatkashlar ahvolidning mutloq va nisbiy darajada yomonlashuviga xos bo'lgan tendensiyalar xalq ommasi tomonidan tovarlar iste'mol qilishda bir xil cheklolarga olib keladi va natijada bozor sig'imini kengaytiradi, bu esa bozor muammolarini o'ta og'irlashtiradi.

Bozor sig'imini aniqlash bozor tadqiqotlarining bosh vazifasidir. «Tovar bozori sig'imi» atamasi ostida mazkur darajada va turli narxlarning ushbu nisbatida tovarni sotish mumkin bo'lgan hajmi tushuniladi.

Bozor sig'imi aholi talabining o'lchamlari va tovar taklifining kattaligi bilan xarakterlanadi. Vaqtning har bir berilgan davrida bozor miqdor va sifat aniqligiga ega bo'ladi. Ya'ni uning hajmi sotilayotgan va demak, xarid qilinayotgan tovarlarning qiymat hamda natural ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Bozor sig'imini ekspert usullari yordamida tovarlarning «ko'rinishi» iste'mol tushunchasi, ya'ni eksportni chiqarib tashlab hamda xuddi shunday (analogik) tovarlar importini va mamlakatni o'zida ishlab chiqarilgan tovarlarni qo'shgan holda aniqlash mumkin. Bozor sig'imi ko'plab omillar ta'siri ostida shakllanadi. Bu omillarning har biri ma'lum bir vaziyatlarda bozorni rivojlanishiga rag'batlantirganidek, xuddi shunday ravishda uning sig'imini ham cheklashi mumkin.

Bozor sig'imini hisoblashning uchta usulini ko'rib chiqaylik.

Birinchisi: pastdan yuqoriga qarab hisoblash usuli

Ushbu usul eng ommabop hisoblanadi, chunki u bozor sig'imini ma'lum bir vaqtning o'zida talab darajasi tomonidan ko'rsatadi. Ushbu usuldan foydalangan holda bozor sig'imi ma'lum bir vaqt oralig'ida maqsadli segmentdan mahsulot yoki xizmatni barcha mumkin bo'lgan xaridlarining yig'indisi sifatida hisoblanadi (ko'pincha yil davomida hisoblab chiqiladi).

Ushbu usulni uch xil usulda hisoblash mumkin:

1. Miqdoriy jihatdan - hisobot davri uchun bozor sig'imi X (ming so'm) = maqsadli auditoriya (ming kishi) * hisobot davri uchun tovarlarni sotib olish darajasi X (dona).

2. Hisobot davri uchun bozor sig'imi pul ko'rinishida X (ming so'm) = maqsadli auditoriya hajmi (ming kishi) * hisobot davri uchun tovarlarni sotib olish darajasi X (dona) * Bozordagi mahsulot birligining o'rtacha narxi (so'm).

3. Hajm jihatidan - hisobot davridagi bozor sig'imi X (ming so'm) = maqsadli auditoriya hajmi (ming kishi) * hisobot davri uchun tovarlarni sotib olish darajasi X (dona) * mahsulot birligining o'rtacha hajmi (hajm birligi).

Ikkinchi: hisoblash usuli "yuqoridan pastga".

Ushbu usul hisobot davridagi barcha bozor ishtirokchilarining savdolari to'g'risidagi ichki ma'lumotlardan foydalangan holda bozor sig'imini aniqlashga yordam beradi (agar sizga barcha bozor ishtirokchilaridan ma'lumot to'plash imkoni berilmasa, unda siz ushbu sohaning yetakchilarini tanlashingiz mumkin, ular ko'pincha bozorning 80 - 90

foizini tashkil qiladi). Ushbu usulda faqat bitta formuladan foydalanadi: Bozor sig‘imi = bozorning barcha ishtirokchilarining sotuvlar yig‘indisi (chakana narxlarda). Kerakli ma‘lumotlar bozor sektoridagi raqobatchilarni so‘rov orqali, shuningdek, bozor ishtirokchilari tomonidan e‘lon qilingan ochiq hisobot orqali olinadi.

Uchinchi: mavjud sotishni hisoblash usuli.

Ushbu usul tadqiqot kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladi. Uning mohiyati real xaridlarni ko‘rsatadigan haqiqiy mijozning to‘lov qog‘ozlaridan foydalangan holda muayyan toifadagi tovarlar yoki xizmatlarning sotilishini kuzatib borishdir. Ushbu usul faqat bozor sohasining yetakchi do‘konlaridan foydalanadi, ular bilan ma‘lumot yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuziladi. Keyinchalik, ushbu usulning ma‘lumotlari shtat bo‘ylab tarqaladi. Ammo, shu bilan birga, bozor sig‘imini hisoblashning ushbu uslubida, umuman olganda, ushbu sohaning sifatini ko‘rsatish mumkin bo‘lsa ham, auditoriyaning ma‘lum bir qismini ajratib ko‘rsatish qiyin bo‘ladi. Albatta korxonalar ishlab chiqarishdan oldin bozor salohiyatini chuqur tahlil qilish kerak bo‘ladi.

Bozor salohiyatini tahlil qilishda (BDI, CDI, GPI) ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Ya‘ni, “Uch kit” bozori tahlili BDI, CDI, GPI ko‘rsatkichlari juda oddiy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ularning asosida kompaniya resurslari to‘g‘ri taqsimlash va zarur marketing harakatlari va moliyaviy xarajatlar uchun foydali yo‘nalishni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Brand Development Index (BDI) - Brendlarni rivojlantirish indeksi
Category Development Index (CDI) – Mahsulot toifalarini rivojlantirish indeksi.

Growth Potential Index (GPI) - O‘shishning potensial indeksi.

Yirik kompaniyalar tomonidan bozorni rivojlanishi savdo kutilayotgan darajasini oldindan belgilash va rivojlanish istiqbollari va sotuvlar o‘shishi nuqtayi nazaridan korxonalar uchun muhim bo‘lgan hududlarni aniqlash zarurati bilan bog‘liq. Kerakli ma‘lumotlarni olish uchun har doim ham keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘tkazish shart emas - BDI, CDI, GPI ko‘rsatkichlari bo‘yicha bozorlarning salohiyatini va ishlab chiqarilgan mahsulot toifasi yoki brendning kuchini aniqlash va tahlil qilish. Ulardan menejment va marketing mutaxassislari ishonchli strategik rejalashtirish vositasi sifatida foydalanadilar.

1. Mahsulot toifalarini rivojlantirish indeksi (CDI) ko'rsatkich turli mintaqalarda mahsulot toifasining kuchi va salohiyatini baholaydi va uni iste'mol qilish darajasini, shu jumladan kompaniya mavjud bo'lgan barcha segmentlardagi sotuv darajasiga nisbatan ko'rsatadi. Quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$CDI = (\text{ma'lum bir hududda mahsulot toifalarini sotish foiz}) / (\text{mamlakatdagi muayyan mintaqa aholisining foizi}) * 100$

Hisob-kitoblar natijasida har bir iste'molchiga sotish hajmi bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lgan yo'nalishlar aniqlanadi. Foiz belgisi qanchalik yuqori bo'lsa, tanlangan mintaqada mahsulot toifasining muvaffaqiyati darajasi shuncha ko'p baholanadi. Olingan ma'lumotlar asosida ma'lum bir mintaqaga yanada chuqurroq va faol kirib borishga, sotish hajmi prognoz qilishga, investitsiyalar va kapital qo'yilmalarga ehtiyojlarni aniqlashga imkon beradi.

2. Brendlarni rivojlantirish indeksi (BDI) ko'rsatkich ma'lum bir mintaqada brendning hozirgi rivojlanish darajasini baholaydi va iste'molchilar tomonidan bu uchun ustunlik mavjudligini aniqladi va quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$BDI = (\text{mamlakatda ushbu savdo markasi sotilgan mintaqadagi savdo ulushining foiz}) / (\text{mamlakatdagi aholining foiziga nisbatan}) * 100$
Indeks kelajakda turli jug'rofiy hududlar uchun xarajatlarni rejalashtirishda foydalaniladigan kompaniyaning sotuvlari hududlar o'rtasida qanday taqsimlanganligini tasavvur qilish imkonini beradi. Foiz qanchalik baland bo'lsa, brend shunchalik kuchli va raqobatchilar orasida uning mavqei kuchayadi.

3. O'sishning potensial indeksi (GPI) ko'rsatkich alohida bozorlarda tovar pozitsiyalarining o'sish potensialini baholaydi va CDI va BDI ko'rsatkichlarining nisbati sifatida hisoblanadi. Hisoblash formulasi quyidagicha:

$GPI = (CDI / BDI) * 100$

- Yuqoridagi indeksning ta'rifi quyidagilarga imkon beradi:
- ma'lum bir hududda mahsulot sotish hajmini prognoz qilish;
- yangi bozorlarga kirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- investitsiyalarni jalb qilish va zarur kapital qo'yilmalarni oqilona rejalashtirish.

CDI-BDI matritsasi hozirgi holatlar va zarur harakatlar haqida to'liqroq tasavvur beradi.

CDI-BDI ko'rsatkichlarining qiymatiga qarab, kompaniya mahsulot guruhiga yoki tovarga nisbatan sotishni oshirish uchun asosiy marketing strategiyasini belgilaydi. CDI-BDI indeksleri yangi mahsulotlarning bozorga chiqishiga yordam berishga kafolat bera olmaydi, chunki tahlillar savdo tarixini talab qiladi. Ammo korxonalar asosiy marketing strategiyasini ishlab chiqishi zarur bo'lganda, o'lchovlar keng qo'llaniladi. Ularning asosida muhim ustuvorliklar belgilanadi, ular resurslarni taqsimlashda va sotishni ko'paytirish bo'yicha tadbirlarni rejalashtirishda hisobga olinadi.

Bozor hajmi (market size) - hisob-kitob davri uchun mahsulot sotilishining umumiy hajmida ifodalangan ma'lum bir mahsulot yoki xizmat uchun bozor hajmi, yoki aholining sotib olish qobiliyatida ifodalangan tovarlar toifasiga bo'lgan umumiy talab. Ko'pincha marketingda "bozor sig'imi" tushunchasining o'rniga uning sinonimlari qo'llaniladi: bozor hajmi. Bozor sig'imi turlicha. Jahon amaliyotida bozor imkoniyatlarining 3 turi mavjud: haqiqiy, potensial va mavjud. Bozor sig'imining har bir turini turli o'lchov birliklarida hisoblash mumkin: televizor jismoniy ko'rinishda (dona), qiymat jihatidan (so'mda), tovar hajmida (litrd, kilogrammda va hokazo).

CDI-BDI matritsasi

BDI	CDI	Marketing harakatlaringizni yo'naltirish	Strategiya
yuqori	yuqori	Tovar katta bozor ulushiga ega, mintaqa katta savdo potentsiali bilan ajralib turadi va mahsulot toifasini sotishda ustuvor bo'lib bormoqda. Iste'molchilar brendga sodiqligini saqlashga, uning tan olinishini, tegishli dasturlarning miqdori va sifatini ta'minlashga qaratilgan	Yetakchilikni saqlab qolish va o'sish
yuqori	past	Brend bozorda yaxshi namoyish etilgan, ammo mintaqa past potentsial va mahsulot iste'moli pastligi bilan ajralib turadi. Faoliyat mavjud savdo hajmini saqlashga qaratilgan. Narxlarini kamaytirishga mavjud kanallardan foydalangan holda taqsimlash tizimini yaratish orqali erishiladi.	Savdo hajmini saqlash

past	past	Tovarlarni xarid qilish sonini ko'paytirish uchun arzon va oqilona usullar va kanallar qo'llaniladi, uzoq muddatli izchil o'sish istiqbollariga ustunlik beriladi. Mahsulotlar tarqatish tizimini yaratishga va tovarlarni eng ko'p savdo nuqtalariga tarqatishga qaratilgan.	Asta-sekin o'sishi
past	yuqori	Brend bozorda ahamiyatsiz ravishda namoyish etilib, raqobatchilardan past turadi. Marketing faoliyati sa'y-harakatlarning maksimal o'sishini ta'minlashga va tanlangan segmentda yetakchilikni o'rnatishga, maqsadli auditoriya bilan o'zaro aloqani kuchaytirishga qaratilgan	Yetakchilikning shakllanishi va o'sishi

Haqiqiy yoki real bozor sig'imi - aholi o'rtasidagi mahsulot yoki xizmatga bo'lgan talabning hozirgi rivojlanish darajasiga asoslangan bozor hajmi. Haqiqiy bozor sig'imi iste'molchilar orasida mahsulotni iste'mol qilish va undan foydalanishning hozirgi darajasiga qarab belgilanadi.

Potensial bozor sig'imi - bu iste'molchilar orasida mahsulotga yoki xizmatga bo'lgan talabning maksimal rivojlanish darajasiga asoslangan bozor hajmi. Talabning maksimal darajasi mahsulotni ishlatish madaniyati maksimal darajaga yetganligini anglatadi: iste'molchilar mahsulotni iloji boricha ko'proq iste'mol qiladilar va doimiy ravishda undan foydalanadilar. Potensial bozor sig'imi - bu barcha potensial iste'molchilar mahsulot kategoriyasini bilish va undan foydalanish asosida aniqlanadigan bozorning maksimal hajmi.

Mavjud bozor sig'imi - kompaniya mavjud mahsulot va uning xususiyatlari (taqsimot, narx, auditoriya) yoki kompaniyaning mavjud resurslari bilan qondira oladigan talab darajasi bilan kompaniya murojaat qilishi mumkin bo'lgan bozor hajmi. Boshqacha qilib aytganda, mavjud bozor sig'imini hisoblashda kompaniya bozorning barcha iste'molchilarini potensial xaridor sifatida emas, balki uning maqsadli auditoriya mezonlariga javob beradiganlarni hisobga olgan holda haqiqiy bozor sig'imini aniqlaydi.

6.3. Bozor konyunkturasi haqida tushuncha

Marketing faoliyatida bozorni o'rnatishning asosiy elementlaridan biri bozor konyunkturasini o'rnatish bilan bog'liq bo'ladi.

Konyunktura deganda ma'lum omillarning ta'siri natijasida vujudga keladigan qisqa muddatli shart-sharoitlar tushuniladi. Omillarning o'zgarishi konyunkturaning o'zgarishiga olib keladi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bozor konyunkturasi – bu ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir hududda talab bilan taklif o'rtasidagi nisbatdir.

Marketingda esa bozor konyunkturasi deganda belgilangan vaqtda maqsadli bozorda vujudga keladigan iqtisodiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Bozor konyunkturasini o'rnatish zarurati, quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

A) odatda bozor sig'imi, segmentlanishi va ishlab chiqarishning elastikligi (qayishqoqligi) o'zgarib boradi, shu sababli ularning monitoringini amalga oshirish lozim.

B) bozordagi omillar kompleks ravishda ta'sir o'tkazish sababli ularni alohida o'rnatish tegishli samara bermaydi;

D) bozor to'g'risidagi ma'lumotlar odatda retrospektiv xarakterga ega, shu sababli rejalashtirish uchun maxsus usullar talab qilinadi.

Bozor konyunkturasini o'rnatish mazmuni va tartibi firma tomonidan ko'zlangan maqsadga bog'liq bo'ladi va uch turga bo'linadi: konyunktura axborotnomasi, konyunktura tahlili va konyunktura prognozi. Konyunkturaning shakllanishi va o'zgarishi asosan narxlar, qimmatli qog'ozlar, ishlab chiqarish hajmi, bandlik va boshqalarning harakatini belgilovchi omillarga asoslanadi. Bozor konyunkturasini o'rganishning asosiy maqsadi uning muvozanatining tabiati va darajasini, birinchi navbatda talab va taklifning nisbatini aniqlashdir. Bozor mexanizmining mohiyati talab va taklifning muvozanatini saqlash istagida namoyon bo'ladi. Biroq, stoxastik tabiatga ega bo'lgan bu jarayon ko'plab qarama-qarshi omillarning doimiy ta'siri ostida ro'y beradi, bu esa doimiy o'zgaruvchanlik va bozor rivojlanishining asosiy tendensiyasidan og'ishlarning mavjudligini aniqlaydi.

Konyunktura axborotnomasi – bu bozor konyunkturasining hozirgi holati va uning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi hujjatdir. Bu konyunkturani o'rnatishning eng sodda shakli bo'lib, odatda savdo assortimentining maqbulligini baholash uchun foydalaniladi.

Konyunktura tahlili – konyunkturani mavjud holatda keltirgan omillarning tahlilini o‘z ichiga oladigan hujjat hisoblanadi. Amalda tahlil bozor konyunkturasining maxsus izlanishlarini aks ettiradi va omillarning ta’sir doirasini aniqlashga xizmat qiladi.

Konyunktura prognozi bozordagi holatni ma’lum davr ichida oldindan ko‘rish va uning asosiy parametrlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bunda konyunkturaga ta’sir o‘tkazuvchi omillarning yaqin kelajakdagi xususiyatlarini aniqlashga e’tibor qaratiladi.

Shuni e’tiborga olish lozimki, konyunktura tahlili va prognozida uning o‘ziga emas, balki konyunkturaga ta’sir qiluvchi omillarni ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har qanday bozor konyunkturasini belgilab beruvchi omillarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- makroiqtisodiy omillar;
- mikroiktisodiy omillar, ya’ni mazkur bozordagi talab, taklif, narx va raqobat omillari.

Har qanday alohida tovar bozori mamlakat iqtisodiyotidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Shu sabab, iqtisodiyot qanday holatda, uning jahon bozorida tutgan o‘rni qanday, milliy boyliklar qay darajada qo‘llanilmoqda degan savollarga javob topish lozim bo‘ladi.

Konyunkturani o‘rnatishning birinchi bosqichi iqtisodiyotning holatini tahlil qilishdan boshlanadi. Yalpi milliy mahsulot, milliy daromad, eksport hajmi, investitsiyalar va iste’mol darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar ichki bozorning rivojlanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bozor konyunkturasining hozirgi holati iqtisodiy siyosatning bir-ikki yil oldin bajarilgan harakatlarning mahsuli bo‘lganligi sababli, makroiqtisodiy tahlil kamida ikki yillik muddatni qamrab olishi maqsadga muvofiq.

Keyingi bosqichi bozorni shakllantiruvchi sohaning tahliliga bag‘ishlanadi. Bunda quyidagi savollarga javob topish lozim bo‘ladi:

Sohaning iqtisodiyotdagi o‘rni qanday?

Soha texnologik jihatdan qaysi bosqichda?

Sohaning rivojlanish sur‘atlari qanday?

Sohada qanday muammolar mavjud?

Bunday izlanish natijasida taklifning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari ma’lum bo‘ladi. Shunisi e’tiborliki, makroiqtisodiy omillarning tahlili kompleks ravishda olib borilishi va olingan ma’lumotlar keng doiradagi

konyunktura tahlillarda qo'llanilishi mumkin. Shu sababli ko'pchilik davlatlardagi, shu jumladan O'zbekistonda bunday axborotlarni davlatning maxsus organlari va xalqaro tashkilotlarning vakolatli organlari tayyorlab beradilar. Masalan, BMTning inson taraqqiyoti hisobotlari TESIS dasturining iqtisodiy rivojlanish axborotnomalari, O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi tahliliy axborotlari va h.k.

Yuqorida sanab o'tilganidek, mikroiqtisodiy omillarga ushbu bozordagi talab, taklif, narx va raqobat kiradi.

Bozor konyunkturasi tahlilida talabning barcha jihatlarini o'rnatishga alohida e'tibor beriladi. Jumladan: talabning geografik taqsimlanishi, assortimentning kengligi va chuqurligi bo'yicha taqsimlanishi, iste'mol intensivligi, hajmi va boshqa xususiyatlarni o'rnatish zarur bo'ladi. Talabni o'rnatishda avvalo qondirilgan talab, alohida turlari bo'yicha tahlil qilish orqali qondirilgan talab o'rganiladi, qondirilmagan talab esa sotuvchilar va xaridorlarning fikrini o'rnatish usullari yordamida aniqlanadi.

Konyunkturaga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil – bu tovar taklifidir. Taklifni o'rnatishda avvalo tovar manbalariga, sotishga taklif etiladigan tovar hajmi va tarkibiga, tovar zaxiralarga e'tibor beriladi. Tovar manbalarini tahlil qilish savdo tizimiga mahsulot yetkazib beruvchi korxonalar ro'yxatini tuzish va ularning imkoniyatlarini o'rnatishdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchilar tovarlarning assortimenti va yetkazib berish muddatlari taklifining tarkibini aniqlashga yordam beradi. Shundan so'ng bozor ishtirokchilaridagi tovar zaxiralari tahlil qilinadi. Zaxiraning hajmi va tarkibi, qachon vujudga kelganligi, zaxiraning almashib borish dinamikasi va boshqa ko'rsatkichlar taklifning talabga nisbatini aniqlashga xizmat qiladi. Savdo tashkilotlarida yuritiladigan hisob tizimining ma'lumotlari, inventarizatsiya natijalari va maxsus izlanishlar tovar zaxiralarini kompleks o'rnatishga asos bo'ladi.

Narxlarning bozor konyunkturasidagi o'rni va ularning shakllanish xususiyatlarini hisobga olgan holda narx tahliliga katta e'tibor beriladi. Narxlarni o'rnatishda quyidagilar tahlil obyekti sifatida olinadi: narxlarining barqarorligi tovar assortimenti doirasida narxlarning o'zgarish darajasi, sotuvchi tomonidan narxlar bo'yicha o'zgaruvchan tizimlarni qo'llash, mavsumiy narxlarning qo'llanilishi va boshqalar. Narx bozor konyunkturasiga ta'sir qiluvchi eng murakkab omil hisoblanadi. Uning

o'ziga ham bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli narx tahlilida nafaqat hujjatlarni tekshirish usuli, balki maxsus usullar ham keng qo'llaniladi.

Mikroiqtisodiy omillardan yana biri shu bozordagi raqobatdir. Tovar bozorlaridagi raqobatni tahlil qilishdan avvalo korxonalar raqobati, so'ng tovarlar va ehtiyojlar raqobati o'rganiladi. Korxonalar raqobatining tahlili sotuvchilar soni, ixtisoslashuvi, mahsulot assortimenti, ishlab chiqarish hajmi, yo'naltirilgan maqsadli segmenti va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Tovarlar va ehtiyojlar raqobatining tahlili asosan konyunktura prognozida amalga oshiriladi hamda raqobatchi tovarlar, o'rmini bosuvchi tovarlar va to'ldiruvchi tovarlarning o'zaro muvozanatini aniqlashga qaratiladi. Bunday raqobatni baholash uchun marketingning bozorni o'rnatish usullaridan keng foydalaniladi.

Bozor konyunkturasini o'rnatishining sotuvchi va ishlab chiqaruvchilar uchun zarurligi kelajakda ishlab chiqarish quvvatlarini qaysi yo'nalishda rivojlantirish va qanday sotish siyosatini qo'llash bo'yicha aniq va ishonchli axborotga ega bo'lishda namoyon bo'ladi.

6.4. Bozor konyunkturasini prognoz qilish usullari

Bozor konyunkturasini prognoz qilishda konyunkturani hech qachon bir xil bo'lmasligini e'tiborga olish kerak. Yangi hodisalar, omillar va tendensiyalar, asosiy konyunkturani tashkil etuvchi omillar ta'sirining kuchliligi va yo'nalishi o'zgarishi doimiy ravishda konyunkturaning rivojlanishiga o'ziga xos ta'sirlarni tahlil qilish kerak bo'ladi.

Prognozlash – bu kelajak haqidagi oldingi va hozirgi ma'lumotlarga va umuman tendensiyalar tahlili asosida taxmin qilish jarayonidir. “Prognozlash bu kelgusidagi hodisalarning ehtimolligi, ro'y berishi mumkinligi to'grisida ma'lumot berish uchun bizdagi mavjud axborot, ya'ni, taxminlar, modellar, aniq ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga oladi”³³. Prognoz qilish uslublarini har qanday obyektga uning farq qiluvchi xususiyatlarini inobatga olmasdan, umumlashtirilgan holda

³³ G.ElliottC. W.J. GrangerA. G. Timmermann, Handbook of Economic Forecasting: Volume 1 (North-Holland is an imprint of Elsevier Radarweg 29, PO Box 211, 1000 AE Amsterdam, The Netherlands The Boulevard, Langford Lane, Kidlington, Oxford OX51GB, UK, 2006) p.7

qo'llashga mo'ljallangan yondashuv, ko'pincha prognoz qilishda xatolarga olib keladi. Agar prognoz qiluvchi obyekt to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'lmasa, u holda bu vaziyatni, uning rivojlanishini va bog'liklari sababini tushuntira olmaydi. Har holda u vaziyatni qanday bo'lmasin tushuntirishga harakat qiladi, ya'ni, o'zining nazariyasini tuzadi. Agar bu nazariya ilmiy jihatdan asoslangan bo'lmasa, u holda prognoz qiluvchining bu nazariya asosidagi harakatlari samarasiz bo'ladi. Umuman prognozni aniqlash ma'lum obyektning bo'lajak holatini ilmiy asosda obrazini yaratish demakdir.

Tovarlar bozori prognozini aniqlashda quyidagi talablar e'tiborga olinishi shart:

- kelajakda bozor konyunkturasiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ilmiy asoslangan, ishonchli va tizimli yondashish;
- prognozni aniqlashda bir necha variantlardan foydalanish, ularning natijalari bir xil yoki yaqin bo'lishi;
- ishlatilgan uslublarning ilmiy asosi yetarli bo'lishi;
- xulosalarni aniq va ravon tilda, qaror qabul qiluvchilarga tushunarli tarzda aks ettirilganligi;
- bozor konyunkturasi istiqbolini o'z vaqtida aniqlashi va korxonalar, assotsiatsiya, kompaniya va vazirliklar ishini boshqarishda qo'llanishi.

Bozor konyunkturasini prognoz qilish uslublari 4 ta katta sinfga bo'linadi:

1. Faktografik uslublar. Bu prognoz qilishning shunday uslubiki, unda o'tgan davrda bo'lib o'tgan haqiqiy omillardan axborotlar asos sifatida foydalaniladi. Bu ma'lumotlar miqdor va sifat xarakteriga egadir. Bozor konyunkturasini prognoz qilishning faktografik uslublari, o'z navbatida, 3 turga bo'linadi.

Birinchi turi ekstrapolyatsiya va interpolatsiya uslublari yig'indisidan iborat bo'lib, bu turdagi modellar uchun chiziqli funksiyalarni tuzishda boshlang'ich axborotdan foydalanish xarakterlidir.

Ikkinchi turi statistik uslublar bo'lib, ular ikki va undan ortiq o'zgaruvchan prognoz qilish obyektlarining o'zaro aloqalarini tadqiq qilishda qo'llaniladi.

Uchinchi turi mazkur obyektlarning kelgusidagi rivojlanishini shunga o'xshash obyektlarning rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha tadqiq qilishga asoslanadi.

2. Ekspert baholash uslublari – u yoki bu sohadagi mutaxassis-ekspertlarning fikr va mulohazalarini qayta ishlashga asoslanadi. Prognoz qilishning ekspert baholash uslubi intuitiv va analitik uslubni o'z ichiga oladi. Intuitiv uslublarga ekspertlarni jalb qilishga, amalda prognoz qilish obyektini rivojlantirish jarayonlarini aniqlash hamda shaxsiy eruditsiya va tuyg'u vositasida kelgusidagi o'zgarishni baholashga asoslangan uslublari kiradi. Analitik uslublarga prognoz qilish obyektining tadqiq qilish jarayoni modelini mantiqan tahlil qilishga asoslangan usullari kiradi.

Bozor konyunkturasini prognoz qilishda ekspert baholash uslublari, ayniqsa, intuitiv uslublar keng qo'llaniladi.

3. Ekstropolyatsiya uslubi. Ekstropolyatsiya uslublari bozor konyunkturasining turli ko'rsatkichlari va xususiyatlarini prognoz qilishda qo'llaniladi. Ekstropolyatsiya formalar yoki jarayonlarning kelgusidagi holati qonunlari, nazariyalari hamda tajribasini keng yoyishni taqozo qiladi, ya'ni bu holda ekstropolyatsiya prognoz qilish amalga oshirilayotgan obyektning ilgarigi rivojlantirish tendensiyalariga tayanadi.

Ekstropolyatsiyaning bozor tadqiqotlarida qo'llanilgan asosiy modellardan biri – bu trend modelidir. Trend modellari jarayonlarni vaqtga nisbatan o'zgarishning asosiy yo'nalishlarni ko'rsatadi.

4. Ekonometrik modellar. Ekonometrik modellar iqtisodiy jarayonlar parametrlarining stoxastiklarini nazarda tutgan holda bozor konyunkturasining turli ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va nisbatlarini miqdoriy bayon qiladigan regression va balans tenglamalari tuzish orqali ifodalanadi. Ekonometrik modellash bozor konyunkturasini prognoz qilishda keng qo'llaniladi. Ular ishlab chiqarish va unga ta'sir qiluvchi omillar, bozordagi narxlar darajasi raqobat va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, iste'molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish, marketing tadbirlarini amalga oshirish va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi va boshqa jarayonlar o'zgarishini matematik modellar yordamida tahlil qilishga hamda prognoz qilishga yordam beradi. Ekonometrik modellarning xususiy holi korrelyatsion va regression modellashdir.

Bozor konyunkturasini tahlil va prognoz qilish natijalari firmaning biznes-reja tuzishda yoki firmaning bozordagi butun faoliyatini tartibga solishda va boshqarishda keng qo'llaniladi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Talab deganda nimani tushunasiz?
2. Talabga narxdan tashqari yana qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Mavjud bo'lmagan talabga izoh bering.
4. Bozor sig'imi deganda nimani tushunasiz?
5. Bozor konyunkturasi deganda nimani tushunasiz?
6. Bozor konyunkturasi tahlili qanday amalga oshiriladi?
7. Faktografik uslublar deganda nimani tushunasiz?
8. Ekstropolyatsiya uslubi qanday amalga oshiriladi?
9. Ekonometrik modellar qanday ifodalanadi?
10. Prognozlash deganda nimani tushunasiz?

7-MODUL. BOZOR SEGMENTATSIYASI VA TOVARNI BOZORDA POZITSIYALASHTIRISH

7.1. Bozor segmentatsiyasining mohiyati va ahamiyati

Uendell R. Smit 1956-yilda o'zining "Mahsulotlarni farqlash va alternativ marketing strategiyalari sifatida bozor segmentatsiyasi" maqolasini nashr etish bilan marketing adabiyotida bozor segmentatsiyasi tushunchasini birinchi bo'lib kiritgan. Bu strategiya potensial iste'molchilar guruhlarida aniqlangan talablarga ko'ra ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarining sifat tavsiflarini modifikatsiyalashdan iborat. Shuning uchun iste'molchilar va ularning istaklari, afzal ko'radigan narsalarini yaxshiroq tushunish maqsadida ularni aniq guruhlariga bo'lish kerak. Demak, xaridorlarning tovarlarni sotib olishdagi xulq-atvorlari, talabi va tovarlarga munosabatidagi xususiyatlariga qarab, guruhlariga ajratish bozor segmentatsiyasi deyiladi. Ishlab chiqarish korxonalari segmentatsiyalarni ko'proq qamrab olishga harakat qilishi va ko'p sonli xaridorlarning ehtiyojlariga javob beradigan mahsulotni ishlab chiqarishi kerak. Yani, differensial yondashuvni amalga oshirib bir yoki bir nechta bozor segmentlariga e'tiborni qaratishi hamda har bir segment uchun alohida takliflarni ishlab chiqishi lozim bo'ladi. Bozor xaridorlardan tashkil topgan bo'lib, xaridorlar esa o'z navbatida bir-biridan har xil parametrlari bilan farq qiladi. Shu sababli, ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan aniq tovarni ishlab chiqaruvchi uchun potensial xaridorlarning shu tovarning xususiyatlariga bo'lgan munosabatlarini bilish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Bugungi kunda bozor segmentatsiyasi muvaffaqiyatli marketing strategiyasi va operatsiyalari uchun muhim poydevor ekanligini ko'rsatmoqda.

Bu yerda Volfredo Pareto (1848– 1923y) qonunini eslash maqsadga muvofiqdir. Bu qonunga binoan 20 foiz iste'molchilar ma'lum markali tovarlarning 80 foizini xarid qiladi va potensial xaridorlarning qolgan 80 foizi esa tovarlarning qolgan 20 foizini xarid qiladilar. Ko'pchilik hollarda bu tovarlar o'ylamasdan xarid qilinadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini va marketing faoliyatini bozorga qaratmasdan, balki aynan ana shu 20 foiz potensial iste'molchilarga qaratadi. Bozor faoliyatining bunday strategiyasi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Bozor segmenti – bu boshqa guruhlardan farq qiluvchi, o'xshash belgilariga ega bo'lgan iste'molchilarning kichik guruhidir. Bunda bozorni turli xil belgilari bo'yicha alohida bo'g'in (segmentlar)ga bo'lish jarayoni segmentlash deb ataladi.

Segmentlashning asosiy maqsadi bozordagi xatti-harakatlarni o'rganib, ularning obrazini (modelini) va kelajakdagi ehtiyoj talablarni tasavvur qilishdan iborat. Hozirgi raqobatda yutib chiqishning asosiy sharti yangi, yuqori sifatli tovar va kompleks servis texnika xizmatlarni hamda samarali sotish usullarini qo'llashdan iborat bo'lib qoldi. Ana shu talablar asosida marketing tadqiqotlarining ustuvor turi iste'molchilarni o'rnatish o'z navbatida, bozorni segmentlashdan boshlanadi, chunki bozor bir xil subyektlardan tashkil topgan emas. Kompaniyalar cheklangan resurslarga ega bo'lganligi sababli, barcha odamlar uchun har qanday mumkin bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va uni doimo amalga oshirish mumkin emas. Bozor segmentatsiyasining maqsadi cheklangan manbalardan foydalanish; boshqacha qilib aytganda, marketing, narx belgilash, tarqatish, mahsulot va reklama elementlari turli xil mijozlar guruhlarining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilganligini anglatadi. Biroq, ishlab chiqarishning turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish va tovarlarni tabaqalashtirish segmentatsiyalash - iste'molchilarni yaxshiroq qondirishga harakat qilish uchun ularni guruhlariga bo'lish imkoniyatini chalkashtirmaslik kerak. Smit aytgandek, "mahsulotni farqlash bu talabni taklifiga bo'ysundirishdir". Haqiqiy segmentatsiya segmentlarni talablari va xulq-atvorini aniqlashdan, shuningdek, marketing takliflarini iste'molchilar guruhlari xatti-harakatlari va ehtiyojlariga maqsadli ravishda moslashtirish uchun har bir segment uchun marketing miksni ishlab chiqishdan boshlanadi. Eng optimal usul bu tanlangan odamlar guruhlari uchun alohida takliflarni taqdim etishdir.

Ushbu jarayon kompaniyalarga aniq mijozlarning ehtiyojlarini eng samarali ravishda qondirishga imkon beradi. Resurslari cheklangan kompaniyalar faqat eng yaxshi imkoniyatlarni izlashlari va tanlashlari kerak. Bozor segmentatsiyasi jarayoni - bu bozorni xaridorlarning aniq guruhlariga bo'lish, ularning har biri alohida mahsulot yoki marketing komplekslarini talab qilishi mumkin³⁴. Bozor segmentatsiyasining potensial afzalliklarini amaliyotga tatbiq etish boshqaquv qarorlarini qabul

³⁴ Котлер Ф., (2016) «Основы маркетинга», 5-е издание, Ф.Котлер, А.Гари. – М.: Вильямс

qilishda va segmentatsiyani boshlashdan oldin potensial segmentlarni empirik tadqiq qilishni talab qiladi³⁵. Richard S. Tedlow (1990) bozor segmentatsiyasi evolyutsiyasining uch bosqichini belgilab beradi:

- parchalash (1880-yillargacha);
- birlashtirish yoki ommaviy marketing (1880 – 1920-yillar); segmentatsiya (1920-1980-yillar)³⁶;

Uch yildan so'ng nashr etilgan keyingi ishda, Richard S Tedlow va uning hammuallifi (1993) yangi tendensiya haqida e'lon qildilar va to'rtinchi davrni qo'shdilar.

- Gipersegmentatsiya (1980-yillardan keyin).

Fragmentatsiya bosqichi mahalliy yoki mintaqaviy tovarlarni sotadigan ko'plab mahalliy yetkazib beruvchilarning mavjudligi bilan tavsiflandi. Chakana savdogarlar boy va kambag'al mijozlarga boshqacha xizmat qilishdi. "Ommaviy marketing" bosqichida transport tizimlari yaxshilanishi bilan iqtisodiyot birlashdi. Ishlab chiqaruvchilar Ford's Model T kabi standart mahsulotlarni ishlab chiqardilar. Bozor hajmi kattalashgani sayin, ishlab chiqaruvchilar turli demografik va psixologik bozor segmentlarining ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan turli xil modellarni ishlab chiqarishga qodir bo'ldilar. "Segmentatsiya" - demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va hayot omillariga asoslangan bozorning farq qiluvchi davri. "Gipersegmentatsiya" bu tobora torayib borayotgan bozor segmentlarini belgilash tomon siljishdir. Texnologik yutuqlar, ayniqsa raqamli aloqa sohasida, sotuvchilarga individual iste'molchilar yoki juda kichik guruhlar bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Bu ba'zan shaxsiy marketing deb nomlanadi. Hozirgi kunda tovarlar juda keng miqyosda tabaqalanmoqda. Masalan: iste'molchilar turli xil tuz mahsulotlarini sotib olishlari mumkin; stol tuzi, dengiz tuzi, tosh tuzi, kosher tuzi, mineral tuzlar, sabzavot yoki sabzavot tuzlari, yodlangan tuz, tuz o'rmini bosadigan narsalar va boshqalar. Shuningdek shakar ham juda ko'p turli xil turlarga kiradi - qamish shakar, lavlagi shakar, xom shakar, oq tozalangan shakar, jigarrang shakar, chang shakar, bo'lak shakar, shakar siropi, shakar o'rmini bosadigan turli xil narsalar. Shu jumladan mohir

³⁵ Wind, Y., (1978) «Issues and Advances in Segmentation Research», Journal of Marketing Research, Vol. 15, August 1978, pp. 317-337.

³⁶ Tedlow Richard, (1990) «The Story of Mass Marketing in America», Basic Books, N.Y. 1990 pp. 4-12.

shakar va shakar o'rnini bosadigan aralashmalar. Ushbu mahsulotlarning har biri ma'lum bozor segmentlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan. Masalan, shakar siroplari oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotiladi, bu yerda ular konserva, shokolad va pishirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Shakar turli xil segmentlardagi iste'molchilarning ehtiyojini qondirish uchun bir nechta turlarda ishlab chiqarilmoqda.

Xaridorlarning munosabatini tabaqalashtiradigan asosiy omil daromad hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda daromad bo'yicha uch guruhga ajratib segmentlashda keng foydalaniladi.

Raqobat so‘zi lotincha “concurrere” so‘zidan olingan bo‘lib, to‘qnashuv, qarama-qarshi, musobaqalashmoq degan ma’noni bildiradi. Raqobat tovar oldi-sotdisi va eng yaxshi ishlab chiqarish uchun bozor tizimi qatnashchilari orasidagi o‘zaro kurash demakdir. Bozor raqobati tarixan 4 bosqichdan o‘tadi.

Birinchi bosqich – bu natural xo‘jalikdan bozor iqtisodiyotining dastlabki shakllariga o‘tish bo‘lib, bu davrda raqobat mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida boradi.

Ikkinchi bosqich – bu kapitalistik erkin raqobat bosqichidir. Bu bosqich tovar xo‘jaligining ommaviy tus olishi bilan, mayda tovar ishlab chiqarish o‘rniga yirik mashinalar tizimiga va yollangan mehnatga tayangan tovar ishlab chiqarishning kelishi bilan xarakterlanadi.

Uchinchi bosqich – bu monopol raqobat bosqichi bo‘lib, u yakka hokimlikka intiluvchi yirik korxonalarining kurashidir. Raqobat iqtisodning monopollashgan va monopollashmagan sohalarida alohida boradi, ammo bu sohalar o‘rtasida ham kurash ketadi.

To‘rtinchi bosqich – yangicha erkin raqobat bosqichi bo‘lib, u aralash iqtisodiyotga xosdir. Bu bosqichda raqobatchilar g‘oyat ko‘pchilik

bo'lib, ular yirik korporatsiyalar, o'rtacha, mayda va o'ta mayda korxonalaridan iborat bo'ladi.

Raqobat bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim xususiyati. U amal qilishi uchun ma'lum shart-sharoit muhayyo bo'lishi talab qilinadi. Raqobat faqat bozor iqtisodiyoti muhitida bo'lishi mumkin, chunki undagina u zarurat bo'ladi, shuningdek, unga yo'l ham ochiladi. Shunday ekan, bozor munosabatlarining yuzaga kelishi ayni bir vaqtda raqobatchilikning shakllanishini bildiradi.

Bozor iqtisodiyoti raqobat sharoitidagina eng yaxshi faoliyat ko'rsatadi. **Raqobat** – bu bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir-biri bilan kurashi, ularning o'zaro bellashuvidir. Odamlarni bir biri bilan kurashi emas, balki, manfaatlar to'qnashgan joyda vujudga kelgan kurashishi raqobat deyiladi. Raqobat – bozorning asosiy sharti va qonunidir. Raqobat siyosatining oliy maqsadi – resurslarni yanada samarali taqsimlashga erishish uchun samarali raqobat jarayonini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdir. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir. Resurslarni yetkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer-suv, ishchi kuchi) yuqori baholarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi; ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi.

Shunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

Biroq raqobat kurashining keskinlashuvi natijasida ishlab chiqarish xarajatlarining past bo'lishiga erishgan korxonalar o'z yashovchanligini saqlab qolib, ishlab chiqarish xarajatlari yuqori bo'lgan korxonalar inqirozga uchray boshladi. Raqobat esa kichik korxonalardan yirik korxonalar o'sib chiqishini ta'minlaydi. Raqobat kurashida yengib chiqish uchun hamfikir bo'lib, texnik yangiliklar ustida yakdillik bilan ishlagan kam sonli tadbirkorlar jamoasining keyinchalik moliyaviy jihatdan ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan yirik firmalarga aylanib ketganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bugungi kunda butun dunyoga mashhur «Xonda», «Ford», «Microsoft» firmalari bunga yaqqol misoldir. Raqobatning asosiy sohasi bozor, chunki unda erkin iqtisodiy subyektlarning alohidalashgan manfaatlari to'qnashadi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat, eng avvalo, ikki turga-tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi. Raqobat orqali iqtisodiyotda tabaqalashuv yuzaga keladi, ya'ni raqobatda yutib chiqqanlar iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lib ketsalar, yutqazganlar esa iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qoladilar, ko'pincha, yirik korxonalar tarkibiga qo'shilib ketadilar yoki umuman yo'q bo'lib ketadilar.


Raqobatning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjud. Raqobatning ijobiy tomonlari u resurslarni samarali taqsimlanishiga va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, raqobatda iste'molchilar talabi asosiy o'rin tutganligi sababli resurslarning iste'molchilar talabi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirish zarur.

Raqobat tadbirkorlarni yangi texnologiyalarni jalb etishga undaganligi sababli ilmiy-texnikaviy rivojlanishga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, raqobatning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bunda eng asosiy e'tibor tadbirkorlarning shaxsiy mustaqilligiga qaratiladi. Faqat raqobatgina iqtisodiy faoliyatni ma'muriy boshqarishsiz ham muvofiq-lashtirishi mumkin va bu tadbirkorlarga manfaatlarini to'laroq qondirishga imkoniyat yaratib beradi.

Raqobatning salbiy tomonlari sifatida shuni aytish mumkinki, raqobat bozorda muvozanatni yuzaga keltirishi yoki o'zi uni buzib qo'yishi mumkin. Chunki talab va taklifning o'zgarishiga qarab narxlarning to'xtovsiz o'zgarib turishi bozordagi subyektlarning mavqelarini bir maromda saqlab turishlariga imkon bermaydi.

Raqobatchilar tahlili quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi, (8.1.1- chizma):

- bozorning tuzilishi va tavsiflanishini aniqlash;
- tayanch raqobatchilar xarakteristikasini tasvirlash va aniqlash;
- tayanch raqobatchilarni baholash;
- raqobatchilar xarakterini oldindan ko'ra bilish;
- potensial raqobatchilarni aniqlash.



8.1.1- chizma. Raqobatchilarning tahlili

Narxlar urushi mexanizmi. Differensiallanmagan oligopoliyada hamma tovarlar asosiy deb qabul qilinadi va xaridor tanlovi asosan narx va ko'rsatiladigan xizmatlarga asoslanadi. Agar firma lider tartib o'rnatish kuchiga ega bo'lmasa va bozorni direktiv narx qabul qilishga majbur bo'lmasa, bunday shartlar narxlar bo'yicha raqobatga yo'l ochib beradi. Agar narx bo'yicha raqobat yuzaga kelsa, hamma raqobatchilarning rentabelligi yomonlashadi. Narxlar urushi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

- bitta firma narxlarini pasaytirsam ko'proq xaridorlarni jalb etadi va bozor ulushining qayta taqsimlanishiga olib keladi;
- shu firmaga tegishli bozor ulushi ortadi va uni ulushi kamayotgan raqobatchilar darrov his qiladilar va bunday qayta taqsimlashga qarshi ular ham narxlarni pasaytiradilar;
- tovar bozorida global talab kengaymasligi sababli narxlarning pasayishi bozor umumiy hajmining o'sishiga olib kelmaydi.

Raqiblarga nisbatan munosabat har qanday strategiyaning markazini tashkil qiladi. Bunday vaziyat batafsil tahlilga asoslangan bo'lishi kerak.

Porter raqobatni tahlil qilish vazifalarini quyidagicha tavsiflaydi: "Raqiblarni tahlil qilishdan maqsad har bir raqobatchi olib borishi mumkin bo'lgan strategiyadagi o'zgarishlarning xarakterini va muvaffaqiyat qozonish ehtimolini bilishdan iboratdir..."

Xaridorlarni doimiy mijozlarga aylantiruvchi va ularning narxga sezgiriligini kamaytiruvchi differenziatsiya firmaning bozordagi mavqei-ni ma'lum darajada kuchaytiradi. Ayni paytda mijozning savdolashish imkoniyati ham qisman bartaraf qilinadi. Shuningdek, differenziatsiya firmani raqiblarning hujumlaridan ham himoyalaydi, chunki differenziatsiya elementining mavjudligi tovarlarning almashuvchanligini kamaytiradi. Raqobat jihatidan bozor modellarining xususiyatlarini tahlil qilamiz (8.1.1-jadval).

8.1.1-jadval

Raqobat jihatidan bozor modellarining xususiyatlari

Xarakterli xususiyatlari	Raqobat modellari			
	Sof raqobat	Mono polistik	Oligopoliya	Sof monopoliya
Firmalar soni	Juda ko'p	Ko'p	Bir nechta	Bitta
Mahsulot turi	Standart langan	Tabaqa lashgan	Ixtisoslashgan yoki tabaqalashgan	Noyob o'rin bosuvchi tovar yo'q
Narx ustidan nazorat	Yo'q	Tor doirada bor	O'zaro bir-biriga bog'liq tufayli cheklangan yashirin kelishuvda sezilarli	Sezilarli
Tarmoqqa kirish	Juda oson	Nisba tan oson	Sezilarli to'siqlar mavjud	O'tib bo'lmaydigan to'siqlar mavjud
Ma'lumot olish imkoniyati	Ma'lumot olish imkoniyati hamma uchun teng	Ma'lum chek lashlar mavjud	Ma'lum cheklashlar mavjud	Ma'lum cheklashlar mavjud
Misollar	Qishloq xo'jaligi	Chakana savdo, kiyim kechak, poyafzal ishlab chiqarish	Po'lat, avtomobil, qishloq xo'jaligi inventarlari, magnit, elektor asboblari ishlab chiqarish	Jamoat xizmatini qiluvchi mahalliy korxonalar

Shuningdek, raqobatning mavjudligi tadbirkorni foyda olish va bozorda o'z mavqeyini saqlab qolish maqsadida shunday metodlardan foydalanishga majbur etadiki bu, o'z navbatida, tabiiy resurslardan no-oqilona foydalanishga, o'z raqibini obro'sizlantirishga, iste'molchilarni chalg'itishga olib kelishi mumkin.

8.2. Raqobat turlari va shakllari

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning **to'rtta shakli** alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi: tarmoq ichida, ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlararo, ya'ni turli tarmoqlardagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi, kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan

talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat obyektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki, har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarining paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Monopoliya yunon tilidan olingan bo'lib, mono – "tanho" va poleo – "sotaman" degan ma'noni bildirib, yakka hokimlik yoki hukmronlikni anglatadi, ya'ni monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat) ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopoliyaning mavjud bo'lishi tarmoqqa kirish uchun to'siqlarning mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy, texnik, huquqiy yoki boshqa to'siqlar yangi raqobatchilarning tarmoqqa kirishiga yo'l qo'ymaydi. Tarmoqqa kirish uchun to'siqlar har xil ko'rinishlarni oladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

a) ishlab chiqarish miqyosi keltirib chiqaradigan to'siqlar, shu jumladan, moliyaviy to'siqlar ko'p holatlarda shunchalik katta bo'ladiki, bu tarmoqqa kirishni taqiqlash bilan barobar. Masalan, yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan avtomobil sanoatiga kirish, yangi texnologiya-

ga asoslangan zarur uskunalarni sotib olishga juda katta pul-kapitali talab qiladi.

b) tabiiy monopoliyalar vujudga keltiradigan to'siqlar. Buning mazmuni shundan iboratki, bir qancha tarmoqlarda raqobat mavjud bo'lmaydi, uni amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy foydalanishdagi bunday tarmoq korxonalari tabiiy monopoliyalar deyiladi. Tabiiy monopoliyalarga elektr, gaz, suv ta'minoti va aloqa korxonalari misol bo'la oladi. Davlat bunday monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda o'z huquqini saqlab qoladi. Agar tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslangan bo'lsa, bunday ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar tartibga solinadigan yoki davlat tomonidan tuzilgan monopoliyalar deyiladi;

d) patent va litsenziyalar kabi qonuniy to'siqlar. Davlat patent va litsenziyalar berib tarmoqqa kirish uchun qonuniy to'siqlar ham yaratadi. Patentlar tadqiqotchiga mahsulotini to'liq nazorat qilish huquqini beradi. Tarmoqqa kirish yoki faoliyat turi bilan shug'ullanish davlat tomonidan litsenziya berish yo'li bilan cheklanishi mumkin. Masalan, davlat miqyosida radio va televizion eshittirishlarga tegishli vazirlik litsenziya beradi.

e) xomashyoning muhim turlariga, xususiyl mulkchilik monopoliyalar tomonidan potentsial raqobatchilar uchun samarali to'siq yaratish vositasi sifatida foydalanishi mumkin;

f) g'irrom raqobat. Firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish, bahoni keskin tushirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Monopolistik raqobat erkin raqobat va oligopoliya o'rtasida joylashishi sababli, ularning belgilarini ifoda etadi. Monopolistik faoliyat deganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining monopoliyaga qarshi kurash haqidagi qonun hujjatlariga xilof bo'lgan, raqobatchi yo'l qo'ymaslikka, uni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligidir.⁴³

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarining mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli

⁴³ Ўзбекистон янги қонунлари тўплами №15-сон. – Тошкент: Адолат, 3-модда.

ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin, ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilari – fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvuvchi vositalar, sigaretalar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining baho siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Oligopolistlar narxsiz raqobatga asosiy o'rin beradi, chunki birinchidan, raqobatchilarga reklama va mahsulotni o'zgartirish ancha murakkab, ikkinchidan, oligopolistlar kamdan-kam holda narxsiz raqobatni moliyalashtirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o'rnatish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Shu sababli erkin raqobatli bozorning xarakterli belgilari bilan, erkin monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyaning xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berish foydali. Bunday taqqoslashni yengillashtirish uchun bozorning keyingi uchta modelini bildirish uchun «takomillashmagan» yoki «nomukammal» raqobat degan umumiy nomdan foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bizga nisbatan ancha oldin boshlangan mamlakatlarda raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq davrni oladigan jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Bozor tizimida raqobatni **mukammal** (sof raqobat) va **nomukammal** turlarga ajratish mumkin.

Mukammal (yoki sof) raqobat shunday raqobatki, bunda bozordagi sotuvchilar va xaridorlarning soni juda ko'p miqdorda bo'lib, ular bozordagi narxga ta'sir eta olmaydi va monopol mavqeidan foydalanib, bozordagi ishtirokchilarni o'z izmiga yurita olmaydi. Shuningdek, bu

sharoitda kurash doirasi juda keng bo'lib, mavjud tarmoqqa kirish va undan chiqish hamda ushbu tarmoq to'g'risida axborot olish erkinligi kafolatlangan bo'ladi.

Bunda barcha ishtirokchilar bir xil turdagi tovar va mahsulotlar ishlab chiqaradilar hamda bozordagi narx talab va taklif asosida shakllanadi. Ammo real hayotda raqobatning bu ko'rinishini uchratish qiyin.

Mukammal raqobatning o'ziga xos tomonlari quyidagilar:

– bozordagi raqobatchilar soni o'ta ko'p va ularni birlashtirish imkoni yo'q, barcha ishtirokchilar o'z imkoniyatlari va tavakkalchiliklari evaziga bozorda ishtirok etadilar;

– mahsulot bir yo'sinli – standart, sifat bo'yicha tafovutlar yo'q;

– kichik korxonalar juda oz miqdorda ishlab chiqaradilar va ular o'zgalarning ishlab chiqarish quvvatlariga va korxonalariga ta'sir eta olmaydilar;

– tarmoqqa kirib borish uchun hech qanday huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va texnologik cheklashlar yo'q;

– standart mahsulot bo'lgani uchun narx vositasisiz raqobatni o'zlashtirish uchun imkon yo'q, chunki mahsulot sifati, uni namoyish etish uchun farqlanish belgilari yo'q.

Nomukammal raqobat esa bunga teskari holat bo'lib, tabiatan monopol yoki raqobat bir muncha cheklangan bo'ladi. Xususan, bunda katta ulushga ega bo'lgan korxonalar va firmalar raqobatlashadilar.

Nomukammal raqobat monopoliya, oligopoliya, sof monopoliya va monopsoniya ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Raqobat olib borish usuliga qarab **insofsiz (g'irrom) va halol raqobat** bo'lishi mumkin.

Insofsiz raqobat bozorda firmalar, korxonalar o'z raqobatdoshi bo'lgan subyektlarga nisbatan zarar keltiradigan, uning tadbirkorlik obro'siga putur yetkazadigan yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatishi, ularning intellektual boyliklaridan noqonuniy foydalanishlari, tovarni tayyorlash usuli, xususiyati va joyi, iste'mol xossalari, sifati xususida iste'molchilarni chalg'itishlari, josuslik, qo'poruvchilik va o'g'irlik kabi usullardan foydalanishlari tushuniladi.

Halol raqobat esa buning aksi bo'lib, asosan, ikki usulda, ya'ni narx va sifat orqali olib borilishi mumkin. Narx orqali raqobatlashuv usuli tanlanganda narxni tushirish va ko'tarish orqali raqobatlashiladi. Bunda raqobatlashadigan firmaning narxni ko'tarish yoki pasaytirish chegarasi

asos qilib olinadi. Ammo shuni unutmaslik zarurki, narx bilan raqobatlashish hamisha ham qo'l kelavermaydi. Shuning uchun iqtisodiyotda tovarning sifati orqali raqobatlashish alohida o'rin tutadi. Jumladan, agar ikki firma tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot yoki tovarning narxi bir xil bo'lsa, xaridor o'z-o'zidan uning sifatiga, afzalligiga e'tiborni qaratadi va sifati yuqori bo'lgan tovarni sotib olishga intiladi.

Raqobatni subyektlariga qarab asosan uchta guruhga bo'lish mumkin.

1. Bozorda **ishlab chiqaruvchilar** yoki xizmat ko'rsatuvchilar orasidagi raqobat muhim hisoblanib, uni ham uch turga ya'ni, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va mintaqaviy raqobatga bo'lish mumkin.

a) **tarmoq ichidagi raqobat.**Bu, asosan, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat hisoblanib, u asosan tovarlar sifati, narxi, tovarning ko'rinishi, korxonada foydasi miqdori va xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarayotgan boshqa ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga bog'liqlikni taqozo etadi. Ishlab chiqaruvchilarga ichki va tashqi sharoitlarning har xil ta'siri tufayli ular bozorda turlicha ulushga ega bo'ladilar va turli mavqeni egallaydilar;

b) **tarmoqlararo raqobatda** turli tarmoqlar o'rtasida raqobat mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan bir hududga sarmoya kiritish niyatida bo'lgan sarmoyador tarmoqlar o'rtasida o'zi uchun eng foyda keltiradigan tarmoqni tanlaydi.

Resurslar doimo foyda normasi ancha past bo'lgan tarmoqda yuqoriroq bo'lgan tarmoqqa oqib o'tadi. Shu asosda tarmoqlararo raqobat – tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'z mablag'larini eng foydali ishlab chiqarish sohasiga joylashtirish uchun kurash sodir bo'ladi.

d) **mintaqalararo raqobat** davlatlar orasida yuzaga keladigan raqobat ko'rinishidir. Misol uchun, Yaponiyada avtomobil ishlab chiqarish xarajatlari AQSHga qaraganda kamroq bo'lganligi munosabati bilan, dunyo avtomobil bozorlaridagi savdolarda mavjud raqobat natijasida yuzaga kelgan narxlar tizimi yapon avtomobil ishlab chiqaruvchilari uchun foydaliroqdir.

Shu sababli, avtomobil ishtiyokmandlarining avtomobillarga bo'lgan ehtiyojining katta qismi Yaponiya avtomobillari hisobiga qondiriladi. Natijada ko'proq chidamli bo'lgan AQSH avtomobil ishlab chiqaruvchilari raqobat kurashida yutqazadilar.

2. **Xaridorlar o'rtasidagi raqobat** raqobatning boshqa turlariga nisbatan rivojlangan bozor xo'jaligida kamroq ahamiyatga ega. Albatta, har bir sotuvchi uchun xaridorlarning tovar uchun ko'proq haq to'laydigani afzaldir. Lekin, ishlab chiqarish taklifi talab bilan muvozanatga kelgan vaziyatda xaridorlar o'rtasidagi raqobat ikkinchi o'ringa o'tadi. Raqobatning keskinlashuvi biron bir tovarni taklif etishni ko'paytirish uchun to'siq paydo bo'lgan paytdagina yuzaga kelib, agar tovar yetishmasligi paydo bo'lsa, xaridorlar uni sotib olishda bir-birlaridan o'zishga intilib, sotuvchilarga balandroq narx taklif qiladilar. Sotuvchilar esa taqchil tovarni talab narxi bo'yicha, ya'ni xaridori chiqsa, iloji boricha, yuqori narx bo'yicha sota boshlaydilar.


Xaridorlarning sotib olish imkoniyatlari bir xil bo'lganligi sababli, ko'p haq to'lay oladigan kishi ushbu vaziyatda afzal ko'riladi. Bunday raqobat natijasida barcha xaridorlar, har holda tovarni sotib oladigan, tovar yetarli miqdorda bo'lgandagiga qaraganda ko'proq haq to'laydigan xaridorlar va hech narsa sotib ololmaydigan xaridorlar ozmi-ko'pmi yutqazadilar, chunki ularning ehtiyojlari qondirilmaydi.

3. **Sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi raqobat** –muvozanat narxlar shakllanishi jarayonida sodir bo'ladi. Dastlabki shakllangan narx bo'yicha talab taklifdan yuqori bo'lsa, narx oshib boradi. Bunday vaziyatda sotuvchilar bilan birgalikda harakat qilish xos bo'lib, xaridorlar parokanda bo'ladilar va ularning har biri taqchil molni sotib olishda boshqasidan o'zishga intiladi. Bordi-yu, dastlabki narx vaziyatida taklif talabdan ortiq bo'lsa, xaridorlar sotuvchilarni bir-birlari bilan o'zaro raqobat qilishga, qolaversa, narxni pasaytirishga majbur etadilar. Bundan xaridorlar yutadilar, chunki ulardan har biri tovarni arzonroq narxda sotib olishga muvaffaq bo'ladi.

Adam Smit shunday deydi: “Bir xil kasb egalari kam uchrashadilar, hatto ular quvonchli kunlarida yoki shunchaki dam olish uchun uchrashganlarida ham, biror bir uchrashuvlari yo'qki, bu uchrashuvlar jamiyatga qarshi til biriktirish yoki narx-navoni qanday ko'tarish yuzasidan biror bir kelishuv bilan yakunlanmasin.”

Raqobat klassifikatsiyasi quyidagi chizmada aks ettirilgan:

Raqobat klassifikatsiyasi



Intensivlik darajasi bo'yicha:

1. Jalb etuvchi raqobat – raqobat subyekti mazkur segmentda oldingi segmentdagiga nisbatan ko'proq foyda oladi;

2. Chegaralangan raqobat - mazkur raqobat tovar bozorida raqobatni ushlab turadi;

3. Shafqatsiz raqobat - raqobat nisbatan intensiv, raqobatchilar bir-birini bozordan siqib chiqarishga, ulushini tortib olishga harakat qiladi.

Ehtiyojlarni qondirish shakli bo'yicha:

1. Funktsional raqobat – bu raqobatning shunday turiki, turli xil tovarlar o'zaro bir-bir bilan raqobatlashadi. Bu tovar ayni o'sha ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan: mineral suv ishlab chiqarish o'rtasida raqobat gazli suv ishlab chiqarish, kvass ishlab chiqarish, sharbat ishlab chiqarish va boshqalar. Bu turli xil mahsulotlar bitta va o'sha-o'sha ehtiyojni, ya'ni chanqoqni qondiradi.

2. Tur raqobat – mazmuniga ko'ra funktsional raqobatga yaqin turadi. Tur raqobat bitta maqsadga yo'naltirilgan lekin bir-biri bilan uncha katta farqga ega bo'lmagan o'xshash tovarlar ishlab chiqarish ishlari o'rtasidagi raqobatdir. Bu farqlar aniq bo'lishi mumkin va iste'molchilarga tovar tanlovida hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Masalan: tur raqobatga analogik avtomobillar ishlab chiqarish ishlarini keltirish mumkin. Bunda dvigatel quvvati bo'yicha farqlanadi. Tur raqobat barcha firmalar faoliyatida, amaliyotda ko'p uchraydi.

3. Predmet raqobati – bu raqobatda bir-xil tovar ishlab chiqarishlar oʻrtasidagi faqat sifati bilan farqlanuvchi raqobat turi hisoblanadi. Bu farq umuman boʻlmasligi mumkin yoki minimal boʻlishi mumkin. Raqobatning ushbu turi qoidaga koʻra raqobatning strategiyasini ishlab chiqarishga eʼtiborini qaratadi. Predmet raqobati juda qattiq boʻlishi mumkin. Chunki ishlab chiqarishlar raqobatchining bozordagi ulushiga kurashadi. Bular turlicha boʻlishi mumkin. Narxdan tortib reklamagacha shuningdek, shavqatsiz raqobatgacha boʻlishi mumkin.

Xarajatlar yoʻnalishi boʻyicha F. Kotler 4 ta turini koʻrsatib beradi.

Mazmunan ehtiyojni qondirish shakliga oʻxshash boʻladi.

1. Savdo markalari raqobati;

2. Tarmoq raqobati;

3. Formal raqobat;

4. Umumiy raqobat.

Savdo markalari raqobati – oldingi klassifikatsiyadagi predmet raqobatchiga oʻxshash boʻlib hisoblanadi. Bu koʻproq bir-xil ishlab chiqarish, oʻxshash tovarlar va bir-xil maqsadga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishlar oʻrtasida kuzatiladi.

Formal raqobat – turli xil tovar ishlab chiqarishlar oʻrtasidagi raqobat boʻlib, bitta va oʻsha ehtiyojni qondirishga yoʻnaltirilgan. Oʻz oʻrnida funksional raqobatga toʻgʻri keladi.

Umumiy raqobat – bu raqobatda tadbirkorlik faoliyati subyektlari barchasi oʻrtasidagi kuzatiladi.

Taʼsir qilish usullari boʻyicha:

1. Narxli raqobat;

2. Narxsiz raqobat.

Narxli raqobat – xaridorlarni oʻziga narx usuli orqali jalb etishda foydalaniladi. Bu raqobatning turi amalga oshirilgan raqobatga mos keladi. Bugungi kunda narxli raqobat juda kam tarqalgan. Chunki iqtisodiyotning hozirgi rivojlangan bosqichida narxning pasayishi yuqori natijalar bermaydi va firmani bozorda shunaqa strategiya qoʻllab lider qilolmaydi. Narxsiz raqobat – narxni pasaytirish yordamida emas balki boshqa omillar hisobiga kurash olib borishni talab etadi.

Raqobat ijtimoiy nuqtayi nazardan maqbul hodisa, lekin, ayrim hollarda, xoʻjalik subyektlariga bozor ishtirokchilari sonini cheklash yoki birgalikda narxlarni koʻtarish boʻyicha raqiblar bilan kelishishga ham yoʻl ochish mumkin.

8.3. Raqobatli ustunlik va raqobatbardoshlik

Hozirgi davrda xalqaro savdo nazariyasida raqobatda ustunlikka erishish, uni ushlab turish muammosi birinchi o'rinda turadi. Jahon bozorida peshqadamlilikni qo'ldan bermaslik uchun yuqori sifatli mahsulotlarni taklif qilish va baholi raqobatga bardosh berish qurbiga ega bo'lish kerak. Raqobatli ustunlik – tovar yoki markaning firmaga o'zining bevosita raqobatchilariga nisbatan ma'lum bir afzallik beradigan xarakteristikasi va xususiyatlaridir. Bu xarakteristikalar (atributlar) g'oyatda xilma-xil bo'lishi va tovarning o'ziga (asosiy xizmatga) ham, asosiy xizmatga qo'shimcha xizmatlarga, ishlab chiqarish, savdo shakllariga ham taalluqli bo'lishi, hamda firma yoki tovarga xos bo'lishi mumkin. Demak, bunday afzallik nisbiy bo'ladi va tovar bozorida yoki bozor segmentida eng yaxshi mavqega ega bo'lgan raqobatchiga nisbatan belgilanadi.

8.3.1-jadval

Raqobat ustunligini tanlash holati

Raqobat ustunligini tanlashning ikkita holati	
Birinchisi – firma faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqning tuzilishi	Ikkinchisi – bu firma tarmoq doirasida egallangan (pozitsiya)
Turli tarmoqlardagi raqobat mohiyati bir-biridan keskin farqlanadi va turli tarmoqlarda uzoq muddat davomida foyda olish ehtimoli bir xil emas	Ba'zi pozitsiyalar tarmoqdagi o'rtacha foydalilikdan qat'iy nazar, boshqalariga qaraganda foydaliroq. Bu holatlardan har biri o'zicha strategiyani tanlab olish uchun yetarli emas

Raqobatchining nisbiy afzalligi turli omillar bilan belgilanadi. Umumiy olganda, bu omillarni ular vujudga keltiradigan ichki va tashqi afzalliklardan kelib chiqqan holda ikki keng toifaga ajratish mumkin

Agar raqobatli afzallik tovarning ajralib turuvchi sifatlariga asoslangan bo'lsa, u "tashqi" afzallik deb ataladi, bu sifatlar xarajatlarning qis-

qartirilishi yoki samaradorlikning oshirilishi hisobiga xaridor uchun qiymatli bo'ladi.

Binobarin, tashqi raqobatli afzallik firmaning "bozor qudratini" oshiradi, ya'ni u bozorni imtiyozli raqobatchidagiga nisbatan yuqoriroq sotish narxlarini qabul qilishga majbur qila oladi, chunki imtiyozli raqobatchi bunday ajralib turuvchi sifatlarni taklif eta olmaydi. Tashqi raqobatli afzallikdan kelib chiqadigan strategiya differensiya strategiyasi bo'lib, bu strategiya firmaning marketing sohasidagi "nou-xau" siga, uning mavjud tovarlardan norozi bo'lgan xaridorlarning istaklarini aniqlash va qondirishdagi afzalligiga tayanadi. Agar raqobatli afzallik firmaning ishlab chiqarish xarajatlari, firmani boshqarishdagi afzalligiga yoki raqobatchidan ko'ra kamroq tannarxga erishishga imkon beruvchi va "ishlab chiqaruvchi uchun qiymat" hosil qiluvchi tovarga asoslangan bo'lsa, bunday afzallik "ichki afzallik" deb ataladi. Ichki raqobatli afzallik – firmaga ko'proq rentabellik keltiruvchi va uni sotuv narxlarining bozor yoki raqobat tomonidan pasaytirilishiga ko'proq darajada bardoshli qiluvchi yuqoriroq "unumdorlik" oqibatidir. Ichki raqobatli afzallikka asoslangan strategiya xarajatlar bo'yicha afzallik strategiyasi bo'lib, u asosan firmaning tashkiliy va ishlab chiqarish "nou-xau" siga asoslanadi. Raqobatli afzallikning kelib chiqishi va tabiati turlicha bo'lgan bu ikki turi ko'pincha, bir-biriga to'g'ri kelmaydi, chunki ular mutlaqo farq qiluvchi ko'nikma va madaniyatni talab qiladi.

Raqobatbardoshlikni tahlil qilishning vazifasi strategik xulosalar chiqarish va ustuvor maqsadlarni belgilash uchun firmaga shu o'qlarda joylashishga imkon berishdan iboratdir. "Bozor kuchi" o'qidagi o'rinni tanlash uchun avvalgi boblarda ko'rib chiqilgan markaning imijini tadqiq qilishda olingan ma'lumotlardan foydalanish kerak. Bu tadqiqotlar bozor qabul qiladigan qiymatni o'lchash va narx bo'yicha egiluvchanlikni baholashga imkon beradi. "Unumdorlik"ni tahlil qilishda tajriba egri chizig'idan kelib chiqish yoki "bozorni razvedka qilish" xizmati ma'lumotlarini hisobga olish lozim, bu xizmat raqobatchilar ustidan kuzatuv o'rnatish vazifasini bajaradi. M.Porterning ta'kidlashicha, firmalarning raqobat jihatdan ustunliklari va mamlakatning iqtisodiy o'sishi darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, o'z navbatida, monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirish va raqobatni rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu masala

1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatini cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilib o'tilgan.

Qonunda asosan ikki maqsad ko'zlangan:

Birinchisi – monopol hokimiyatga ega bo'lgan korxonalar tomonidan bozordagi yakka hokimlik mavqeyini suiste'mol qilmaslik va uni oldini olishni, oldingisidan tubdan farq qiluvchi yangi qonunni ishlab chiqish;

Ikkinchisi – bu har bir sohada monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini yaratishdir.

Subyektning o'z ustun mavqeyini suiste'mol qilishi keng tarqalgan monopolistik faoliyat turlaridan biridir. Ustun mavqe «Tovar bozorlari monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida berilgan. Unga ko'ra «Ustun mavqe – o'rmini bosuvchi bo'lmagan tovar bozorida yoki bir-birininig o'rmini bosadigan tovarlar bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga raqobatni cheklashga hal qiluvchi ta'sirni ko'rsatish, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirish erkinligini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan hukmron mavqedir. Bozordagi ulushi 65% yoki undan ortiq foizni tashkil etadigan xo'jalik yurituvchi subyektning mavqei ustun mavqe deb e'tirof etiladi».

Lekin, bozordagi ulushi 65% va undan ham ortiq bo'lgani bilan uning mavqeyi ustun deb e'tirof etilmasligi mumkin. Buning uchun subyekt raqobatga salbiy ta'sir, ya'ni faoliyat yuritayotgan boshqa tadbirkorlarga salbiy ta'sir ko'rsatmayotganligini asoslab berishi lozim.

Bozordagi ulushi 35% dan 65% gacha bo'lgan subyekt ustun mavqega ega bo'lmaydi. Biroq monopoliyaga qarshi organ tomonidan mazkur holat ustun mavqe deb e'tirof etilishi ham mumkin. Bunda tadbirkorning bozordagi ulushining barqarorligi, bozordagi raqobatchilarga tegishli ulushlarning miqdori, mazkur bozorga yangi raqobatchilarning kira olishlari va boshqa mezonlar inobatga olinadi. 35% gacha bo'lgan ulush ustun mavqe holatini keltirib chiqarmaydi.

Ustun mavqeni belgilab beruvchi darajada ko'rsatkichlar turli davlatlarda turli xildir. Bu bevosita shu davlat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkichlar 10% dan 30% gacha qilib belgilab qo'yilgan. Bu bevosita shu davlatlarda

raqobatning rivojlanganligidan hamda monopolistik faoliyatni yo'qligidan yoki kam darajada ekanligidan dalolat beradi.

Makrodarajadagi raqobatbardoshlikni baholash. Mamlakatning raqobatbardoshligi erkin va halol raqobat sharoitida mamlakatning jahon bozori talablarini qondiruvchi tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. Mamlakatning raqobatbardoshlik ko'rsatkichi, birinchi galda mamlakatning jahon bozoridagi mavqeiini tavsiflovchi, shuningdek, tovar va tovar ishlab chiqaruvchining hamda tarmoqning raqobatbardoshligini birlashtiruvchi umumiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Mezodarajadagi raqobatbardoshlikni baholash. Firmaning raqobatbardoshligini baholash. Iqtisodiyotni globalashtirish va baynalmilallashtirish davrida uning samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot talabgirlikining yagona mezoni bo'lib raqobatbardoshlik hisoblanadi. Hozirgi vaqtda "raqobatbardoshlik" tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emas. Ushbu tushuncha talqinlarining ko'p bo'lishi ehtimolini belgilab beruvchi asosiy omillar – bu iqtisodchilarning turli xil boshlang'ich pozitsiyalari hamda ishlab chiqaruvchi sifatida faqat alohida korxonalar, tarmoq yoki butun iqtisodiyotning ko'rib chiqilishidir. Raqobatbardoshlik – nisbiy tushuncha, chunki bir turdagi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlashuvchi tovar boshqa bozorlarda umuman raqobatbardosh bo'lmaydi. Bu hol tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshlikni chegaralash zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, raqobatbardoshlik sohasida umumiy konsepsiyani shakllantirish uchun mazkur holatning barcha tomonlarini hisobga olish lozim. Biroq qator mamlakatlar tajribasiga ko'ra ichki bozordagi raqobat xalqaro raqobatning asosi hisoblanadi.

Raqobat munosabatlari uchta bosqichda amalga oshiriladi:

- mahsulot, ishlab chiqarish va korxonaning muayyan mikro turlari;
- mezotarmoqlar, korxonalarning tarmoq korporativ birlashmalari va gorizontal integratsiyalashgan firmalar;
- tarmoqlararo integratsiyalashgan makroiqtisodiy majmualar.

Har qanday sanoat firmasi, har qanday tovar ishlab chiqaruvchi u tashkil etilgan vaqtdan boshlab va butun faoliyati davomida o'zi uchun zarur bo'lgan raqobatbardoshlik muammolarini hal etishiga to'g'ri keladi. Jahonning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyoti jahon xo'jaligi

aloqalariga jalb etilgan, milliy bozor va uning talablari esa jahon bozori va xalqaro raqobatbardoshlikning faol ta'siri ostida shakllanadi.

O'zi uchun yangi hisoblangan bozorga kirib borish, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki uni qisqartirish, texnologik jihozlarni modernizatsiya qilish, yoxud ishlab chiqariladigan mahsulotni yangilash maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishda, albatta, ishlab chiqaruvchi yoki korxonaning raqobatbardoshligini baholash talab etiladi. Tadbir-korlik muhiti tomonidan raqobatbardoshlikning eng muhim omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: Ichki bozorda raqobatning jadalligi, axborot infratuzilmasining rivojlanishi, talab xususiyatlarining murakkablashuvi va ichki taklifning miqdor va sifat bo'yicha talabga mosligi. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari va bozor institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonlari bo'yicha orqada qolish O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Bunga barham berishda innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirishga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak asosiy rolni o'ynashi mumkin.

8.4. Raqobat ustunliklari strategiyasi

Raqobat ustunligiga deyarli har doim muvaffaqiyatli hujumkor strategik harakatlar hisobiga erishiladi. Ustunlikka erishishni ta'minlash uchun muvaffaqiyatli hujumkor strategiyaga qancha vaqt talab etilishi tarmoqdagi raqobat tavsifiga bog'liq. Ustunlikni ta'minlash vaqti qisqa bo'lishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi kabi, murakkab texnologik jarayonli kapital talab etadigan tarmoqlardagi kabi ancha davomli bo'lishi ham mumkin. Ideal darajada sozlangan harakatlar miqyosi ancha katta bo'lgan (masalan, yangi qimmatbaho dorining patentiga farmatsevtikada ega bo'lish sezilarli ustunlikni ta'minlaydi) yoki uncha katta bo'lmagan (masalan, tikuvchilik sanoatida. Bunda kiyimlarning yangi modadagi fasonlari osongina o'zlashtirilishi mumkin, nusxa ko'chirish orhali) raqobat ustunligini yaratishi mumkin. Muvaffaqiyatli hujumdan so'ng "mevalarning samarasini" ko'rish davri keladi. Bu davrning davomiyligi esa raqiblarga yo'qotilgan pozitsiyalarni qaytarib olish uchun hujumga o'tishga qancha vaqt kerak bo'lishiga bog'liqdir. Raqiblar firma yaratgan ustunlikka qarshi jiddiy qarshi hujum boshlashlari bilan uning yemirilishi boshlanadi. Egallangan mavqeyini saqlab qolish uchun firma ikkinchi strategik hujumni amalga oshirishi kerak. Uning fundamentini esa raqobatchi ustunlikka erishish maqsadida

kurashni kuchaytirgan paytlarida hujumga o'tishga tayyor turish uchun "mevalarni samarasini" ko'rish davrida ko'rib qo'yish kerak bo'ladi. Raqobat ustunligini saqlab turish uchun firma raqiblardan bir bosh baland bo'lishi kerak. Bozordagi o'zining pozitsiyasini mustahkamlash uchun ketma-ket strategik hujumlar uyushtirishi va xaridorlarning moyilligini saqlab turishi lozim. Firmaning tashqi raqobat ustunliklariga quyidagilar kiradi:

- mamlakat raqobatbardoshligining yuqori darajasi;
- kichik va o'rta biznesning davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi;
- mamlakat iqtisodiyoti faoliyat ko'rsatishining sifatli huquqiy tartibga solinishi;
- jamiyat va bozorlarning ochiqligi;
- mamlakat iqtisodiyotini boshqarishning yuqori ilmiy darajasi;
- standartlashtirish va sertifikatlash milliy tizimining xalqaro tizim bilan uyg'unlashuvi;
- fan va innovatsiya faoliyatining davlat tomonidan tegishli qo'llab-quvvatlanishi;
- mamlakatni boshqarishni axborot bilan ta'minlashning yuqori sifati;
- mamlakat ichida va jahon hamjamiyati doirasida integratsiyalashuvning yuqori darajasi;
- mamlakatda past soliq stavkalari;
- qulay va arzon resurslarning mavjudligi;
- mamlakatda boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlashning sifatli tizimi va boshqalar.

Firmaning ichki raqobat ustunliklariga quyidagilar kiradi:

- tovarga bo'lgan yuqori ehtiyoj;
- jamlash, ixtisoslashuv va kooperasiyaning optimal darajasi;
- boshqaruvning yuqori sifatli axborot va me'yoriy-uslubiy asosi;
- yetkazib beruvchilarning raqobatbardoshligi;
- sifatli xomashyo va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- resurslardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish ishlari bajarilishi;
- tub yangiliklarning yuqori darajasi (patentlangan tovar, texnologiyalar, axborot tizimlari va h.k.);

- menejerlarning raqobatbardoshligi;
- tovarning eksklyuzivligi;
- ko'p ilm talab qiluvchi tovarlar eksportining yuqori ulushi;
- raqobatbardosh tashkilotlar va tovarlarning yuqori salmog'i va boshqalar.

Firmaning raqiblardan ustunlikka ega bo'lishi uchun hujumlar strategiyasini qo'llash yaxshi samara beradi.

Hujumkor strategiyaning oltita asosiy turi ajratiladi:

- raqobatchining kuchli tomonlariga qarshilik ko'rsatish yoki ular-dan o'zib ketishga qaratilgan harakatlar;
- raqobatchining zaif tomonlaridan foydalanishga qaratilgan hara-
katlar;
- bir nechta frontlarda bir vaqtda hujumga o'tish;
- egallanmagan bo'shliqlarni egallash;
- partizan urushi;
- zarbalar.

F. Kotler firmaning bozordagi ulushidan kelib chiqqan holda raqobatchilik strategiyasini 4 ta turga ajratib ko'rsatadi:

- lider strategiyasi;
- kurashga chaqiruvchi strategiya;
- lider orqasidan boruvchi strategiya;
- mutaxassis strategiyasi.

Odatda lider bu asosiy bozorni rivojlantirishga katta hissa qo'shuv-
chi firmadir. Liderning javobgarligini aniqlovchi eng tabiiy strategiya
bo'lib, yangi iste'molchilarni egallashga, mavjud tovarlarni qo'llashda
yangi tashviqotga yoki tovarlarni bir marta iste'molini o'stirishga
yo'naltirilgan global talabni kengaytirish strategiyasi bo'lib hisoblanadi.

Lider strategiyasi - bu bozor liderining strategiyasi bo'lib, u orqali
korxonada raqobat kurashida qo'lga kiritgan yutuqlarini,
pozitsiyalarini (masalan, bozorda katta ulushni saqlab qolish, mahsulot
markasini obro'sini ko'tarish, tovar harakati kanallari ustidan nazoratni
saqlab qolish)ga intiladi.

Mudofaa strategiyasi - bu bozor sardori tomonidan o'zining bizne-
sini raqobatchilar tajovuzidan doimo himoya qilish maqsadida tanlana-
digan strategiyadir. Mudofaa strategiyasining quyidagi turlari
mavjuddir: pozitsiyali mudofaa, qanot mudofaasi, mudofaa qayta

hujumga o'tish yo'li bilan, mobil mudofaa va qisilib qolayotgan mudofaa.

Hujum strategiyasini qo'llash natijasida firma bozorda o'z ulushini oshirishga harakat qiladi. Bunday maqsad tajriba samarasini keng ishlatish hisobiga rentabellikni oshirishdan iboratdir.

Demarketing strategiyasi esa bozor liderining to'rtinchi strategiyasi bo'lib, lider firma monopolizmga ayblanishdan qochish uchun bozordagi o'z ulushini qisqartirishni ko'rib chiqishi mumkin. Unga erishish yo'llarini bittasi ko'rsatilayotgan xizmatlarni, reklama va talabni rag'batlantirish maqsadida qisqartirish, ayrim segmentlarda narxni oshirish hisobiga talab darajasini pasaytirish maqsadida demarketing tamoyillarini qo'llash hisoblanadi.

"Kurashga chaqiruvchi" strategiyasining maqsadi - lider o'rmini egallashdir. Bu yerda 2 ta muammo muhim hisoblanadi:

- liderga hujum qilish uchun vaziyatni tanlash;
- uning imkoniyatlarini va himoyasini baholash.

Hujum strategiyasi - bu raqobat strategiyasi bo'lib, u bozor da'vogari tomonidan sotuv bozorlarini egallash kurashida qo'llaniladi.

Raqobat ustunligini himoya qilish uchun mudofaa strategiyalaridan foydalanish ham mumkin. Raqobat bozorlarida barcha firmalar raqobat-chilar uyushtiradigan hujumlarning obyektlari bo'lishi mumkin. Hujumlar xuddi eski, amaldagi firmalar tomonidan bo'lganidek, yangi firmalar tomonidan ham bo'lishi mumkin. Himoyaviy strategiyaning maqsadi hujumga uchrash xavfini kamaytirish yoki ularni eng kam yo'qotish bilan o'tkazib yuborish. Himoya strategiyasi kompaniyaning raqobat ustunligini kuchaytirmasa ham, raqobat pozitsiyasi atrofida mudofaa inshootlarini tashkil etish va raqobat ustunligini saqlab qolish imkonini beradi. Kompaniyaning raqobat strategiyasi - bu biznesga yondashuv va mijozlarni jalb qilishga qaratilgan tashabbuslar, kompaniyaning bozordagi pozitsiyani mustahkamlash uchun olib boradigan kurashidan iborat. Bozordagi raqobatni urushga o'xshatish mumkin. Bu urushda raqiblar yarador bo'lishi, zarar ko'rishi mumkin. Bunda faqat eng yaxshi strategiya g'alaba qozonadi. Kompaniyaning raqobat strategiyasi hujumkorlik va mudofaa harakatlarini, qisqa muddatli taktik va uzoq muddatli harakatlarni o'z ichiga oladi.

Bozordagi raqobatchilar nechta bo'lsa raqobatchilik strategiyasining variantlari va ko'rinishlari shuncha bo'ladi. Biroq ularning turi

qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning o'xshashliklari topiladi. Strategiyaga yondoshishning keng tarqalgan 5 ta varianti mavjud bo'lib ular quyida keltirilgan:

1. Xarajatlar bo'yicha ilg'orlik strategiyasi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda to'la xarajatlarini pasaytirishni ko'zda tutadi. Bu esa ko'p sonli xaridorni jalb qiladi.

2. Keng tabaqalashtirish strategiyasi. Kompaniya tovarlariga raqobatchi firmalar tovarlaridan farq qildiradigan o'ziga xos chizgilarni berishga qaratilgan. Bu ham xaridorlarni jalb etishga yordam beradi.

3. Optimal xarajatlar strategiyasi. Xaridorlarga past xarajatlar va mahsulotni keng tabaqalashtirishni uyg'unlashtirish hisobiga kimmatli tovar olish imkoniyatini beradi. Asosiy vazifa uxshash tovarni ishlab chiqaruvchilarga nisbatan optimal xarajat va past baholarni ta'minlashdan iboratdir.

4. Fokuslangan strategiya. Bunda strategiya past xarajatlarga asoslangan bo'lib, xaridorlarning tor segmentiga yo'naltiriladi. Bunda firma o'z raqobatchilaridan ancha past baholar hisobiga o'tib ketadi.

5. Ifodalangan strategiya yoki mahsulotni tabaqalashtirishga asoslangan bozor uyasi strategiyasi. Uning maksadi - tanlangan segmentlar namoyondalarini ularning did va talablariga yanada to'laroq javob beradigan tovar va xizmatlar bilan ta'minlashdir. Shuningdek, raqobat ustunligini himoya qilishning bir qancha yo'llari mavjud. Ulardan biri – raqobatchilar harakatlarini boshlashlari uchun xalal berish.

Bunday yondashuv quyidagi asosiy qadamlarni ko'zda tutadi:

- bo'sh bozor uyalarini to'ldirish uchun mahsulot nomenklaturasini kengaytirish;

- raqobatchilar ega bo'lgan yoki ega bo'lishi mumkin bo'lgan modellar va mahsulotlar sortlarini ishlab chiqish;

- pastroq narxlarda raqobatchilarning mahsulotlariga yaqin modellarni taklif etish;

- raqobatchilarni vositachi va distribyuterlarning taqsimlash tarmog'idan siqib chiqarish uchun ular bilan shartnomalar imzolash;

- vositachilar va distribyuterlar boshqa ta'minotchilar bilan aloqa bog'lashlariga halal berish uchun ularga sezilarli chegirmalarni kafolatlash;

- iste'molchilarni bepul yoki past narxlarda o'qitishni taklif etish;

- o‘z mahsulotiga iste‘molchilar talabini saqlab qolish uchun choralar ko‘rish;
- kreditga sotish hajmlarini oshirish;
- butlovchi qismlar yetkazib berish vaqtini qisqartirish;
- muqobil texnologiyalarni patentlash;
- xususiy “nou-xau”larni himoyalash;
- eng yaxshi ta‘minotchilar bilan eksklyuziv kontraktlar imzolash;
- raqobatchilarni yaqinlashtirmaslik uchun xom ashyolarni katta hajmlarda sotib olish;
- raqobatchilar bilan ishlaydigan ta‘minotchilardan voz kechish;
- tovarlar va raqobatchilar harakatlarni doimo nazorat qilib turish;
- himoyaviy strategiyaga bo‘lgan ikkinchi yondashuv raqobatchilarga ularning harakatlari javobsiz qolmasligi va kompaniya hujumga tayyor ekanligini yetkazib turishdan iborat.

Himoyaviy strategiyaga bo‘lgan ikkinchi yondashuv raqobatchilarga ularning harakatlari javobsiz qolmasligi va kompaniya hujumga tayyor ekanligini yetkazib turishdan iborat. Raqobatchilarning hujumkor harakatlariga qarshilik ko‘rsatishning boshqa yo‘li raqobatchilarni o‘ziga jalb etadigan va ularni hujumkor harakatlarga undaydigan foydani kamaytirishga urinishdan iborat. Firmaning foydaliligi qanchalar yuqori bo‘lsa, bu boshqalar uchun o‘ziga jalb etadigan «xo‘rak» vazifasini o‘taydi va hujumkor harakatlar qilish istagini tug‘diradi. Bunday sharoitda kompaniya hisob mexanizmlari yordamida himoyalaniishi mumkin.

Vertikal integratsiya strategiyasi va raqobat ustunligi

Kompaniya mablag‘larini vertikal integratsiyaga investitsiya qilishning asosiy sababi uning raqobat pozitsiyasining kuchayishidir. Agar vertikal integratsiya kompaniya xarajatlarini sezilarli darajada pasayishiga yoki qo‘shimcha raqobat ustunligiga erishishga olib kelmas ekan, u strategik hisoblanmaydi va unga mablag‘ sarflashning foydasi yo‘q. «Orqaga» integratsiya shundagina xarajatlarni pasayishiga olib keladiki, unda ishlab chiqarishning talab etiladigan hajmi shu darajada yuqori bo‘ladiki, u xuddi ta‘minotchilardagi kabi ishlab chiqarish miqyoslarida shunday tejamkorlikni ta‘minlaydi. «Oldinga» vertikal integratsiya ham ana shunday ildizlarga ega.

Vertikal integratsiyaning kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

2) Ko'paytirish, rentabellik darajasini oshirish. Bu maqsadga talabni oshirish, shuningdek ishlab chiqarish va taqsimot harajatlarini turli narx darajalarida baholaydigan va kelajakda maksimal foyda olish, daromadlilikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish bilan erishiladi. Buning natijasida rentabellik oshadi va ko'payadi, shu jumladan investitsiyalarni jalb qilish kompaniyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.



10.3.1-chizma Narx o'rnatishdagi fikrlar

Iste'molchiga asoslangan holda narx belgilash shuni anglatadiki, narx barcha elementlar singari, eng avval, o'rganib chiqiladi shundan so'ng esa marketing dasturi tuziladi. Kompaniya eng avvalo iste'molchilar ehtiyojlarini o'rganib chiqadi, shundan so'ng esa olingan ma'lumotlar asosida mahsulotga narx o'rnatiladi. Kompaniyalar uchun iste'molchining fikrini mahsulot narxiga ta'sirini o'rganib chiqishi qiyin kechadi. Misol uchun, agar siz restoranda ovqatlansangiz ovqat tarkibidagi elementlardan kelib chiqqan holda uning bahosini hisoblashingiz oson lekin lazzatlanish, dam olish atrof muhit,

suhbatlashish kabi omillar hisobga olinsa bu jarayon qiyin kechadi. Lekin, shunga qaramasdan marketologlar ushbu omillarning ham narxga ta'sirini o'rnatishga harakat qiladi. Iste'molchi fikriga asoslangan holda narx belgilashning ham 2 turini ko'rib o'tish mumkin:

- iste'molchi uchun qulay narx belgilash
- mahsulot iste'mol qiymatini oshirish.

2008–2009-yillardagi iqtisodiy inqiroz davridan so'ng ko'plab kompaniyalar o'z mahsulotlariga past darajada narx belgilash orqali sotish hajmini oshirdilar. Bunga ushbu davrda Walmart va Mercedes Benz kabi kompaniyalar qo'llagan narx strategiyasini misol qilish mumkin.

Iste'mol qiymatini oshirish orqali narx belgilashda esa asosiy e'tibor mahsulot sifatini oshirishga va sotib olish hamda undan keyingi xizmatlar darajasini oshirishga qaratiladi. Shu bilan birga mahsulot narxi ham yuqori qilib belgilanadi. Bugungi kunda umumiy elektr energiyaning 20 foizi yoritish tizimi uchun ishlatiladi va ko'plab joylarda elektr energiyasi yetishmovchiligi kuzatiladi. Shulardan kelib chiqqan holda Filips kompaniyasi o'zining yuqori sifatli elektr energiyasini tejoychi yorituvchi lampalarini taklif qiladi.

Xarajatga asoslanib narx belgilash. Ushbu strategiyada kompaniya ishlab chiqarish, sotish va yetkazib berish kabi xarajatlardan kelib chiqqan holda, mahsulot narxini belgilaydi. Agar mahsulot uchun ketadigan xarajatlar qanchalik past bo'lsa past, narx belgilash imkoni paydo bo'ladi va bu orqali yuqori sotish hajmiga erishish mumkin bo'ladi. Apple va BMW kabi kompaniyalar xarajatlari yuqori darajada ekanligi sababli ularning mahsulotlari narxi ham yuqori bo'ladi.

Xarajatlarning quyidagi turlari mavjud. O'zgarmas xarajatlar–mahsulot hajmiga bog'liq bo'lmagan va o'zgarmasdan qoladigan xarajatlar. Bularga ijara ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmagan xodimlarga ish haqi, amortizatsiya kabilarni kiritish mumkin. O'zgaruvchan xarajatlar – ishlab chiqarish hajmi bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar. Masalan, xodimlarga ish haqi, xomashyo uchun xarajatlar foyda solig'i kabilar o'zgaruvchan xarajatlar hisoblanadi. O'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi umumiy xarajatlarni tashkil qiladi.

O'rtacha xarajatlar plyus foyda tamoyili bo'yicha narx belgilash tovarning tannarxiga ma'lum ustama qo'yishdan iborat bo'lib narx belgilashning eng oddiy usuli hisoblanadi

Kompaniya xarajatlari quyidagicha berilgan bo'lsin:

O'zgaruvchi xarajatlar	10
O'zgarmas (doimiy) xarajatlar	300000
Kutilayotgan sotish hajmi	50000


Toasterning bir birligini ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatlar quyidagicha berilgan:

Bir birlik xarajat = o'zgaruvchi xarajat + (o'zgarmas xarajat)/(sotish hajmi) = $10 + 300000/50000 = 16$.

Faraz qilaylik, ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotiga 20% ustama qo'yishni xohlaydi mahsulot narxi quyidagicha belgilanadi:

Mahsulot narxi = (Bir birlik xarajat)/((1-ustama qiymati)) = $16/(1-0.2) = 20$ bundan kelib chiqadiki, korxonaning bir birlik mahsulotdan ko'radigan foydasi 4 birlikka teng.

Ko'zlangan foyda normasi olishni ta'minlaydigan narx belgilash usulini qo'llaydigan ishlab chiqaruvchilar oldindan ta'minlaydigan narx belgilash usulini qo'llaydigan ishlab chiqaruvchilar oldindan sarf etilgan kapital uchun muayyan qaytim foiz olishga intiladilar. Bu usul o'rtacha solishtirma xarajatlarni hisoblashga asoslanadi.



10.3.2-chizma. Zararsizlik va maqsadli foyda tahlili usuli bo'yicha narxni aniqlash

Narxni chegaraviy xarajatlar bo'yicha belgilash usulini qo'llash bilan firma mahsulotning qo'shimcha hajmi birligini bu mahsulotni ishlab chiqarishning alohida qiymatida sotadi, bu holda xarajatlarning

faqat bir qismi qoplanadi, foyda amalga oshmaydi. Narx belgilashning ushbu strategiyasi agar firma ishni to'xtatish xavfi ostida qolgan sharoitda foyda berishi mumkin.

Raqobatga asoslangan holda, narx belgilash strategiyasida raqobatchilarning strategiyasi, mahsuloti narxi bozordagi ulushi kabilar hisobga olinadi. Agar iste'molchi kompaniya mahsulotining naflliligini raqobatchilarning mahsuloti naflliligiga qaraganda yuqori baholasa kompaniya mahsulotiga yuqori narx o'rnatishi mumkin, lekin iste'molchi kompaniya mahsuloti nafllilik darajasini raqobatchinikiga qaraganda past baholasa, raqobatchinikiga qaraganda pastroq narx belgilash orqali iste'molchi e'tiborini o'z mahsulotiga qaratishi mumkin. Kompaniyaning asosiy maqsadi raqobatchilar mahsuloti narxiga bog'langan holda narx belgilash emas, agar kompaniya mahsulot naflliligini oshirsa o'z-o'zidan narx ham oshadi.

Bu grafikda yalpi daromad, foyda va jami xarajatlarning sotiladigan mahsulot hajmiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Keltirilgan chizma ma'lumoti shundan dalolat beradiki, doimiy xarajatlar 300000 so'mga teng bo'lib, sotiladigan mahsulot hajmiga bog'liq emas. O'zgaruvchan xarajatlar doimiy xarajatlarga qo'shilib jami xarajatlarni tashkil qiladi va uning miqdori sotiladigan mahsulot hajmiga qarab o'zgarib turadi. Yalpi daromad egri chizig'ining tikkaligi tovar narxiga bog'liq bo'ladi. Bizning misolimizda tovar birligining narxi 20 so'mga teng. Bunday narxda zararsizlikni ta'minlash uchun korxonada eng kamida 30000 tovar birligini sotishi kerak. Shuncha miqdordagi tovar birligining har birini 20 so'mdan sotib, korxonada 600000 so'm tushumga ega bo'ladi. Ana shu ko'rsatkich zararsizlik nuqtasiga mos keladi. Maqsad qilib qo'yilgan foydaga erishish uchun korxonada sotish hajmini oshirishi zarur. Bizning misolimiz bo'yicha korxonada 200 ming so'm foyda olishi uchun eng kamida 50 ming tovar birligini sotishga erishishi kerak bo'ladi.

10.4. Narx siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish

Narx har doim xaridorning tanlovini hal qiluvchi omil bo'lib kelgan. Bu hanuzgacha kambag'al mamlakatlar uchun, aholining kam ta'minlangan qatlamlari orasida iste'mol tovarlari kabi mahsulotlarga nisbatan odatiy holdir. Ammo so'nggi paytlarda narx omillari, xususan, sotishni rag'batlantirish, turli xil mijozlar uchun tovarlar va xizmatlarni taq-

simlashni tashkil qilish iste'molchilar tanlovida yanada aniq aks eta boshladi. Marketologlar bir qator har xil narxlarni tadqiq etadilar, so'ngra har bir narx uchun zaruriy hajmlar qiyoslanadi. Raqobat narx siyosatida muhim barometr bo'lib xizmat qiladi. Korxonalarining narx siyosati narx belgilash maqsadlari va uslublariga bog'liq bo'lgan to'rt bozor tipini ajratish mumkin: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopolistik raqobat, sof monopoliya. Narx siyosatining uchta asosiy maqsadi bor:

- omon qolishni ta'minlash;
- foydani ko'paytirish;
- bozorni ushlab turish.

Asosan, narxni o'zgartirish yo'li bilan talabga ta'sir ko'rsatish raqobatning narx bilan bog'liq usullarini yaratadi. Narx bilan bog'liq bo'lmagan raqobat usullarida firmalar o'z mahsulotining o'ziga xos xislatlariga zo'r beradi, mahsulot sotish, tovarlar harakati, reklama, mahsulotni joylash, servis kabi marketing qismlariga katta e'tibor beradi.

Bozorda narx uchta guruh omil natijasida shakllanadi:

1. Talab omillari (bozorda o'xshash tovarlar mavjudligi va ularga bo'lgan narxlar, bozorga kirish, xaridorlar daromadlari, xaridorni talablari, talabga yo'naltirilgan narx).

2. Xarajat omillari (ishlab chiqarish xarajatlari, marketing xarajatlari, foyda).

3. Raqobat omillari (tarmoqdagi firmalar soni, aynan o'xshash import tovarlari, raqobatchilar tovarlariga bo'lgan narxni bilish).

Asosiy narxni belgilash uslubi quyidagilardan iborat:

- narxlashtirish masalasi qo'yiladi;
- talab aniqlanadi;
- xarajatlar baholanadi;
- raqobatchilar tovari va narx tahlil qilinadi;
- narxni shakllantirish uslubi tanlanadi;
- oxirgi natijaviy narx o'rnatiladi.

Firma talabga asoslanib, xarajatlarning miqdorini belgilab, raqiblar narxlarini o'rganib, o'z mahsulotlariga narx belgilashga kirishadi. Bunda narx belgilashning turli usullaridan foydalanish mumkin.

Marketingda narx qarorlarining ahamiyati quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- narx talab darajasi va sotish hajmini belgilaydi;
- narx biznesning rentabelligini belgilaydi (foyda, qaytarish muddati);
- narx mahsulotning umumiy idrokini belgilaydi (joylashish, tovar imiji);
- narx - raqobatdosh mahsulotlarni taqqoslash uchun qulay asos;
- marketingning boshqa tarkibiy qismlari narxga mos kelishi kerak (masalan, mahsulotni ilgari surish xarajatlari).

Narxlar matritsasini yaratish kerak: bir xil mahsulotni bir nechta segmentlar uchun ishlab chiqarish, yani, arzon, o'rtacha va qimmat baholarda bo'lishi lozim. Bu esa, bitta mahsulot turini sotganingizdan yaxshiroqdir. Agar, sizning eng qimmat mahsulotingiz sotilmasa, uni olib tashlash yoki narxni pasaytirishga shoshilmang. Ehtimol, u tufayli kam xarajat qiladigan narsa sotilayotgani uning sharafidir. Ma'lumki, agar odamga birinchi navbatda u ega bo'lmagan qimmatbaho uy-joyini namoyish qilsa u uchun odatiy kvartiraga pul berish oson kechadi.

E'tibor bering, har xil turdagi mijozlar mavjud. Mahsulot bitta mijoz uchun juda qimmat bo'lishi mumkin, ammo boshqasi uchun qimmat va sifatli emas. Shuning uchun narxni belgilashda bunday jarayonlarni e'tiborga olish kerak. Masalan, 3990 - bu jozibali narx. Ammo agar ko'proq 9 sonlari bo'lsa, masalan 3999 u istemolchini qo'rqitishi mumkin. Narx yorliqlari va bukletlardagi raqamlar yordamida xaridorlarning e'tiborini jalb qilishingiz mumkin. Ta'kidlanishicha, 199 so'mlik narxi 200 so'mlik narxdan ko'ra jozibali.

Mijozlarni to'rt turga ajratib tahlil qilamiz:

eng yuqori toifaga eng ko'p pul sarflaydigan eng boy mijozlar kiradi. Bularga birinchi navbatda sifat, xizmat, vaqt va obro' kerak;

ikkinchi toifa eng yaxshi narx sifat nisbatlarini solishtiradi. Ushbu odamlar narx, sifat, ishonchlilik, xizmatga e'tibor berishadi;

uchinchi tur eng arzon narx bilan qiziqadilar. Ular narx, miqdor va sifatga e'tibor berishadi;

eng quyi toifaga hamma narsani bepul, ya'ni bepul olishni istagan mijozlar kiradi.

Birinchi toifa nima haqida shikoyat qiladi? Narx va sifat uchun. Ikkinchi? Yuqori narx, sifat va xizmat. Arzonni sevuvchilar narxdan shikoyat qilmoqdalar, ikkinchisi esa bonuslar yo'qligidan shikoyat qiladilar va hammasi bu qimmat deb aytadi. Qancha va kimga sotmas-

lingingizdan qat'iy nazar, odamlar siz uchun qimmat bo'lgan mahsulotingizdan shikoyat qilishadi. Bunga qarshi kurashish foydasiz! Shuning uchun bu e'tirozni tabiiy deb qabul qiling. Siz shunchaki bunday shikoyatlarga standart javob berishingiz kerak. Masalan: "Ha, bizda haqiqatdan ham past narxlar yo'q, lekin biz kafolat beramiz: agar natija bermasa biz yuz foiz pulni qaytaramiz. Agar mijoz bu qimmat deb aytsa, nega bu arzon emasligini tushuntirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Biznes egasi, ehtimol, darhol tushuntirishga qodir, ammo ko'pchilik sotuvchilar buni tushunmaydilar. Ular yoddan o'rganishlari kerak bo'lgan iborani yozishlari kerak. Iste'molchi uchun eng yaxshi narx nolga yaqin narx deb o'ylash mutlaqo to'g'ri emas. Iste'molchilar tovarlarni ularning muammolari va ehtiyojlarini ushbu tovarlar yordamida hal qilish uchun sotib oladilar. Mahsulotlarning xususiyatlari va afzalliklari iste'molchilarga ma'lum bir mahsulot bilan bog'liq muammolarni hal qila olishlarini tushunishga imkon beradi. Iste'molchilar muammoni hal qilish uchun maksimal narxdan oshmagan narxda to'lashga tayyor agar iste'molchilar juda zarurligini bilib narxni oshirsangiz ular o'rinbosar tovarlarni izlashni boshlaydi. Iste'molchi to'lashga tayyor bo'lgan narx ishlab chiqaruvchi uchun narx chegaralarini belgilaydi. Agar siz narxni yuqoridan belgilasangiz, narx ortiqcha bo'ladi va talabni cheklaydi. O'zi uchun maqbul narxda kompaniya barcha xarajatlarni to'laydi va kerakli daromad darajasini oladi. Biroq, raqobat yoki talabning egiluvchanligi tufayli bunday narxlarni belgilash har doim ham mumkin emas. Shuning uchun, siz minimal narxni hisoblashingiz kerak.

Korxonaning narx siyosatining maqsadlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- uzoq muddatli yoki qisqa muddatli foydani ko'paytirish;
- iqtisodiy o'sish; bozorni barqarorlashtirish;
- iste'molchilarning narxlarga nisbatan sezgiriligini pasayishi;
- narxlarda yetakchilikni saqlash;
- potensial raqobat xavfining oldini olish;
- savdo sadoqatini saqlash;
- kompaniya mahsulotlari imijini yaxshilash;
- xaridorning ortib borayotgan qiziqishi;
- assortimentning bozor mavqeini mustahkamlash;
- bozorning ustun mavqeini egallash.

Korxonada o'z imkoniyatlaridan va maqsadlaridan kelib chiqib, quyida keltirilgan narx strategiyalaridan foydalanadi.

Yetakchi orqasidan yurish strategiyasi. Narxlarning bozor darajasi bozorda harakat qilayotgan yirik korxonalarining soni va ularning narx strategiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitda kichik korxonalar narx jihatidan yetakchi bo'lgan korxonalarining ta'sirida bo'ladi. Demak, bu yerda korxonada narxlashtirishning yetakchi orqasidan yurish strategiyasini qo'llashi foydadan holi emas. Albatta, yetakchi vaziyatni egallab turgan korxonada maqsadga muvofiq narx belgilashga harakat qiladi. **"Qaymog'ini olish" strategiyasi.** Agar korxonada marketing imkoniyatlaridan samarali foydalanib, yangi tovarining noyob, yagona xususiyatlarga ega ekanligini ajratib ko'rsata olsa, shuningdek, tovar sotishning va ishlatishning yaxshiroq seriyasini ta'minlansa, unda bu korxonada raqobatchilarga nisbatan narx belgilashda ma'lum erkinliklarga ega bo'ladi. Bu strategiyani qo'llagan holda, kompaniya tovarlar birligi uchun mumkin bo'lgan katta daromadni va sotishning umumiy hajmidan eng katta foyda olishni xohlaydi, buni quyidagi holatlarda amalga oshirish mumkin:

- bozorda ilgari surilayotgan yangi mahsulot to'g'risida umuman hech qanday ma'lumot yo'q va xaridorlar ("yangilarini sevuvchilar") baribir uni yuqori narxda sotib olishni xohlaydilar;
- hozirgi kunda bozorga yangilik nuqtayi nazaridan o'xshash mahsulotni taklif qila oladigan raqobatchilar yo'q.

Natijada korxonada o'z tovarlariga yuqori darajadagi narxni belgilaydi. Bu strategiya, ko'pchilik holda, korxonada yangi tovar ishlab chiqarish va bu tovarni bozorga kiritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini iloji boricha tezroq qoplash zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Yuqori narxlar strategiyasi. Marketingda ushbu strategiya yuqori narxlar strategiyasi deb ataladi. Bu yuqori sifatli tovarlarga uzoq vaqt davomida yuqori narxlarni belgilashni ta'minlaydi. Ushbu strategiya "obro'li" narxlarga ega bo'lgan va mahsulot sifati va o'ziga xosligiga katta ahamiyat beradigan xaridorlarga qaratilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. "Qaymog'ini olish" strategiyasi yuqori narxlar strategiyasiga tegishli. Yangi mahsulot bozorga chiqarilganda yuqori narxni belgilashni ta'minlaydi. Ushbu strategiyaning maqsadi - ushbu mahsulot katta ahamiyatga ega bo'lgan xaridorlar guruhidan imkon qadar tezroq foyda olish va mahsulotni yuqori narxda sotib olishga tayyor bo'lgan

xaridorlarning doirasi borligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina mumkin. Biroz vaqt o'tgach, ushbu bozor segmenti to'yinganida, kompaniya boshqa bozor segmentlarini rivojlantirishga o'tish uchun zanjirni asta-sekin kamaytiradi. Yuqori narxlar strategiyasidan yangi mahsulot bilan kelajakka ishonchsiz bo'lgan firmalar ham foydalanadilar. Yuqori narxlar strategiyasi ko'pincha firmalar tomonidan tovarlarni, ularning narxlarini va narxlarning bosqichma-bosqich maqbul darajaga yaqinlashishini sinash uchun ishlatiladi. Agar yuqori narx savdo, foyda jihatidan juda past natijalarga olib keladigan bo'lsa, u holda savdo natijalari uning xohish-istaklariga mos kelmaguncha kompaniya tanlab narxni tushiradi.

"Yorib o'tish" strategiyasi. Bu strategiya, ko'pincha, ishlab chiqarish texnologiyasi juda oddiy va ommabop iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotni bozorga kiritishda qo'llaniladi. Bunda tovar bozorga juda past narxda chiqariladi, bozorni egallashi bilan normal darajaga qaytadi. Ayniqsa, bu strategiyani korxonalar raqobatchilarga nisbatan katta hajmdagi mahsulotni bozorga kiritishi mumkin bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

"Kirib borish" strategiyasi. Bu strategiya past narxlar orqali yangi bozorga tez kirib borish uchun ishlatiladi. Mazkur strategiya talabning yuqori elastikligi vaziyatida yuqori samara beradi.

"Batamom foydalanish" strategiyasi. Bu strategiyaning asl mohiyati, yangi tovarlarni bozorga kiritish bosqichida, sotiladigan tovarlarning hajmi kam bo'lganda ularga juda yuqori narx belgilashdan iboratdir. So'ngra bu narx bozorning va raqobatchilarning o'sishi bilan kamayib boradi.

"Korxonaning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan narx" strategiyasi. Korxonalar narxlashtirishda bu strategiyani qo'llash uchun mamlakatning ichki va tashqi bozorida narxlashtirishning xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Shularni o'rganib aniq bozor sharoitlariga bog'liq holda o'ziga xos narx siyosatini tanlashi mumkin bo'ladi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Narx deganda nimani tushunasiz?
2. Narxga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
3. Narxlashtirishni maqsadlari nimalardan iborat?

4. Yuqori narx strategiyasi qanday o'ratiladi?
5. Past narx strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Bozorda narx qanday omillar natijasida shakllanadi?
7. Tovarni hayotiylik sikli davomida mahsulot narxi qanday o'ratiladi?
8. Yorib o'tish strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
9. Narx nimaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, qanday funksiyalarni bajaradi?
10. Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati qanday narxlarni vujudga keltiradi?

11-MODUL. SOTISH SIYOSATI

11.1. Savdo nazariyasi va uning rivojlanishi

Marketingning eng muhim va ajralmas tarkibiy qismi mahsulotni sotish va taqsimlash hisoblanadi. Bu jarayonda tashkiliy nuqtayi nazardan eng murakkab vazifa – ishlab chiqarilgan mahsulotni iste'molchiga yetkazish masalasi hal etiladi.

Savdo odatda katta miqyosdagi tovarlar va xizmatlar almashinuvi bilan bog'liq. U mamlakatda yoki xalqaro savdoda faoliyat yuritadigan huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va texnologik tizimlarni o'z ichiga oladi.

Savdo tovarlar yoki xizmatlarni bir shaxs yoki firmadan ikkinchisiga pul evaziga o'tkazishni talab qiladi. Savdoning dastlabki shakli, barter bo'lib, boshqa tovarlar va xizmatlar uchun bevosita tovarlar va xizmatlar almashinuvida o'z ifodasini topadi. Savdo ixtisoslashuvi va mehnat taqsimoti tufayli mavjud bo'lib, individual va guruhlar ishlab chiqarishining kichik jihatlariga e'tibor qaratadigan, boshqa mahsulotlar va ehtiyojlar uchun savdolarda o'z mahsulotlaridan foydalanadigan asosiy iqtisodiy faoliyat shakli.⁷⁰ Turli xil mintaqalarda mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarishdagi qiyosiy ustunlik sabab mintaqa yoki hududlar o'rtasida savdo mavjuddir.

Bugungi kunda savdo, bozorning mahsulotlarini va xizmatlarini eng arzon narxlarda taklif qilish orqali o'z daromadlarini maksimal darajada oshirishga harakat qiladigan murakkab tizimlar qatoriga kiradi.

Shu paytga qadar yuzaga kelgan barcha xalqaro savdo nazariyalari xalqaro savdoni erkinlashtirish barcha mamlakatlar uchun foyda keltiradi degan fikrni ilgari suradi. Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning mutloq ustunlik nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan mamlakat mutloq ustunlikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa

⁷⁰ Dollar, D; Kraay, A (2004). "Trade, Growth, and Poverty" (PDF). *The Economic Journal*. 114 (493): F22–F49. CiteScerX 10.1.1.509.1584. doi:10.1111/j.0013-0133.2004.00186.x.

tovarlarni sotib oladi. Chunki bu tovarlar ularni ishlab chiqarishda mutloq ustunlikka ega bo'lgan davlatlarda ancha arzon ishlab chiqarilgan bo'ladi. Natijada har ikki davlat ham kam resurs sarflab ko'proq mahsulotga ega bo'ladi.

D.Rikardo, A.Smitning «Mutloq ustunlik» nazariyasini yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi. D.Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» nomli asarida klassik nazariyani boshi berk ko'chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mamlakatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda yoki ko'proq ustunlikka ega bo'lgan yoki ustunlikka ega bo'lmagan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o'zi ixti-soslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi.

Uning mulohazalari "Nisbiy ustunlik nazariyasi"da o'z yechimiga ega bo'ldi.

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlarni (30-yillar) ko'rsatish mumkin. E.Xeksher va B.Olinlar «Ishlab chiqarish omillariga bog'liq holda narxlarni tenglashishi» qoidasini oldinga surgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste'moldagi o'zgarishlar kabi omillarga bog'liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan:

- Mamlakatlar o'zlarida ortiqcha bo'lgan ishlab chiqarish omilini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o'zlarida taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar.
- Xalqaro savdo yo'lidagi cheklashlar bekor qilinsa tovarlarning turli mamlakatlardagi tannarxning tenglashishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi.
- Mahsulotlar eksporti o'rnini asta sekin ishlab chiqarish omillari eksporti egallaydi.

Agar mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o'rtasidagi nisbat boshqa mamlakatdagiga nisbatan yuqori bo'lsa, shu omil bu mamlakatda nisbatan ortiqcha deb hisoblanadi.

Xeksher-Olin konsepsiyasiga asosan tashqi savdo quyidagi ko'rishlarga ega: Faraz qilaylik, bir vaqtda ikki mamlakat, ya'ni «sanoatlashgan» va «agrar» mamlakat faoliyat ko'rsatmoqda.

Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma'lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha yer mavjud, ammo kapital yetishmaydi.

Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapital talabchan ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakatlar aynan ushbu yo'nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don yetishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda ko'proq yer resurslari kerak bo'ladi va ular shu yo'nalishga ixtisoslashgan bo'ladilar.

Xeksher – Olin konsepsiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar 50-yillarda «Leontev paradoksi» yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. V.Leontev AQSH kapitali ortiqcha bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan, 1947-yilda kapital talabchan emas, balki mehnat talabchan mahsulot eksport qilganligini ko'rsatib berdi, ya'ni, Xeksher-Olin konsepsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. Keyingi tadqiqotlar esa AQSHda kapitaldan ko'ra yer va ilmiy texnik mutaxassislar nisbiy ortiqcha ekanligi tasdiqlandi. AQSH ishlab chiqarilishida aynan shu omillar ko'proq foydalaniladigan tovarlarning sof eksportyori bo'lib chiqdi.

1948-yil amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V.Stolperlar Xeksher-Olin konsepsiyasini takomillashtirishdi. Ularning nazariyasi bo'yicha xalqaro savdo – ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasidan notekislik, texnologiyalarining bir-biriga mosligi, raqobatning rivojlanishi va mahsulotlarning harakatchanligi kabi sharoitlarda mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish omillari narxlarini tenglashadi.

D.Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelson hamda V.Stolperlar tomonidan to'ldirilgan savdo konsepsiyasiga nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro foydali savdoni yo'lga qo'yish, balki mamlakatlar rivojlanishi o'rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi. Shuningdek, M.Pozner, G.Xufbauer va R.Vernon tadqiqotlari ham nisbiy ustunlik nazariyasini yana bir bor tasdiqladi. Ular ishchi kuchi nisbatan qimmat turadigan mamlakatlarda ilg'or texnologiyaga asoslangan mehnat talab mahsulot ishlab chiqarish

baribir daromadli bo'ladi, degan xulosaga kelishdi. Masalan, mehnat talab sintetik gazlamalarni dastlab faqat ilmiy-texnikaviy salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlardagina ishlab chiqarish mumkin edi. So'ng- ra, bu texnologiyani o'zlashtirilishi va keng yoyilishi tufayli sintetik gazlamalarni ishlab chiqarish ishchi kuchi arzon bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga ham ko'cha boshladi. Buning natijasida G'arb ilmiy-texnikaviy omil tufayli o'zi ega bo'lgan nisbiy ustunlikni qo'llay boshladi. M.Porter o'z tadqiqotlari natijasida mamlakat tarmoqlari va firma- larining raqobat ustunligini belgilovchi omillarni ikki guruhga bo'ladi:

1. Asosiy omillar:

- zarur sifatga ega va yetarlicha miqdordagi ishlab chiqarish omillarining mavjud bo'lishi;
- mamlakat ichida mazkur tarmoq mahsulotiga bo'lgan talabning xususiyatlari, uning sifat va miqdor xarakteristikalarini;
- mamlakatda ushbu tarmoqqa yo'ldosh va uni ta'minlab turuvchi, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlarning mavjudligi;
- firmaning strategiyasi, shuningdek ichki bozordagi raqobat xarakteri.

2. Qo'shimcha omillar:

- tasodifiy hodisalar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat faoliyati.

Mahsulot eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, mam- lakat ichida qulay biznes muhitini yaratish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona bojlarining pasaytirilishi, subsi- diyalar va imtiyozli kreditlar berish, boshqa xalqaro shartnomalar tuzish orqali milliy korxonalarining chet mamlakatlardagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish kabi tadbirlar ularning raqobat ustunliklarini oshi- rishga xizmat qiladi.

11.2. Chakana savdo, ulgurji savdo, vositachini tanlash va sotish tarmog'ini shakllantiruvchi omillar

Chakana savdo so'zi fransuzcha "tailler" kesish, bo'lish, bo'laklarga ajratish kabi ma'nolarni anglatadi (1365-yil). Birinchi marta 1433-yilda "kichik miqdorda sotish" ma'nosida qo'llanila boshladi. Chakana savdo xizmatlarini ko'rsatish bank, sayyohlik, sug'urta, xususiy sog'liqni saq-

lash, xususiy ta'lim, xususiy xavfsizlik firmalari, yuridik firmalar, no-shirlar, jamoat transporti va boshqalarni o'z ichiga oladi. Iste'mol tovarlarini tarqatish kanalining yakuniy darajasi chakana aloqa hisoblanadi. Chakana savdo - bu tovarlar va xizmatlarni bevosita iste'molchilarga sanoat uchun emas, balki shaxsiy iste'mol uchun sotadigan tadbirkorlik faoliyatining barcha turlari. Ko'p ishlab chiqarish korxonalari, ulgurji savdo, xizmat ko'rsatish korxonalari va boshqalar chakana savdo bilan shug'ullanadi. Biroq, chakana savdoning asosiy qismi chakana sotuvchilarga to'g'ri keladi. Chakana savdo - bu asosiy ish chakana savdo bilan shug'ullanadigan tashkilot yoki shaxs.

Chakana savdoning asosiy qismi chakana savdo do'konlari va do'konlardan tashqarida chakana savdo orqali amalga oshiriladi, unga to'g'ridan-to'g'ri marketing, avtomatlar orqali to'g'ridan-to'g'ri sotish va sotish kiradi. Chakana savdoni tashkil etishning ko'p asrlik tajribasi barcha turdagi chakana savdo do'konlarining shakllanishiga olib keldi. Jahon savdo amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan chakana savdo do'konlarining turlari qisqacha tavsiflanadi. Chakana savdo do'konlari har xil turdagi va o'lchamlarda bo'ladi va har xil mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Taqdim etilayotgan xizmatlar darajasiga ko'ra, ular o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlariga, cheklangan xizmat ko'rsatish do'konlariga va to'liq xizmat ko'rsatish do'konlariga bo'linadi. Taqdim etilayotgan mahsulotlar assortimentini chakana savdo do'konlarini tasniflash uchun ishlatish mumkin. Ixtisoslashgan do'konlar tor doiradagi turli xil mahsulotlarni taklif qiladi. Masalan, kiyim do'konlari, sport buyumlari do'konlari, mebel do'konlari, gul do'konlari va kitob do'konlari. Savdo do'konlarida bir nechta assortiment guruhleri taklif etiladi - odatda kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari. Har bir assortiment guruhini univermagning maxsus bo'limi olib boradi. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish do'konlarida xaridorlar mustaqil ravishda sotuvchilarning xizmatlaridan foydalanmasdan ularni turli ishlab chiqaruvchilarning tovarlarini taqqoslash asosida tanlashga va bu ularga arzon narxlarda tovar sotib olish imkoniyatini beradi. Cheklangan xizmat ko'rsatish do'koni xaridorga mahsulot haqida ma'lumot kabi xarid qilishda yordam beradigan do'konidir. Qo'shimcha xizmatlarni, masalan, kreditni taqdim etish mumkin. To'liq xizmat ko'rsatish do'koni xaridorga sotib olish jarayonining har bir bosqichida yordam berish, shu jumladan tovarlarni qaytarib berish, kredit berish, tovarlarni bepul yetkazib berish, uy xiz-

matlarini ko'rsatish va shu kabilar bilan tavsiflanadi, bularning barchasi yuqori narxlarga olib keladi. Taklif qilinayotgan assortimentga arab, chakana savdo do'konlari ixtisoslashgan do'konlar, universal do'konlar, supermarketlar, bojxona do'konlari, super do'konlar, kombinatsiyalashgan do'konlar, gipermarketlarga bo'linadi.

Ixtisoslashgan do'kon har xil mahsulot guruhlari bilan ajralib turadi, ammo har bir mahsulot guruhida boy assortimentga ega. Savdo do'koni turli xil mahsulotlar guruhlari bilan ajralib turadi, ularning har biri tovarlarni sotib olish va sotish bo'yicha mutaxassis boshchiligidagi ixtisoslashtirilgan do'konda sotiladi.

Supermarket – bu o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning yirik do'koni bo'lib, u yuqori savdo hajmi, arzon narxlar va past rentabellik bilan tavsiflanadi. Kombinat do'kon bu dorixona bilan oziq-ovqat do'konining kombinatsiyasi bo'lib o'rtacha hajmi bir yarim futbol maydonchasiga teng. Gipermarket oltita futbol maydonchasining o'lchamiga yetadi va supermarket, chegirma do'koni, turli xil do'konlar, chakana savdo do'koni; O'zlari sotib olgan tovarlarni, masalan mebellarni yuklaydigan va tashiydigan xaridorlarga chegirma narxlari amal qiladi. Biroq, do'konning katta o'lchamlari ma'lum mijozlar uchun to'siq bo'lib qoladi. Narxlar darajasiga qarab, chakana savdo do'konlarini chegirma do'konlariga, narxlarni pasaytiradigan do'konlarga va katalog do'konlariga ajratishadi. Chegirma do'koni muntazam tovarlarni nisbatan past narxlarda sotadi, bunga kam foyda va yuqori savdo orqali erishiladi.

Katalog do'koni taniqli brend nomlari bilan yuqori sifatli tez o'zgaruvchan mahsulotlarni arzon narxlarda taklif etadi. Mijozlar katalogdan mahsulotlarni tanlaydilar, odatda buyurtma shakllarini to'ldiradilar va omborxonalarda xarid qiladilar. Tovarlar odatda ofis binolarida saqlanadi va namoyish qilishda juda cheklangan. Bunday do'konlar o'zlarining xarajatlarini iloji boricha kamaytirishga harakat qiladilar, past rentabellik bilan qoniqishadi, bu esa sotishning katta hajmiga hissa qo'shadi. Mulkchilik va boshqarish nuqtayi nazaridan chakana savdoning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

Chakana savdo firmalari quyidagi mezonlarga ko'ra farqlanadi:

- xizmat ko'rsatish darajasi
- tovar assortimenti kengligi darajasi
- mahsulot narxlar darajasi
- firmaning tarkibiy tuzilishiga ko'ra

Chakana savdo korxonalari xizmat ko'rsatish darajasiga ko'ra:

- o'z o'ziga xizmat ko'rsatuvchi
- cheklangan xizmat ko'rsatuvchi
- to'liq xizmat ko'rsatuvchi korxonalariga bo'linadi.

O'z o'ziga xizmat ko'rsatuvchi chakana savdo korxonalarida xaridor tovarni tanlashda unga maslahat berilmaydi va mahsulotni xaridorning o'zi tanlab sotib oladi. Cheklangan xizmat ko'rsatuvchi chakana savdo korxonalarida esa xaridorga mahsulot sotib olish borasida turli takliflar beriladi va bu, o'z navbatida, mahsulot bahosining oshishiga olib keladi. To'liq xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda mahsulot sotib olish jarayonidagi barcha ishlar korxonadan tomonidan bajariladi xaridor esa takliflardan kelib chiqib faqat o'ziga ma'qul bo'lgan mahsulotni tanlaydi.

Taklif qilinadigan tovarlar assortimentiga ko'ra chakana savdo korxonalari:

- ixtisoslashgan savdo korxonalari
- univerval savdo korxonalari
- supermarketlar va boshqa turlarga ajraladi.

Boshqaruv shakliga ko'ra esa chakana savdo korxonalari kooperativ savdo korxonalari franchayzingga asoslangan savdo korxonalariga ajratish mumkin.

Korporativ chakana savdo korxonalari bu bitta subyekt tomonidan egalik qilinuvchi bir qancha savdo korxonalari tizimi hisoblanadi. Ushbu korxonalar o'z faoliyatini amalga oshirishda narx belgilash, reklama, merchandayzing, inventarlarni boshqarish, faoliyatni prognozlashtirish kabi jarayonlarda yollanma mutaxassislar xizmatidan foydalanishlari mumkin. Iste'mol kooperativi – bu chakana savdo do'konlari bo'lib, iste'molchilarni o'zi boshqaradi (ko'proq oziq-ovqat bozorida). Xizmat ko'rsatish darajasi sotayotgan tovar turiga bog'liq. Kundalik talabdagi tovarlar uchun o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish; avvaldagi tanlov tovarlari uchun chegaralangan xizmat ko'rsatish; yuqori tovarlarga to'liq xizmat ko'rsatiladi, bu o'z ichiga xaridorga yordam sifatida axtarish, solishtirishni, tanlashni, turli savollar bilan maslahat berishni oladi.

Tovar harakatining umumiy yagona zanjirida chakana savdoning texnologiya jarayonlari muhim halqa hisoblanadi. Chunki xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish korxonasidan iste'molchilarga yetkazib berish jarayonida tovarlarni tanlash va aholining shu tovarlarga o'sib

borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun eng zarur shart-sharoitlar xuddi ana shu chakana savdo korxonalarida yaratilishi lozim. Aholiga savdo xizmati ko'rsatishning sifati, ya'ni savdo madaniyati chakana savdodagi texnologiya jarayonlarini, ayniqsa, tovar sotishni tashkil etish darajasiga bog'liqdir, shu sababli chakana savdo korxonalarining butun savdo operativ faoliyati shu vazifaga bo'ysundiriladi.

Franchayzing – bu savdo qilish usulining zamonaviy shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda franchayzing firmasi, franchayzer firmasining tovar markasi, nomlanishi va reklamasidan foydalanib, tovarni ishlab chiqarish, taqsimlanishi, sotish va taklif etilishida bevosita qatnashadi. AQSHda chakana savdoning 50% qismi franchayzing tizimi orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda chakana savdoda tovar sotishning quyidagi usulari qo'llaniladi:

- tovarni peshtaxta orqali sotish
- tovarni xaridor o'ziga-o'zi xizmat qiladigan usulda sotish
- tovarni ochiq yoyib qo'yib sotish
- tovar namunalari ko'rsatib sotish
- tovarni aholining buyurtmasiga muvofiq sotish.

Tovarni peshtaxta orqali sotish – tovar sotishning odatdagi usuli bo'lib, unda xaridorlarga xizmat qilish jarayonining deyarli hamma asosiy elementlari, chunonchi: tovarlarni ko'rsatish va uning assortimenti bilan tanishtirish, hisob-kitob qilish va haqi to'langan tovarni topshirish ishlarini peshtaxta yonida turgan sotuvchi bajaradi.

Xaridorlar o'ziga-o'zi xizmat qilishi asosida tovar sotish usulida savdo maydoni devorlari yoniga yoki o'rtasiga terib qo'yilgan hamma tovarlar yoniga xaridorlar bemalol borib, mustaqil tanlab olib, inventar korzinalar yoki aravachalarga o'zlari solishlari mumkin, tovarning haqi do'kondan chiqaverishdagi yagona hisob-kitob joyida to'lanadi.

Tovarni ochiq yoyib qo'yib sotishda xaridorlar sotuvchining ish joyiga bemalol borib mustaqil tanishishlari, sotuvchining maslahati va yordami bilan o'zlariga kerakli tovarni tanlab olishlari mumkin.

Xaridorlar o'ziga-o'zi xizmat qiladigan usulda bo'lgani kabi tovarlarni ochiq yoyib qo'yib sotishda ham tovarlar savdo zaliga sotish uchun to'la tayyor holda chiqariladi.

Tovarlarning namunalari ko'rsatib sotish usuli sharoitida xaridor savdo maydoniga qo'yilgan namunalarga qarab o'ziga kerakli tovarlarni mustaqil ravishda yoki sotuvchi yordamida tanlaydi, uning haqini to'la-

gandan keyin tegishli tovarni bevosita do‘kondan oladi yoki qo‘shimcha xaq evaziga uyiga yetkazib berishga buyurtma beradi. Ana shu usulni katta hajmdagi – mebel, sovitgich, kir yuvish mashinasi, tikuv mashinasi, elektr yoritgich, gazlamalar sotishda tashkil etish mumkin.

Tovarni aholining buyurtmasiga muvofiq sotish usulida xaridor o‘ziga kerakli tovarga do‘konning buyurtma bo‘limida yoki sanoat korxonasi, qurilish, muassasa, dala shiyponi, istiqomat joyida tashkil etilgan buyurtma qabul qilish joyida oldindan buyurtma beradi. Bu tovar do‘kondan olinadi yoki buyurtmachining uyiga yoxud buyurtmada ko‘rsatilgan boshqa joyga yetkazib beriladi. Barcha oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda hamda murakkab assortimentdagi tovarlarni qishloq aholi punktlarida joylashgan va kundalik talab qilinadigan tovarlar bilan savdo qiladigan do‘konlar orqali sotishda ana shu usulni qo‘llash mumkin.

Savdoning ilg‘or usullaridan biri savdo avtomatlari orqali savdo qilish hisoblanadi. Savdo avtomatlari savdoning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi, ya‘ni savdoda iste‘mol xarajatlarini kamaytirish, iste‘molchi hukmron bo‘lgan sharoitda muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi sharoitda zamonaviy dizaynga ega bo‘lgan savdo avtomatlaridan foydalanish muhim masala hisoblanadi.

Ulgurji savdo o‘z ichiga mahsulotlarni qayta sotish yoki iqtisodiy manfaat ko‘rish maqsadida sotish va sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Ulgurji savdo korxonalari mahsulotni ishlab chiqaruvchidan sotib oladi va uni ko‘proq chakana savdo korxonalari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa ulgurji savdo korxonalariga sotadi va natijada so‘nggi iste‘molchilarga chakana savdo korxonasi noma‘lumligicha qolaveradi.

Ulgurji savdo ahamiyati quyidagichadir:

- chakana savdoga ishlab chiqarish firmalarning tor assortimentini kengaytirib taklif etadi;
- katta hajmda tovar sotib olib, muomala xarajatlarini kamaytiradi;
- yuqori malakali tovarshunos va marketologlar bilan tovarlar bozorini chuqur o‘rganadi;
- tovarlarni saqlaydi va kerakli tovar zaxiralarini shakllantiradi;
- ishlab chiqaruvchilar va chakana savdo o‘rtasida mustahkam aloqa bog‘laydi, ularga moliyaviy yordamlashadi va boshqalar.

Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilarni uch guruhga ajratish mumkin:

- ulgurji savdo bazalari
- broker va agentlar
- ishlab chiqaruvchi korxonalarining o'z sotuv bo'limlari.

Ulgurji sotuvchilar chakana sotuvchilardan juda katta farq qiladi.

Birinchiidan, ulgurji sotuvchilar reklama xizmatiga kamroq jalb qilinadi, ular o'zlarining muassasalari atmosferasi va joylashuvi bilan unchalik qiziqmaydi. Ikkinchiidan, ulgurji savdo bitimlarining hajmi odatda katta va ularning soni chakana savdoga qaraganda kamroq. Uchinchiidan, hukumat ulgurji va chakana savdoni tartibga solishda turli xil yondashuvlarga ega, bu qonunchilik va soliqlarda o'z aksini topgan.

Ulgurji savdoning 50%dan ko'prog'i ulgurji savdo bazalari tomonidan amalga oshiriladi. Ulgurji savdo bazasi mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi, maxsus ombor xo'jaligiga va malakali xodimlarga ega bo'lgan firma mavqeida ishlaydi. U tovar assortimentlarini qabul qilish, saqlash va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonini tashkil etadi. Ulgurji savdoni tashkil etishda tovarlar bazalari orqali yoki ularning topshirig'i bilan ishlab chiqarishdan to'g'ridan to'g'ri iste'molchi firmaga (tranzit usuli) yetkazib berilishi mumkin.

Tovar birjalarini ulgurji savdo faoliyatining bazalaridan farqi, ular tovarlarni sotib olish va qayta sotish bilan shug'ullanmaydi, ombor xo'jaliklari ham yo'q, ular faqat vositachilik qiladilar. Agent va brokerlar vositachilik ishini bajaradilar, ammo, moddiy javobgarlikni bo'yinlariga olmaydilar. Agentlar ishlab chiqarish firmalarida va ulgurji savdo bazalarida ishlashadi. Agent uzoq muddatli asosda xaridor yoki sotuvchini ifodalaydi. Agentlarning bir nechta turlari mavjud. Ishlab chiqaruvchi agentlar bir-birini to'ldiruvchi tovarlarning ikki yoki undan ortiq ishlab chiqaruvchilarini anglatadi. Ular har bir ishlab chiqaruvchi bilan narxlar, faoliyatning hududiy chegaralari, buyurtma berish tartiblari, yetkazib berish xizmatlari va komissiya narxleri bo'yicha chizmaiy shartnomalar tuzadilar. Vakolatli tarqatish agentlari ma'lum bir ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish huquqini olgan ishlab chiqaruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar. Vakolatli savdo agenti ishlab chiqaruvchining savdo bo'limi bo'lib xizmat qiladi va narxlarga, sotish shartlariga va shartlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xarid qilish agentlari odatda o'z mijozlari bilan uzoq mud-

datli munosabatlarni shakllantiradilar va ular uchun zarur tovarlarni sotib oladilar, ko'pincha ushbu tovarlarni qabul qiladilar, sifatini tekshiradilar, saqlashni tashkil qiladilar va belgilangan joyga yetkazib beradilar. Brokerlar tovar birjalarida asosiy o'rinni egallaydilar. Brokerlar joyi birjada tanlov asosida sotiladi, ular bir tomondan birjadan, ikkinchi tomondan, o'z faoliyatlari uchun haq oladilar.

Diler – mustaqil kichik vositachi tadbirkor bo'lib, oldi-sotdi ishlari bajaradi va moddiy javobgarlikka ega.

Xalqaro tovar muomalasida umumiy hajmning yarmidan to uchdan ikki qismiga savdo vositachilari to'g'ri keladi. AQSH, Angliya, Gollandiya, Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlarining tashqi savdosida savdo vositachilari xizmatidan keng foydalaniladi. Tashqi iqtisodiyot faoliyat sohasida savdo vositachilaridan foydalanish sanoat firmalari uchun muayyan afzalliklar yaratadi.

Savdo vositachilaridan foydalanishning muhim afzalligi shundaki, sanoat firmasi mahsulot eksporti bilan shug'ullanganda importer mamlakat hududida savdo shaxobchalarini tashkil etish xarajatlarini tejaydi, chunki vositachi firmalar odatda o'z moddiy - texnika bazalariga omborxonalar, namoyish zallari, ta'mirlash ustaxonalari va boshqalarga ega bo'ladi. Yana bir afzallik shundan iboratki, vositachilar ishlab chiqaruvchilarni tovar harakati, tovarni sotish bilan bog'liq juda ko'p tashvishlar (mahsulotni yetkazib berish, saralash, joylash, turli xillarga ajratish, eksport qilinganda mahalliy bozorga moslashish va boshqalar) dan ozod qiladi.

Uchinchi bir afzallik – qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlash asosida bitimlarni moliyalash vositachi kapitalidan foydalanish. Bu holda vositachilarning banklar, transport hamda sug'urta kompaniyalari bilan barqaror ishbilarmonlik aloqalari katta ahamiyatga ega.

Nihoyat, savdo vositachilari ayrim bozorlarga to'la hokimlik qilib olgan hollarda ham uchraydi. (Masalan, Angliya brokerlari tomonidan) va bu bozorlarga iste'molchilar bilan bevosita aloqa qilish foydalanish zaruriyatiga aylanadi. Ammo sotishni vositachilar orqali olib borish ham bir qator kamchiliklarga ega, chunki ishlab chiqaruvchi sotish bozorlari bilan bevosita aloqa o'rnatilgan olmaydi, umuman vositachining vijdon va haq so'zligiga bog'liq bo'lib qoladi. Sanoat agenti muayyan joylarda o'zaro raqobatda bo'lmagan bir qancha sanoatchilar tovarlarni sotish bilan shug'ullanadilar. Aksariyat hollarda savdo agentlari kommivoya-

jerlar deb yuritiladi. Ulgurji sotuvchilar bir qator marketing qarorlarini qabul qilishlari kerak. Maqsadli bozor qarori. Ulgurji sotuvchilar o'zlarining maqsadli bozorlarini aniqlashlari kerak. Ulgurji sotuvchi mijozlarining maqsadli guruhini, hajmi, xizmatlarga qiziqishning jiddiyligi va boshqa mezonlar asosida tanlashi mumkin. Maqsadli guruh ichida ulgurji sotuvchi eng foydali xaridorlarni aniqlab, ular bilan yaqin aloqa o'rnatishi mumkin.

Mahsulot turi va xizmat turlari to'g'risida qaror. Ulgurji sotuvchining "mahsuloti" u taklif etadigan assortimentdir. Ulgurji sotuvchilar tovarlarning assortiment guruhlarini aniqlaydilar, o'zlari uchun faqat eng foydali mahsulot guruhlarini tanlaydilar, qaysi xizmatlar mijozlar bilan eng yaqin munosabatlarni o'rnatishga yordam berishini hal qiladilar. Rag'batlantirish usullari to'g'risidagi qaror rag'batlantirish majmuasining asosiy elementlarining kombinatsiyasini tanlashni o'z ichiga oladi. Ko'pgina ulgurji sotuvchilar hali rag'batlantirish to'g'risida ko'p o'ylamaydilar, shuning uchun reklama, sotishni targ'ib qilish, targ'ibot va shaxsiy sotish texnikasidan foydalanish ko'pincha kamdan-kam uchraydi. Korxonaning joylashgan joyi to'g'risida qaror. Ulgurji sotuvchilar odatda o'z bizneslarini kam ijaraga oladigan, soliqlari kam bo'lgan hududda joylashadilar va minimal xarajatlarni sarflaydilar binolarni obodonlashtirish va jihozlash uchun mablag'lar. Ko'tarilayotgan xarajatlarga qarshi kurashish uchun ular faoliyatning yangi usullarini ishlab chiqmoqdalar. Ushbu ishlanmalardan biri komp'yuter tomonidan boshqariladigan avtomatlashtirilgan omborxonalarining yaratilishi edi.

11.3 "Merchandayzing" tovarlarni sotishni jadallashtirish faoliyatini rejalashtirish

Merchandayzing (merchandising - sotish san'ati) bu savdo sohasida amalga oshiriladigan va ma'lum bir mahsulot, tovar, tur yoki qadoqni targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar majmui. Merchandising - bu savdo nuqtasida xaridor va mahsulot o'rtasida samarali aloqa o'rnatish uchun texnologiyalar to'plami. Chakana savdo uchun tayyor bo'lgan mahsulot va xizmatlarni sotishni rag'batlantirish jarayoni. Merchandayzing sotish miqdorini belgilash, marketing strategiyasini ishlab chiqish, narx belgilash, turli chegirma va kuponlarni qo'llash kabilarni o'z ichiga oladi.

Merchandayzingni asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xaridorga mahsulot namoyish etiladigan joy haqida ma'lumot berish;
- mahsulotning mohiyati va narxi haqida to'liq ma'lumot berish;
- tovarlarni namoyish qilinadigan muayyan joyga maksimal darajada e'tiborni jalb qilish;
- xaridorni darhol sotib olishga ishonirish uchun xaridorga ta'sir qilish;

• mahalliy brendlar yordamida raqobatdosh mahsulotning haqoratlanishiga yo'l qo'ymaslik;

- sotishni boshqarish;
- iste'molchilarning xatti-harakatlarini boshqarish;
- o'rtacha sotib olish miqdorini oshirish.

Merchandayzingning quyidagi turlarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

- tovar merchandayzingi
- chakana savdo merchandayzingi
- vizual merchandayzing
- raqamli merchandayzing.

Tovar merchandayzingi har qanday turdagi tovarlarni sotishni rag'batlantirish jarayonini o'z ichiga oladi (bozordagi hamda onlayn tovarlar). Chakana savdodagi barcha tovar turlarini (raqamli tovarlardan tashqari) sotishni rag'batlantirish bilan bog'liq jarayonlar chakana savdo merchandayzingini tashkil qiladi. Savdo nuqtalarida reklama turlari va usullarini takomillashtirib, tanlov jarayonida xaridorlarga savdo bo'yicha maslahatchilar ishtirokisiz tovarlarni tanlashga yordam beradi. Savdo maydonidagi xaridorlarning moslashuv davrini qisqartirib, tashrif buyuruvchilarning psixologik holatiga mos do'kon muhitini yaratadi. Tovar merchandayzingi "Oltin uchburchak" qoidasidan fodalaniishi kerak. Chunki, xaridorlarning 90 foizga yaqini do'kon qavatining uchdan bir qismini bosib o'tib ketishadi. Shuning uchun asosiy tovarlarni kirish joyidan ko'rinadigan joyga joylashtirish, ularga yaxshi taqdimot va bepul yondashish kerak. Kirish joyi, asosiy (eng ko'p talab qilinadigan) mahsulot va kassa mashinasi "oltin uchburchak" ni tashkil etadi, uning maydonida siz tezda sotish uchun zarur bo'lgan tovarlarni qo'yishingiz mumkin (qimmat, yangi, hamroh). "Oltin uchburchak" qoidasida kirish, chiqish va eng ko'p sotiladigan buyum o'rtasida hosil bo'lgan maydon qanchalik katta bo'lsa, savdo hajmi shuncha yuqori bo'ladi. Shunga ko'ra, odam uchun butun do'kon bo'ylab sayohat qilishga tayyor

bo'lgan eng "xaridorbob" mahsulot do'konning orqa tomoniga optimal tarzda joylashtirilgan, bu xaridorni zalni kesib o'tishga va butun assortiment bilan tanishishga majbur qiladi. Masalan, poyabzal uchun lak va poyabzal cho'tkasi, shampun va sochlar uchun konditsioner, mushuk uchun ovqat va axlat qutisi. Xaridorlarni aniq o'tkazib yubormasliklari uchun merchandayzing o'ziga xos mavzular zonasini yaratishi kerak: bu uy-ro'zg'or buyumlari yoki "Kiyim va poyafzal uchun barcha narsalar", "Hayvonlar uchun mahsulotlar" bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'zaro savdo-sotiqning bir qismi sifatida alohida reklama zonalar yaratilib, unda ma'lum bir vaziyatga ega bo'lgan uyushmalarni keltirib chiqaradigan tovarlar namoyish etiladi. Katta mebel supermarketlari buni qanday amalga oshirayotganini eslang masalan, oshxonani jihozlashadi, u yerda hamma narsa namoyish qilinadi va joylashtiriladi: stol va stuldan sochiq va guldonlargacha. Merchandayzing qilib xaridorning e'tiborini bo'limning barcha tovarlariga qaratish zarur.

Chakana savdo sanoatida vizual merchandayzing sotiladigan mahsulot va xizmatlarning ko'rinishini va afzalliklarini ta'kidlash uchun ishlatiladigan barcha namoyish texnikasini o'z ichiga oladi. Vizual merchandayzingda mahsulot xususiyati va afzalliklari turli xil bannerlar videolar va giflar orqali tasvirlanishi mumkin. Agar siz ularni to'g'ri tuzsangiz, xaridorlar mamnuniyat bilan do'konda kutilganidan ancha uzoqroq bo'lishadi. Raqamli merchandayzingda tovarlarni onlayn tarzda sotishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

